

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VA TARIX FAKULTETI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishining
dastlabki bosqichlari
(VII-XI asrlarda)**

Bajardi: “Xorijiy mamlakatlar tarixi” ta`lim yo`nalishi bitiruvchi kurs talabasi
Yodgorov Sherbek Meylijonovich _____

(imzo)

Ilmiy rahbar: katta o`qituvchi Z.M. Qodirov _____

(imzo)

TOSHKENT - 2012

Bitiruv malakaviy ishi himoyaga tavsiya etildi

“Jahon siyosati va tarix”
Fakulteti dekani
s.f.n. dots. Bekmuratov I.N.

“ ” _____ 2012-yil

“Xorijiy mamlakatlar tarixi”
Kafedراسi mudiri
t.f.n. dots. Ismoilova Y. A.

“ ” _____ 2012-yil

MUNDARIJA

Kirish	3
Asosiy qism	
1-bob. Arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi	10
1.1 Arab-musulmon madaniyati tushunchasi va uning tarkibiy qismlari.....	10
1.2 Ummaviylar hukmronligi davrida arab-musulmon madaniyati	30
1.3 Abbosiylar hukmronligi davrida arab-musulmon madaniyati	37
2-bob. Al-Andalusiya (Musulmon Ispaniyasi) madaniyati	55
2.1 Ispaniyada arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi.....	55
2.2 Arab-musulmon madaniyatining Yevropaga ta`siri.....	74
Xulosa va takliflar	91
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati	93
Ilovalar	96

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Ajdodlarimizning asriy orzusi bo`lgan milliy istiqloqlga erishilganidan so`ng ijtimoiy hayotning ko`pgina sohalari qatori ma`naviyatga, madaniy merosga bo`lgan e`tibor har qachongidan ham kuchaydi. Respublikamizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan yangilanish jarayoni ayniqsa, ma`naviyat sohasida jadal davom etmoqda. Mustaqillik mafkurasi va milliy g`oya yoshlar ongiga ko`proq singib borayotgani bois ularda komillikka intilish, ajdodlarimiz merosi, ularning jahon tamadduniga qo`shgan hissasi, umuman, madaniyat tarixiga bo`lgan qiziqish kuchaymoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov ma`naviyatni yuksaltirishda o`tmish madaniy boyliklarini chuqur o`rganish va targ`ib etish nihoyatda muhim ekanini ko`plab ma`ruzalarida qayta-qayta ta`kidlab o`tganlar. Shu o`rinda davlatimiz rahbarining madaniy meros va o`tmishdagi allomalarimizning hayoti va ijodini o`rganish ehtiyoji xususidagi so`zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.

“Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko`p asrlar mobaynida yaratib kelingan g`oyat ulkan, bebaho ma`naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan nihoyat muhim vazifa bo`lib qoldi¹”.

Dunyo sivilizatsiyalari tarixida muhim o`rin tutuvchi arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida Arab Xalifaligi tarkibiga kirgan barcha xalqlar qatori Markaziy Osiyo xalqlari ham benihoya darajada ulkan hissa qo`shganlar. Ushbu madaniyat yuksalishiga hissa qo`shgan buyuk ajdodlarimizning hayoti va ijodi bugungi kunda nafaqat mamlakatimiz, balki jahon ahlining hurmat-e`tiboriga sazovor bo`lib, keng miqyosda e`tirof etilmoqda. Shuningdek, arab-musulmon madaniyati jahon xalqlari madaniyatiga ta`siri shunchalik beqiyoski, Arab xalifaligi tarkibiga kirgan Osiyo va Shimoliy Afrika mamlakatlaridan tashqari, hatto Yevropa davlatlari ham ushbu ta`sirdan chetda qolmadi. Madaniyat umuminsoniy hodisadir. Faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997, 137 бет.

xalqning o`zigina yaratgan sof madaniyat bo`lmaydi va bo`lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millatning o`zi yaratgan bo`lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta`siri bo`ladi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta`kidlaganidek, “Ma`lumki, har qaysi xalq yoki millatning tafakkuri, turmush tarzi, ma`naviy qarashlari o`z-o`zidan, bo`sh joyda shakllanib qolmaydi. Ularning vujudga kelishi va rivojlanishida aniq tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillar asos bo`lishini hammamiz yaxshi tushunamiz²”.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda ushbu bitiruv malakaviy ishini dolzarbligi va ahamiyatlilik darajasini belgilaydigan bo`lsak, u quyidagilarda namoyon bo`ladi:

Ko`p yillar davomida sharqshunoslikka oid adabiyotlarda VII-XI asrlarda shakllanib taraqqiy etgan madaniyatning yaratuvchilari faqatgina arablar deb noto`g`ri talqin etib kelindi. Aslida esa bu madaniyat Arab xalifaliga tarkibiga kirgan barcha mamlakat xalqlari yaratgan umumiy madaniyat ekanligini, unda buyuk ajdodlarimizning ham hissasi buyuk ekanligini e`tirof etish bugungi kunda nihoyatda dolzarbdir.

Arab-musulmon madaniyatini o`rganishning dolzarbligi shundaki, mustaqil ijtimoiy-siyosiy taraqqiqyot yo`lida borayotgan musulmon Sharqi, va umuman, ko`plab Osiyo va Afrika mamlakatlaridagi madaniy-ma`naviy meros va madaniy qadriyatlarning hozirgi jamiyatda, uning ma`naviyati va mafkurasida tutgan o`rni muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Musulmon dunyosi yaratgan madaniy merosning nafaqat Sharq, balki G`arb mamlakatlarining ijtimoiy-ma`naviy hayotida tutgan roli, shuningdek, arab-musulmon madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishiga qo`shgan ulkan hissasini xolisona yoritish, uni to`laqonli tadqiq etish bugunning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu bois yuqoridagi masalalarni yangicha qarashlar va mezonlar asosida o`rganish tadqiqotimizning dolzarbligini belgilaydi.

² Karimov I.A. Юксак маънавият енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008, 7 бет.

O`rganilganlik darajasi. O`zbekiston olimlari tomonidan mavzuga doir masalalar atroflicha yoritilgan. Xususan, F.Sulaymonova³, B.Abduhalimov⁴, Hoji Ismatulloh Abdulloh⁵, A.Murodov⁶, U.Uvatov⁷ va boshqalar musulmon madaniyatini tadqiq etishga muhim hissa qo`shganlar. Bu o`rinda F.Sulaymonovanning “Sharq va G`arb” monografiyasida arab-musulmon madaniyatini yaxlit holda tadqiq etganligini alohida ta`kidlash zarur. Shuningdek, B.Abduhalimovning “Bayt al-Hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag`doddagi ilmiy faoliyati” kitobida o`rta asr manbalarida saqlangan “Bayt al-Hikma” haqidagi ma`lumotlar jamlangan, ular ilk bor atroflicha yoritilib, mazkur ilmiy markazning tashkil topishi, tarkibiy tuzilishi, vazifalari va taraqqiyoti haqida so`z yuritiladi.

So`nggi yillarda “Ma`naviyat yulduzlari⁸” nomi bilan chop etilgan va yuzga yaqin markaziy osiyolik buyuk siymolar, allomalar va adiblar haqida ma`lumotlarni o`z ichiga olgan bio-bibliografik asarni mamlakatimizda ushbu turkumdagi tadqiqotlarning eng yirigi sifatida baholash mumkin. Kitobda ming yildan ortiq vaqt (IX-XX) oralig`ida yashab, ijod etgan mashhur kishilarning hayoti va ilmiy merosi bayon qilinadi.

Shveytsariyalik sharqshunos olim Adam Mets o`zining IX-X asrlarda musulmon Sharqida yuz bergan madaniy rivojlanishning tarixiga bag`ishlangan “Musulmon renessansi⁹” asari bilan mutaxassislarga yaxshi tanish. Asarda muallif ko`zlagan asosiy g`oya – IX-X asrlarning musulmon Sharqidagi uyg`onish (renessans) davri ekanini ko`rsatishga intilish deyish mumkin; shuning uchun ham u o`z asarini “Musulmon renessansi” deb ataydi. Adam Metsning kitobi

³ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997. Абдуҳалимов Б. Байт ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010.

⁴ Абдуҳалимов Б. Байт ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010.

⁵ Ҳожи Исмаилов Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислам маданияти. -Т.: “Шарқ”, 2005.

⁶ Муродов А. Ўрта Осиё хатотлик санъати тарихидан. -Т.: “Фан” нашриёти, 1971, 3 бет.

⁷ Уватов У. Муҳаддислар имоми. -Т.: “Маънавият”, 1998.

⁸ Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар)//Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев/-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001/

⁹ Мец А. Мусулманский Ренессанс. -М.: Издательство «Наука», 1973.

Sharq xalqlari ijtimoiy hayotining deyarli barcha qirralarini tarixiy manbalar asosida yoritib beruvchi muhim fundamental tadqiqot hisoblanadi.

O`rta asr Sharq xalqlari madaniyatini o`rganishda avstraliyalik Gustav fon Gryunebaumning xizmatlari ham tahsinga loyiq. Uning 1970-yili Londonda nashr etilgan “Klassik islom¹⁰” kitobida Sharq xalqlari tarixi va madaniyatiga doir muhim ma`lumotlar aks etgan.

Rossiyalik sharqshunoslar orasida esa arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog`liq masalalar, asosan, V.V. Bartold¹¹, O.G. Bolshakov¹², I.M.Filshtinskiy¹³, L.G.Landa¹⁴, T.A.Chistyakova¹⁵, T.Y.Irmiyayeva¹⁶, K.P.Matviyev¹⁷, M.V.Sokolovalarning¹⁸ asarlarida o`z ifodasini topgan.

Al-Andalusiya (Musulmon Ispaniyasi)da arab-musulmon madaniyatining shakllanishi hamda ushbu madaniyatning ko`pgina Yevropa mamlakatlariga ta`siri U.U.Mongomeri¹⁹, U.M.Uott va P.Kakia²⁰, A.R.Korsunskiy²¹, X.Lalaguna²² asarlarida atroflicha yoritilgan.

Malakaviy ishning maqsad va vazifalari: Ushbu bitiruv malakaviy ishida ilmiy rahbar va maslahatchi tavsiyasiga ko`ra, maqsad va vazifalar reja asosida belgilandi. Bitiruv malakaviy ishining bosh maqsadi arab-musulmon madaniyatining ilk tarixiy shakllanish jarayonlarini tahlil qilish va o`ziga xosliklarini o`rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

¹⁰ Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600–1258). -М.: 1988.

¹¹ Бартольд В.В. Сочинения VI. Работы по истории ислама и Арабского Халифата. -М.: Издательство «Наука», 1966.

¹² Большаков О.Г. Очерки истории арабской культуры. -М.: 1982.

¹³ Фильштинский И.М. История арабов и Халифата 750-1517 г.г. -М.: Издательство «Восток-Запад», 2006.

¹⁴ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005.

¹⁵ Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство Учпедгиз. 1962.

¹⁶ Ирмияева Т.Ю. История мусульманского мира от халифата до блистательной порты. -М.: Издательство «Урал-книга». 2000.

¹⁷ Матвеев К.П. История Ислама. -М.: Издательство «Восток-Запад», 2005.

¹⁸ Соколова М.В. Мировая культура и искусство. -М.: Издательский центр “Академия”, 2007.

¹⁹ Монгомери У.У. Влияние ислама на средневековую Европу. -М.: «Наука», 1976.

²⁰ Уотт У.М., Какиа П. Мусульманская Испания -М.: Издательство «Наука», 1976.

²¹ Корсунский А.Р. История Испании IX-XIII веков. -М.: Высшая школа, 1976.

²² Лалагуна Х., Испания: История страны. -М.: Издательство Мидгард, 2009.

- Arab-musulmon madaniyati tushunchasiga aniqlik kiritish va uning geografik kengliklarini belgilab olish;

- Arab-musulmon madaniyatining tarixiy shakllanish bosqichlarini aniqlash;

- Arab-musulmon madaniyatining tarkibiy qismlarini hamda uni shakllantiruvchi omillarini o`rganish;

- Arab-musulmon madaniyatini ummaviylar va abbosiylar davridagi umumiy holatini alohida-alohida tarzda tadqiq etish;

- Arab-musulmon madaniyatining Yevropa madaniyatiga ta`sirini o`rganish;

- Al-Andalusiyada arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish.

Shuningdek, biz bu mavzuni o`rganishda tarixiy voqea va hodisalarga obyektivlik va haqqoniylik tamoyillariga asoslangan holda yondashdik. Biz o`z pozitsiyamizdan turib, mavzu mazmunidan namuna va xulosalar chiqardik. Tarixni tahliliy va qiyosiy yoritish asosiy vazifamiz deb hisoblaymiz.

Metodologik va nazariy asoslari. Mustaqillik davrida hayotimizga kirib kelgan demokratik tamoyillar, oshkoralik yangicha dunyoqarash hamda yangicha fikrlash, milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va Prezidentimiz Islom Karimovning ma`ruzalarida, nutqlarida, chiqishlari va asarlarida ilgari surilgan milliy mafkura g`oyasi, mustaqillik mafkurasi va manbalarga tayangan holda holis va haqqoniy yoritish mazkur tadqiqotning uslubiy asoslarini tashkil etadi.

Malakaviy ish metodologik asoslariga mamlakatimiz rahbarining bir qancha asarlari, xususan, “O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch” asarlari bizga asosiy uslubiy yo`llanma bo`lib xizmat qildi. Prezidentimiz deyarli har bir nutqlarida tarix fani haqida to`xtalib, asl tarixni yaratishda, qadimiy qo`lyozmalarni, xususan, arab tili va qadimgi qo`lyozmalarni mukammal biladigan mutaxassis tarixchi olimlarni tayyorlash kerakligi haqida ko`p ta`kidlab, o`tadilar. Shuningdek, ko`rib chiqilayotgan mavzuni o`rganib chiqishda bizning yurtimizda mavjud sharqshunoslik maktabi namoyondalarining ilmiy tadqiqot olib borish uslubi va metodlaridan ham keng foydalandik. Ushbu bitiruv

malakaviy ishning o`rganish metodologik usuli sifatida qiyosiy, tahliliy va analiz usullari tanlandi. F. Sulaymonova, B. Abduhalimov, G`. G`afurov, A. Murodov, N.Nizomiddinov kabi yana bir qancha sharqshunos olimlar tadqiqotlarining metodologiyasidan keng foydalandik.

Amaliy ahamiyati. Arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishini tadqiq etish Xalifalik tarkibidagi barcha mamlakatlar xalqlari madaniyatini qiyoslab o`rganish imkoniyatini yaratdi. Tarixiy voqe`likni umumlashtirgan holda, aniq va keng tasavvur qilish hamda tarixiylik nuqtai-nazaridan xolisona xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Insoniyat tarixida tub burilish yasagan arab-musulmon madaniyatini o`rganish jarayonida juda ko`plab muhim bo`lgan qiziqarli ma`lumotlarni olish mumkin va bu ma`lumotlarni tahlil qilish orqali muhim xulosalarga kelinadi. Bu mavzuga doir ma`lumotlar o`zbek, rus hamda chet tilidagi adabiyotlardan umumlashtirilgan holda, bu bitiruv malakaviy ish tahlil qilinib yaratildi.

Ilmiy yangiligi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida o`ta muhim ilmiy yangilik qildik deb da`vo qilishdan ancha yiroqmiz, chunki bitiruv malakaviy ishi darajasida bunga erishish juda mushkil bo`ladi. Lekin biz bu ishning ayrim taraflarining ochilmagan tomonlarini ochib berishga harakat qildik va ishning yangiligi sifatida shularni alohida ta`kidlab o`tishimiz mumkin.

O`z tasarrufiga uchta qit`ani birlashtirgan qudratli Arab xalifaligi davlatida vujudga kelgan arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va tez suratlarda rivojlanishiga ta`sir ko`rsatgan omillarni turli adabiyotlar mushtarakligida baholi qudrat sanab o`tishga harakat qildik. Shuningdek, imkon qadar arab-musulmon madaniyatining tarkibiy qismlarini o`zaro uzviyligini ta`minlagan holda ketma-ketlikda yoritishga harakat qildik. Ma`lumki, arab-musulmon madaniyati adabiyotlarda umumiy tarzda, asosan, sohalarga bo`lingan holda yoritiladi. Ilk bor arab-musulmon madaniyatini davrlarga ajratishga urinib ko`rdik va ummaviylar hamda abbosiylar davridagi arab-musulmon madaniyatining umumiy holatini alohida-alohida tarzda tadqiq etdik.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi 94 sahifadan bo`lib, kirish, ikki bob, 5 bo`lim, xulosa, ilova, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I BOB. ARAB-MUSULMON MADANIYATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

1.1 “Arab-musulmon madaniyati” tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

“Arab-musulmon madaniyati” va uni shakllantiruvchi omillar.

“Madaniyat” – jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, ma`naviy-ma`rifiy hayotida qo`lga kiritgan yutuqlari majmuidir²³. Madaniyat umuminsoniy hodisa bo`lib, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o`zigina yaratgan sof madaniyat bo`lmaydi va bo`lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o`zi yaratgan bo`lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta`siri bo`ladi, albatta²⁴.

Yuqoridagi fikrlarning tasdig`i Islom bayrog`i ostida birlashtirilgan Arab xalifaligida VII asrda vujudga kelgan “arab-musulmon madaniyati”da ayniqsa, yaqqol namoyon bo`ladi. Madaniyat so`zining keng qamrovdagi – ilm-fan, adabiyot va san`atning deyarli hamma sohalari ma`nosini arab-musulmon madaniyati mohiyati va mazmuniga qo`llagan taqdirda ham, uning bashariyatga qilgan madaniy, ma`naviy va ma`rifiy tortig`ini to`la-to`kis ta`riflash juda murakkab. Shuning uchun mavzuni imkon qadar batafsil va turli manbalar mushtarakligida yoritishga harakat qildik.

Insoniyat tarixida arablarga qadar va ulardan keyin ham ko`chmanchi qabilalarning o`zlaridan madaniyati yuksak bo`lgan xalqlarni istilo qilganliklari tarixiy manbalarda o`z ifodasini topgan. Demak, arablar istilosi harbiy jihatdan bizni unchalik taajjubga soladigan voqea emas. Lekin ajablanarlisi shundaki, arablardan tashqari hech qaysi ko`chmanchi xalqlar istilosi insoniyat tarixida yangi sivilizatsiyani, yangi madaniyatni yaratgan emas. Arablar istilo qilgan mamlakatlarda esa yangi madaniyat vujudga keldi. Xalifalik tarkibidagi barcha xalqlarning madaniyatlarini o`z ichiga oluvchi bu yangi sivilizatsiya islom diniga

²³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 том. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006, 519 бет.

²⁴ ЎЗМЭ 5 том. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003, 373 бет.

asoslangan holda tafakkur jarayonini jadallashtirishga va odamlar ongini uyg`otishga yo`naltirilgan edi.

Uzoq davr mobaynida sharqshunoslikka oid adabiyotlarda “arab madaniyati” yohud “musulmon madaniyati” tushunchasi hukm surdi. Bu tushuncha asosida o`rta asrlar davridagi xalifalik tarkibiga kirgan mamlakatlarda yaratilgan barcha madaniy meros tushunilardi. Hozirgi kunda olimlar yangi va ilgari noma`lum bo`lgan manbalarga ega bo`lgach, shuningdek, adabiyot, falsafa, san`at va xalifalik davlatlarining boshqa ilm-fanlari yanada chuqurroq o`rganilgach, bu tushuncha noto`g`ri ekanligi o`z tasdig`ini topdi²⁵.

Endilikda sharqshunos olimlar tomonidan xalifalik tarkibidagi barcha hududlarda vujudga kelgan madaniyat “arab-musulmon madaniyati” deb atalmoqda. Ushbu madaniyat Arabiston yarim oroli, Yaqin va O`rta Sharq, Shimoliy Afrika, Ispaniya (markaziy va janubiy mintaqalari), Markaziy Osiyo va Kavkazortida shakllandi va rivojlandi.

Arab-musulmon madaniyatining shakllanishi hamda bu qadar taraqqiy etishiga quyidagi bir qancha omillar sabab bo`lgan:

- Xalifalik xalqlarining yagona Islom diniga e`tiqod qilganligi. Islom dini yangi madaniyatning mafkuraviy asosini belgilab berdi va Xalifalikning barcha xalqlarini uni yaratishga jalb etdi²⁶. Bunda musulmonlarning muqaddas kitobi “Qur`oni Karim” va undan keyingi o`rinda turuvchi hadislar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.
- Istilolar natijasida xalifalikka birlashtirilgan turli mamlakat xalqlarining ilg`or madaniyati imkon qadar bir-birini boyitdi. Bu o`rinda yagona davlat tili – arab tilining faqat Xalifalikni tashkil etgan xalqlar o`rtasida aloqa tiligina bo`lib qolmay, adabiyot va ilm-fan tiliga ham aylanganligi katta rol o`ynagan²⁷. Buyuk allomalar qaysi xalq vakillari bo`lmasin, arab tilida ijod qilganlar. Bu omil xalifalik tarkibidagi turli xalqlarga bir-birining

²⁵ Чистякова Т.А. Арабский халифат, –М.: Издательство Учпедгиз. 1962, стр. 131.

²⁶ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005, стр. 67.

²⁷ Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600–1258).-М.: 1988, электронная версия: стр. 55.

madaniyati yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratgan. Xalifalik madaniyatini faqat arablar emas, xalifalik tarkibiga kirgan barcha xalqlar yaratganligi ushbu omilda to`la-to`kis o`z tasdig`ini topadi.

- Xalifalikda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti turli darajada bo`lgan mamlakatlar va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o`rtasida yaqin aloqalarning o`rnatilishi, iqtisodiy hayotning ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalari rivojiga turtki bergan. Bu omil o`z navbatida o`zaro madaniyat almashinuviga ham shart-sharoit yaratgan. Savdo va hunarmandchilik, jamiyat hayotidagi o`zgarishlar turli muammolarni keltirib chiqardi. Ularning yechimini topish ilm-fanning rivojiga ehtiyoj tug`dirdi²⁸.
- Islom din sifatida shakllangan davrda arablar yarim badaviy elatlardan iborat bo`lgan xalq edi. Tabiiyki, arablar ham o`zlari zabt etgan mamlakat xalqlarining ilg`or madaniyatini zudlikda o`zlashtirdilar. Ushbu madaniyat xalifalikni tashkil etgan xalqlar madaniyati asosida islomga moslashtirib mujassamlashtirilgan madaniyat edi²⁹.
- Arab xalifalari olimlar, shoirlar, san`at vakillarini o`z homiyliklariga olganlar. Xalifalarning bu xatti-harakatini homiylik deb emas, balki butun jamiyat bilan birgalikda haq yo`ldan borish deb ham tushunish mumkin. Xalifalarning ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilishi shubhasiz, arab-musulmon madaniyatining yuksak darajada taraqqiy etishini ta`minlagan³⁰.

Yuqoridagi omillarga hamohang tarzda sharqshunos olim, professor Isaak Moiseyevich Filshinskiy arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishini quyidagicha talqin etadi: “O`rta asr tarixining muayyan bosqichida ayniqsa, barcha musulmon xalqlari yagona davlat – Xalifalikning tarkibiga kirgan davrda arab-musulmon madaniyati yuzaga keldi va taraqqiy topdi. Bu madaniyatning shakllanishida eng asosiy rolni islom dini va arab tili bajardi³¹”.

²⁸ Сулаймонова Ф. Шарк ва Фарб. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997, 190 бет.

²⁹ Ўша асар, 190 бет.

³⁰ Ирмияева Т.Ю. История мусульманского мира от халифата до блистательной порты. -М.: Издательство «Урал-книга». 2000, электронная версия: стр. 55.

³¹ Фильштинский И.М. История арабов и Халифата 750-1517 г.г. -М.: Издательство «Восток-Запад», 2006, стр. 299.

Olim o`z fikrini davom ettirarkan, xalqlar birlashuvida islom dinining o`rni haqida bunday deydi: “Har bir musulmon eng avvalo umummusulmon jamiyatining vakili, undan keyingina biron bir shahar yoki muzofot (viloyat)ning fuqarosi va biron etnik guruhning a`zosi edi. Juda katta hududlarga tarqalib ketgan ko`p sonli musulmon xalqlarining birdamligi Qur`on va muqaddas hadislar asosida o`rnatilgan diniy qonunlar, marosimlar va ahloq normalarining umumiyliigi bilan mustahkamlandi³²”.

Darhaqiqat, Xalifalikning e`tiqodi, taraqqiyot darajasi turlicha bo`lgan xalqlarini birlashtirishda eng katta rolni islom dini va arab tili bajargan edi. Bevosita arab-musulmon madaniyatining shakllanishida arab tilining ahamiyatiga to`xtaladigan bo`lsak, o`rta asrlarda arab tilining roli nihoyatda yuksak bo`lganligini e`tirof etishimiz mumkin.

Arab tili. Arab tili somiy tillar guruhiga mansub bo`lib, barcha tillar kabi murakkab rivojlanish yo`lini bosib o`tgan. Qabilalarning birlashuvi turli arab qavmlari tillarining yaqinlashuviga olib keldi va barcha arablar tushunadigan yagona til paydo bo`ldi. Biroq yagona til bilan birga qabilalar lahjalari ham mavjud edi. Yagona arab tili shoirlar, notiqlar va boshqa ma`lumotli kishilar tomonidan qo`llanilgan bo`lsa, lahjalar ichida quraysh qabilasining lahjasi keng tarqalgan edi. Bu shu bilan izohlanadiki, Ka`batullohga ziyorat uchun tashrif buyurgan ziyoratchilar Makka shahrida o`troqlashgan va hokimiyat tepasida bo`lgan qurayshiylar qabilasi bilan doimiy muloqotda bo`lardi va qurayshiylar lahjasi butun Arabiston bo`ylab keng so`zlashuv tiliga aylanib bordi. Arab tilini o`zagini quraysh lahjasi tashkil qiladi. Bundan tashqari arablar Misr, Eron, Vizantiya, Efiopiya (Xabashiston) xalqlari bilan yaqin aloqada bo`ldi. Bu esa, arab tilini shu xalqlarning tillaridan kirib kelgan yangi so`z va atamalar bilan yanada boyitdi. Islom paydo bo`lganida arab tili shu qadar boy tilga aylangan

³² Фильштинский И.М. История арабов и Халифата 750-1517 г.г. -М.: Издательство «Восток-Запад», 2006, 299 бет.

ediki, uning soʻz boyligi bilan har qanday murakkab tushunchani ham ifodalash mumkin edi³³.

Xalifalikda arab tilining juda tez va nihoyatda keng koʻlamda tarqalishining eng asosiy omili shu ediki, xalifalikka kiruvchi davlatlarning hech birida yagona til hukmron emas edi. Adabiy arab tili “denatsionalizatsiya” qilindi, endi u faqatgina arablarning tili boʻlmay, balki umumiy madaniyatning asosiy elementi sifatida qabul qilindi. Har bir tahsil koʻrgan musulmon, u hoh turk yoki fors millatiga mansub boʻladimi, uzoq Al-Andalusiya yoki Hindiston fuqarosi boʻlishidan qatʼiy nazar muqaddas Qurʼon va diniy adabiyotlar tili boʻlgan arab tilini egallashga harakat qildi³⁴. Bundan anglashiladiki, arab tilining tarqalishida aholining islomlashtirilishi ham katta rol oʻynagan. Iymon keltirgan har bir musulmon Allohning muqaddas kitobini hamda uning paygʻambari boʻlmish Muhammad (sav)ning tilida oʻqishi shart edi. Arab tilining ahamiyatini Oʻrta asr Gʻarbiy Yevropasidagi lotin tilining roliga qiyoslash mumkin³⁵. Shuning uchun arab tilini koʻp hollarda “Sharq lotini” deyishadi. Ammo lotin tili oʻrta asrlarda faqat tahsil olganlar orasidagina mavjud edi. Bu paytda arab tili koʻplab Sharq xalqlarining jonli soʻzlashuv tili edi. Arablar oʻz tillarini davlat tili deb eʼlon qilishdi va ummaviylar davridayoq hujjat yuritish ishlari yolgʻiz arab tilida olib borilardi³⁶. Arab tilini mukammal oʻrganish nafaqat din ulamolari uchun, balki ziyolilar, davlat boshqaruv vakillari, huquqshunoslar uchun ham majburiy edi. Arab tilining keng yoyilishi arab-musulmon fanlarining rivojiga ulkan taʼsir koʻrsatdi. Olimlarning oʻzaro muloqoti uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Yagona til qadimgi madaniy merosni oʻrganish uchun keng imkoniyatlar yaratdi³⁷.

³³ Чистякова Т.А. Арабский халифат. - М.: Издательство Учпедгиз, 1962, стр. 132.

³⁴ Фильштинский И.М. История арабов и Халифата 750-1517 г.г. -М.: Издательство «Восток-Запад», 2006, стр. 299-300.

³⁵ Всемирная история. III том. -М.: Государственное издательство политической литературы, 1957, стр. 122.

³⁶ Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство «Учпедгиз», 1962, стр. 131-132.

³⁷ Фильштинский И.М. Ўша асар, стр. 300.

Qur`on*. Arab tili grammatikasi va adabiyotining rivojlanishida musulmonlarning muqaddas kitobi Qur`oni Karimning o`rni beqiyosdir. Qur`on ilmlari rivojlanishi jarayonida aniq grammatik qoidalarga nisbatan paydo bo`lgan ehtiyoj bu sohaning taraqqiy etishiga turtki bo`ldi. Faqat arab tilida emas, balki islom tarqalgan mamlakatlar xalqlarining tillarida yaratilgan asarlarda ham Qur`ondan olingan iqtibos, ibora, hikoyat, zarbulmasallarni uchratish mumkin. Qur`on musulmon xalqlar hayoti, tarixi, ilmi, adabiyoti, turmush tarzi, qonun-qoidalari, urf-odatlar va dunyoqarashlarida o`zining salmoqli ta`siriga ega³⁸.

Qur`on yagona arab tilini shakllanishini jadallashtirdi va ko`plab mamlakatlarga yoyilishida muhim o`rin egalladi. Qur`on va hadislar arab tiliga ham diniy, ham huquqiy atamalarni olib kirdi. Chunki Qur`on faqatgina musulmonlarning muqaddas kitobi bo`lib qolmay, barcha qonunlar qomusi, musulmon huquqshunosligi (fiqh)ning asosi edi.

Arab-musulmon adabiyoti arab yozma adabiyotining ilk yodgorligi bo`lgan Qur`oni Karimdan boshlangan. Qur`oni Karimning ta`siri keyinchalik butun arab adabiyotida sezilib turadi, chunki Qur`on arab tilini og`zaki ijodiyot tilidan yozma adabiyot tiliga aylantirishga oid ilk tajriba hamdir. Qur`oni Karim tili arab adabiy tili poydevoriga aylandi (“al-lug`at al-fus`ha”) ³⁹. Zero, arab tili bu Qur`on tilidir, Qur`on tili arab tilidir (“al-lug`at al-arabiyya hiya lug`at al-Qur`an”).

Ilk islom davri adabiyoti. Ma`lumki, islomgacha bo`lgan arab madaniyatida xalq og`zaki ijodi katta o`rin egallaydi. Zero, o`sha davr asarlari faqat yod olinar va og`izdan-og`izga, avloddan-avlodga yetkazilar edi. Bunda yuksak qobiliyat sohiblari bo`lgan shoirlar alohida o`rin tutgan. Ular qabilani maqtab she`r yozish bilan birga qabila tarixini xotiralarida saqlab qolishardi.

* Qur`on (arabcha – o`qimoq, qiroat qilmoq) vahiy orqali Muhammad payg`ambarga 610-632-yillar davomida nozil qilingan. Bu davr mobaynida Qur`on Muhammad (s.a.v.) sahobalari tomonidan turli materiallar – palma barglari, yog`och taxtachalarga yozib olingan. 632-yili Xalifa Abu Bakr Siddiq buyrug`iga ko`ra ular jamlanib, kiyik terisiga ishlangan sahifalarga ko`chirilgan. Qur`on xalifa Usmon ibn Affon ko`rsatmasi bilan yaxlit kitob shakliga keltirilgan. “Mus`hafi Usmon” deb nomlanuvchi Qur`oni Karimning bu nusxasi Muhammad (s.a.v.)ning kotiblari - Zayd ibn Sobit, Amir ibn al-Os va Hishom ibn Hakimlar tomonidan kufiy xatida yozilgan.

³⁸ ЎзМЭ 11 том. -Г.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005, 167 бет.

³⁹ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005, стр. 69.

Shoirlar qabila ahlini o`tmish bilan bog`lovchi ko`prik vazifasini o`tashgan. Qabila ahlini to`plagan bayramlarda asosan she`rxonlik qilinardi.

Islom dinining vujudga kelishi dastlab she`riyat taraqqiyotiga salbiy ta`sir o`tkazdi. Zero, ilk musulmonlar poeziyani “johiliya”^{*} davri qabilalariga xos bo`lgan qabilaviy fidoiylikni ifoda etuvchi vosita deb hisoblagan edilar. Ammo, shundan so`ng she`riyat o`zining xilma-xil janrlari bilan yangidan qayta tiklandi, chunonchi: maqtov (faxr), dushmanlarni la`natlash (hija), baxshida (risa), ishqiy lirika (nasib), lirik xarakterdagi tasvirlash (vasf) shular jumlasidandir⁴⁰.

Darhaqiqat, islom dinining paydo bo`lishi va arab xalifaligining barpo etilishi adabiyotga ta`sir o`tkazmay qolmadi. She`riyat o`z dunyoviy xususiyatini saqlagani holda islom arkonlarini tarqatish vazifasini o`tay boshladi. Musulmon shoirlar o`z she`rlarida Qur`on oyatlaridan aforizm sifatida foydalana boshladilar⁴¹. Bu davrning eng yorqin vakillari sifatida Kaab ibn Zuxayr, Hassan ibn Sabit, Abu Zuayb al-Xuzaliy hamda an-Nabig`a al-Ja`diylarni e`tirof etish mumkin.

Hadis* ilmi. VII asr o`rtalaridan boshlab hadislarni topib, ularni yozib olishga harakat qilingan. Hadislarni to`plash ayniqsa, VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab g`oyatda taraqqiy etib, hadis ilmi bilan shug`ullanish eng faxrli va mas`uliyatli mashg`ulotga aylangan. Manbalarda keltirilishicha, VIII asrning o`rtalaridan XV asrning o`rtalarigacha hadis ilmi bilan Sharqning turli mamlakatlarida mingdan ziyod muallif shug`ullangan. Hadisi Shariflarni dunyo ahliga payg`ambar Muhammad (s.a.v.)dan qay tarzda sodir bo`lgan bo`lsa, shundayligicha bekamu ko`st yetkazib berish olim-u ulamolar zimmasiga katta

* Johiliya (arabcha – bilimsizlik holati, jaholat) – arablar tarixining islomdan ilgarigi davriga berilgan nom. Islomdan ilgarigi Arabistonda qonunsizlik, axloqsizlik, zo`ravonlik hukm surgani uchun keyingi avlod o`sha davrni shunday deb atagan.

⁴⁰ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005, стр. 69.

⁴¹ Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство «Учпедгиз», 1962, стр. 136.

* Hadis (arabcha – “xabar”, “yangilik”) – Muhammad (s.a.v.)ning aytgan so`zlari, qilgan ishlari, ko`rsatmalari to`g`risidagi rivoyatlar. Ikki qismdan iborat bo`ladi: matn va isnod. Hadis ikki turga bo`linadi: 1. Hadisi qudsiy; 2. Hadisi Nabaviy. Hadislar e`tiborga olinishi jihatidan yana 3 qismga bo`linadi: 1. Sahih. 2. Hasan. 3. Zaif.

mas`uliyat yuklagan. Chunonchi, islom ulamolari o`rtasida ilk davrdan boshlab, hadislarning sahihligi, manbalarning ishonchliligiga alohida e`tibor berilgan⁴².

Hadis ilmining rivojida oltin davr hisoblangan IX (hijriy III) asrda bu borada mislsiz natijalarga erishilgan. Masalan, musulmon olamida eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to`plami (as-sihoh as-sitta) mualliflari ham mana shu asrda yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, ushbu oltita muhaddisning deyarli barchasi Markaziy Osiyo xalqlari vakillari edilar. Oltita muhaddis hamda ularning hadis to`plamlari quyidagilardir: Imom al-Buxoriy (810-870) – “Al-jome` as-sahih”, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (819-874) – “Sahihi Muslim”, Imom Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824-892) – “Sunani Termiziy”, Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (817-888) – “Sunani Abu Dovud”, Imom Ahmad an-Nasoiy (830-915) – “Sunani Nasoiy” hamda Imom Moja (824-886) – “Sunani ibn Moja”.

Arab-musulmon madaniyatida me`morchilik san`ati. Islom dini musulmon mamlakatlari san`atida o`z izini qoldirdi. Xususan, me`morchilik sohasida bu jarayon yangi imorat turlari – masjid, minora, madrasa va maqbaralarning paydo bo`lishiga hamda keng tarqalishiga sabab bo`ldi⁴³. Ushbu me`moriy inshootlar o`zining yuksak arxitektura yechimiga ega bo`lib, xalifalik tasarrufidagi barcha hududlarga keng tarqaldi.

Arab xalifaligi davrining me`moriy yodgorliklari ichida eng katta o`rinni ibodat maskani hisoblangan masjidlar egallaydi. Masjid arabcha “sajada” (egilish, itoat etish, sajda qilib yuzini yerga tegizish) so`zidan olingan bo`lib, “sajda qilinadigan, ibodat qilinadigan joy” ma`nosini bildiradi⁴⁴. Birinchi masjidni Madinada Muhammad (s.a.v.) qurdirgan. Unda musulmonlar namozni Quddusi Sharif (Ierusalim)ga qarab o`qiganlar. Bir yarim yil o`tgach, musulmonlar nigohi Makkaga qaratildi va shundan buyon barcha ibodat qiluvchilar Ka`ba tomon yuzlanib ibodat qilib kelmoqdalar. Masjidlar dastlab

⁴² Уватов У. Муҳаддислар имоми. –Т.: “Маънавият”, 1998, 3 бет.

⁴³ Ислom Энциклопедия. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004, 117 бет.

⁴⁴ Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислom маданияти. -Т.: “Шарк”, 2005, 324 бет.

shaharlarda, keyinchalik qishloq va mahallalarda barpo etilgan. Masjidlarning to'rida, Makkaga qaragan (qibla) tomonida mehrob, hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo'ladi. Ayrim yirik masjidlar mehrobining o'ng tomonida va'xonlik uchun mo'ljallangan minbar, ba'zilarida esa Qur'on o'qiladigan maxsus joylar ham bo'ladi⁴⁵.

Qadimdan har bir masjid yonida bitta yoki bir nechta minoralar qad ko'targan. Minoralar aylana, ko'p qirrali yoki to'rtburchak shaklida barpo qilinib, yuqoriga tomon ingichkalashib boradi. Muazzin minoraga chiqib besh mahal azon aytib, namozxonlarni namozga chorlagan. Bayram kunlari minoralar chiroqlar bilan yoritiladi. Shundan uning nomi kelib chiqqan bo'lib, "mayoq" ma'nosini anglatadi⁴⁶.

Muhammad (s.a.v.) davrida bunyod etilgan Makka shahridagi birinchi masjid oddiy va hashamdorlikdan yiroq edi. Masjid ustunlari palma yog'ochidan bo'lib, tomi esa, shoh-shabbalar bilan berkitilgan edi, xolos. Xalifalik tashkil topganidan so'ng, masjidlar qurilishi jadallashdi. Masjid me'morchiligida ustalar Vizantiya, Sosoniylar san'atining uslub va elementlaridan keng foydalandilar. Masjidlar VII-VIII asrlardan turli musulmon mamlakatlarning mahalliy me'morlik an'alarida yetakchi o'rinni egallab, o'ziga xos uslubda qurila boshlagan. Asosan murabba yoki to'g'ri to'rtburchak tarhli, markaziy qismida xonaqohi bo'lgan, hovli atrofi ravoqli ayvonlardan iborat. 8 qirrali, gumbaz tomli va ko'p ustunli, galereyali masjidlar tosh, yog'och, g'isht, rangli koshin bilan hashamdor bezatilgan.

Keyinroq Misr ham zabt etilgach, Fustat (Qohira) shahrida arab lashkarboshisi Amra ibn al-Os buyrug'i bilan koptlik* me'morlar tomonidan xalifa davrining eng qadimgi masjidlaridan biri bo'lgan Amra masjidi bunyod etildi (641-yil). Masjidning na gumbazi, na minoralari bor edi. U keng kvadrat hovlidan iborat bo'lib, hamma tomonidan yopiq ayvonlar bilan o'ralgan edi.

⁴⁵ ЎзМЭ 5 том. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2003, 499 бет.

⁴⁶ Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство «Учпедгиз», 1962, стр. 151.

* Koptlar – qibtiylar; xristian diniga e'tiqod qiluvchi Misr arablarining etnokonfessial guruhi. Misrning arablargacha bo'lgan qadimgi aholisi avlodlari.

Masjid ortiqcha bezaklardan holi bo`lsa-da, kattaligi bilan odamni hayratga solardi. Ustunlarning ko`pligi huddi o`rmonni eslatadi⁴⁷.

Shuningdek, musulmon me`morchilik san`atida madrasalar ham alohida o`rin tutadi. Madrasa (arabcha “darasa” - o`rganmoq) VII-VIII asrlarda islom dini ulamolari musulmon ilohiyoti masalalarini sharhlab berib turadigan markaz sifatida paydo bo`ldi. Keyinchalik, masjidlar qoshida ilohiyat markazlari tashkil topdi, madrasa deb atala boshladi. IX-XIII asrlarda madrasalar islom dini tarqalgan mamlakatlarda, jumladan Markaziy Osiyoda paydo bo`lib, madrasa uchun maxsus binolar qurila boshladi⁴⁸.

Madrasalar musulmon olamida me`morchilik inshooti sifatida X-XI asrlarda vujudga kelgan. Shveysariyalik arabshunos olim Adam Mets bu haqda quyidagilarni yozadi: “O`qitishda yangi usullarning vujudga kelishi, o`z navbatida, yangi turdagi o`quv muassasalarining paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Avval aytib turib yozdirish, ya`ni, “diktovka” (“imlo”) usuli o`qitishda eng yuqori daraja hisoblangan bo`lsa, X asrdan boshlab “tadris” (“sharh”, “izoh”, “munozara”) usuli yetakchi mavqeni egalladi. “Tadris” usuli o`sha davrda qabul qilingan ilmiy munozara bilan uzviy bog`liq edi, masjidlar esa, munozara uchun muvofiq emas edi. Natijada, bu davrga kelib madrasa vujudga keldi⁴⁹”.

Akademik V.V.Bartoldning aniqlashicha, Buxorodagi “Farjak” madrasasi manbalarda qayd etilgan eng birinchi madrasadir. U 937-yili shaharda sodir bo`lgan yong`indan jiddiy zarar ko`radi. Bu haqda Abu Bakr Muhammad Narshaxiy o`zining “Buxoro tarixi” asarida alohida qayd etgan. V.V. Bartold madrasalarning dastlab Buxoroda, so`ngra musulmon dunyosining Eron, Iroq, Suriya, Kichik Osiyo, Misr va boshqa o`lkalarda paydo bo`lishi sababini islom dini aynan shu zaminda zardushtiylik va buddizmning kuchli ta`siriga to`qnash kelgani, diniy g`oyalar o`rtasidagi kuchli raqobat islomni targ`ib qiluvchi malakali da`vatchilarni tayyorlovchi oliy maktablarga ehtiyojni kuchaytirib

⁴⁷ Чистякова Т.А. Ўша асар, стр. 151.

⁴⁸ Хожи Исмаиуллох Абдуллох. Марказий Осиёда Ислон маданияти. -Т.: “Шарк”, 2005, 325 бет.

⁴⁹ Мец А. Мусулманский Ренессанс. -М.: Издательство «Наука», 1973, стр. 154.

yuborgani bilan izohlaydi⁵⁰. Bu fikrni A.Mets, K.E.Bendrikov, Sh. Ismoilov, R. Shamsutdinov, B. Rasulov singari olimlar ham tasdiqlaydilar.

Ilk madrasalar bir qavatli, o`rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo`lgan. Madrasa umumiy qurilish loyihasi va qurilmasiga ko`ra, ajralib turadi. Markaziy Osiyo me`morchiligida masjid va darsxona qoidaga ko`ra, peshtoqning ikki yon qanotida joylashgan. Suriya va Misrda ular kiraverishda hovlining to`rida ko`ndalangiga ayvonli qilib qurilgan. Markaziy Osiyo va G`arbiy Osiyoda odatdagidek ravoqli qilib yopish uslubi qo`llangan. Shimoliy Afrikada to`sinli tomlar bo`lgan⁵¹.

Bundan tashqari, islom dini tarqalgan mamlakatlar me`morchiligida maqbaralar bunyod etish ham keng tus olgan. Maqbara usti qubbali chortoqli bino bo`lib, ramziy g`oyalarni o`zida ifodalagan. Chortoq - yer kurrasini ifoda etuvchi barqaror shakl, qubba - osmon gumbazi ramzi, bular birgalikda Koinotni anglatgan. "Koinot modeli"ning bu tarzda barpo etilishi borliqning Alloh tomonidan yaratilgani haqidagi aqidaga muvofiqlashtirilgan. Sharqda dastlab qabr ustiga biror tosh qo`yish, imorat qurish man etilgan bo`lsa-da, IX asrdan xalifalar sharafiga maqbaralar qurila boshlangan. Movarounnahrda ham IX asrdan maxsus maqbaralar qurish odat tusiga kirgan. Keyinchalik, asosan, mashhur kishilar (podshohlar, ruhoniylar, olimlar) qabri ustiga turli maqbaralar qurilgan.

Tasviriy san`at. O`z-o`zidan haqli savol tug`iladi: musulmonlar tasviriy san`at bilan shug`ullanishi mumkinmi? Axir, Qur`onda tirik tabiatning suratini yaratish taqiqlanmaganmi? Qur`on oyatlarida sharob, qimor, haykallar shayton vasvasalari ekanligi, ulardan uzoq bo`lish orqali hidoyatga erishish mumkinligi aytiladi. Yaqqol man etish hadislar va Qur`on tafsirida aniq bayon etiladi. Unga ko`ra, kim tirik mavjudotning suratini chizsa, oxiratda unga jon ato etish majburiyati qo`yiladi. Jon ato eta olmagach, abadiy azobga duchor bo`ladi⁵².

⁵⁰ Бартольд В.В. Сочинения VI. Работы по истории ислама и Арабского Халифата. -М.: Издательство «Наука», 1966, стр. 162.

⁵¹ ЎзМЭ 5 том. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2003, 377 бет.

⁵² Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство «Учпедгиз», 1962, стр. 153.

Bu haqda sahih hadislarda bunday deyiladi: Abdulloh ibn Umar rivoyat qiladilar: “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: “Bu suratlarni chizuvchilar qiyomat kuni azob chekadilar. Ularga: “O`zingiz yaratgan narsalarga jon ato etingiz!” - deyiladi”, - dedilar⁵³”.

Islom dini paydo bo`lgan davrida avj olgan butparastlik, suratparastlikni oldini olish maqsadida Muhammad (s.a.v.) suratkashlikni qattiq taqiqlab qo`ygan edi. Shu asosda islomning yirik mutafakkir huquqshunoslari ham tasviriy san`atning bu turini taqiqlangan ishlar qatoriga qo`shganlar. Bundan ular amaliy san`at turlari, naqsh, bezak, insondan boshqa hayvon va o`simliklar suratini istisno qilishgan. Islomda inson suratini chizish yoki uning haykalini yasashning taqiqlanishiga asosiy sabab – payg`ambar va aziz-avliyolarning rasmlarini chizib yoki haykallarini yasab, ularga sig`inib ketish xavfining mavjudligi bo`lgan.

XX-XXI asrlarga kelib, Islom dunyosi ulamolarining bu san`atga munosabatlariga yana bir karra aniqlik kiritildi: ilohiylashtirish va odamlarning sig`inishi maqsadida inson rasmini chizish mumkin emasligi e`tirof etildi. Ammo, fotosuratlar, shuningdek, yosh bolalar uchun yasalgan odam qo`g`irchoqlar taqiq doirasiga kirmaydi. Ulamolarning bergan fatvolariga ko`ra, musulmonlarga fahsh va uyat narsalarni ifoda etuvchi rasmlar, but, sanam va ikona tasviridan boshqa tasviriy san`at turlari taqiqlanmaydi⁵⁴.

Shu o`rinda yana bir muhim masalaga to`xtalmoq zarur. Islomda Muhammad (s.a.v.)ning suratini chizish taqiqlanishiga qaramay, turli davrlarda turli musavvirlar bu ishga qo`l urishgan. Ammo bular diniy maqsadlarda chizilmagan ya`ni hech qaysi musulmon Muhammad (s.a.v.)ning suratini chizib unga ibodat qilmagan. Ular payg`ambarning tarixiy shaxs sifatida qog`ozga tushirilgan suratleri, xolos. To`g`ri, suratlarda Muhammad (s.a.v.) boshqalardan ajratib ko`rsatilgan. Masalan, boshining tepasiga bulut chizib qo`yilgan yoki shunga o`xshash biron bir belgi. Ammo umumiy peyzajda u atrofdagi

⁵³ Абу Абдуллох Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-Жомеъ ас-сахих. 4 жилд. -Т.: Қомуслар бош тахририяти, 1997, 72 бет.

⁵⁴ Ислom Энциклопедия. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004, 117 бет.

odamlardan biror bir afzallikga ega qilib ko`rsatilmagan. Musavvirlar payg`ambarning yuzini chizishdan xavfsirab uning yuzini oq parda bilan yopib tasvirlashgan. Ya`ni bu ham payg`ambarga ishora qilish uchun ishlatilgan belgilardan biri bo`lgan, xolos. Hech qaysi musulmon bu suratlariga qarab ibodat qilmaydi. Bu suratlar din tarixini, payg`ambarga oid hikoyalarni o`rganishga qo`shimcha dastak vazifasini bajargan⁵⁵.

IX asr hadislarida tirik mavjudotlar suratini tasvirlash uzil-kesil taqiqlanguniga qadar rassomlar odam va hayvonlarni tasvirlab kelishgan, ana shu taqiqlov ko`pincha Eronda va uning ta`siri ostidagi arealda (Afg`oniston, Markaziy Osiyo va qisman Iroqda) buzilgan yoki chetlab o`tilgan edi. Islomga qadar bo`lgan badiiy an`analar shu qadar kuchli bo`lganki, ularni biryo`la bostirib tashlashga erishilmadi. Shunga qaramasdan, XI-XIII asrlarda tirik mavjudot suvratini tasvirlash islom olamida hamma joyda taqiqlandi. Abu Homid Muhammad al-G`azzoliy va ko`pchilik din olimlari bu taqiqlovni buzishni eng og`ir gunoh deb e`lon qildilar. Musulmonlarning asosiy ommasi ham “g`ayridinlar”dan o`z tafovutini yana bir karra ta`kidlashni xohlagan holda ana shu ko`rsatmaga amal qildi. Butun tirik mavjudotlar suvratini qayta yaratishdan voz kechishga majbur bo`lgan arab va umuman musulmon musavvirlar asosan nafis dekorga, boy va rang-barang naqshlarga bor e`tiborni qaratdilar, ana shularni ijro etishda badiiy tafakkurning ajoyib yutuqlariga erishdilar⁵⁶.

Miniatyura. Musulmon Sharqi xalqlarining xususan, arablar tasviriy san`ati haqida miniatyura yordamida to`liq tasavvurga ega bo`lamiz. Miniatyura (fransuzcha miniature; lotincha minium – qizil bo`yoq) – badiiy usullar o`ta nafis bo`lgan kichik hajmli (mo`jaz) tasviriy san`at asaridir. Miniatyura xattotlik, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo`lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ* elementlaridan birini tashkil qilar edi. Miniatyuraning asosiy ahamiyati matn mazmunini tushuntirish va umuman olganda dunyoviy

⁵⁵ Гарднер Р. “Ислом. Иймон салтанати”, хужжатли филм. “Gardner films” маҳсулоти.

⁵⁶ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005, стр. 84.

* Dekorativlilik – kitob bezakchiligida yoki qo`lyozmalarni bezashda (serxasham) har xil bezaklar va ranglar bilan bezatilganligiga aytiladi.

xarakterga ega boʻlgan asarlarni bezashdan iborat edi. Asosan proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronikalar aks etgan asarlarga miniatyura ishlangan.

Arablar ayniqsa, forslar qoʻlyozma va kitoblarni miniatyuraning nafis namunalari bilan bezatganlar. Miniatyuraning eng goʻzal namunalari Eronda yaratildi, ammo arablar ham bu sanʼatda forslardan qolishmasdilar. Arablar miniatyurasi taxminan IX asrlarda Basra va Kufa shaharlarida dunyoga keldi, ammo afsuski, bu davrga oid nafis asarlar bizgacha yetib kelmagan, ular haqida tarixiy manbalardan maʼlumotlar olishimiz mumkin, xolos⁵⁷.

Hozirgi vaqtga kelib, arab miniatyuralarini oʻrganuvchi mutaxassislar, qoʻlyozmalarni bezashni uchta davri va regional badiiy markazi mavjud ekanini eʼtirof etadilar. Bular Misr (fotimiylar sulolasi davri, IX-X-XI asrlar), Suriya (XII asrning birinchi yarmi) va Iroq (yoki Bagʻdod, XIII asr) miniatyura maktablari. Ularning markazlari Mosul, Bagʻdod va Vosit shaharlarida boʻlgan. Fotimiylar sulolasi davrida ishlangan arab miniatyuralarining bizga maʼlum boʻlganlari XI asrga taalluqlidir. Oxorlangan qogʻozga ishlangan odamlar qiyofasi xatti xarakatlari sodda va yaxlit holda tasvirlangan. Suriya qoʻlyozmalari boʻlmish Dioskoritning “Farmokologiya”si, “Kalila va Dimna” asarlariga ishlangan bezaklarda garchi Vizantiya va Sosoniylar sanʼatining kuchli taʼsiri boʻlishiga qaramasdan arab miniatyurachiligida yangi bir bosqichni boshlab beradi. Arab kitob bezakchiligining ravnaq topishi davrini Iroq maktabi miniatyurachiligi boshlab berdi. Iroq maktabining eng ajoyib asarlaridan biri Al-Xaririyning Abu Zayd as-Sarujdi (oʻrta asrdagi Nasriddin Afandining prototipi)ning boshidan kechirganlarini tasvirlab beruvchi “maqom” asariga ishlangan illyustratsiyalardir⁵⁸.

Miniatyurachi musavvir odatda yoqut bilan bezatilgan qogʻozga suyultirilgan boʻyoq yordamida rasm solardi. Faqatgina sinchkovlik bilan tayyorlangan boʻyoqlargina musavvirga koʻz ilgʻamas nafis chizgilarni tasvirlashga imkon berardi. Miniatyuralarda suv kumush yordamida tasvirlangan

⁵⁷ Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство «Учпедгиз», 1962, стр. 154.

⁵⁸ www.xattot.uz

bo`lib, vaqt o`tishi bilan kumush xiralashib qolgani sababli qadimiy miniatyura asarlaridagi anhor va ko`llar tasviri o`z aslini yo`qotgan. Qimmatbaho qo`lyozmalar uchun miniatyurachi musavvirlar alohida badiiy asarlar yaratganlar. Bunday asarlarda miniatyurachidan tashqari boshqa rassomlar, xususan, naqqoshlar nafis gul va naqshlar solganlar.

Xattotlik san`ati. Sharq xalqlarining uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan madaniy merosida xattotlik va kitobat san`ati alohida o`rin egallaydi. Xalifalik tarkibidagi mamlakatlarda islom dinining keng yoyilishi ushbu hududlarga “Qur`on” bilan bir qatorda arab yozuvini ham olib keldi. Arab yozuvi VIII asrdan O`rta Sharq xalqlari uchun ilm-fan va davlat ishlarida rasmiy yagona yozuv sifatida o`rin oladi. Arab yozuvi uzoq asrlar davomida ikki xil vazifani bajarib kelgan:

1) barcha xalqlar yozuvi singari islom dini yaratgan ma`naviy madaniyat taraqqiyoti uchun xizmat qilgan hamda ilm-ma`rifat va madaniy yodgorliklarni bizning davrimizgacha saqlab kelgan asosiy vositalardan biri bo`lgan;

2) arab yozuvining grafik asoslari bir xil bo`lishiga qaramasdan, harflar shakl jihatdan turli uslublarda taraqqiy etgan. Bu holat arab harflariga husn kiritish va ularni tobora go`zallashtirishga bo`lgan intilishlari natijasida kelib chiqqan⁵⁹.

Arab yozuvi dunyodagi ko`p xalqlar yozuvidan shu bilan farq qiladiki, bu yozuvning go`zalligiga alohida e`tibor berilishi natijasida arab xati ma`no tashish vositasidan tashqari, yana kishilarga yuksak estetik zavq beruvchi san`at asariga aylangan. Bu san`at qadim zamonlardan beri xattotlik (kalligrafiya) nomi bilan keng shuhrat qozongan. O`rta asrlarda hali kitob bosish texnikasi ixtiro etilmagan vaqtda har qanday asar qo`lda ko`chirilib, kitobat qilingan. Kitob ko`chirish katta hunar va san`at hisoblangan. Bu hunar egalari tarixda xattot yoki kotib nomi bilan mashhurdirlar.

Islomda tirik mavjudotlar suratini tasvirlash uzil-kesil ta`qiqlanishi natijasida tasviriy san`at ijodiga moyillik his etgan iste`dod egalari o`z

⁵⁹ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. -Т.: “Фан” нашриёти, 1971, 3 бет.

qobiliyatlarini xattotlik, naqqoshlik va me`morchilik sohalarida namoyon etish imkoniyatiga ega bo`ladilar. Natijada Sharq mamlakatlarida, xususan, Markaziy Osiyoda xristian va buddizm dunyosida ko`rilmagan xattotlik, xat elementlari bilan bog`langan naqqoshlik, me`morchilik va xat san`ati asosiga qurilgan badiiy qo`lyozmalar san`ati alohida taraqqiy etgan.

28 harfdan iborat bo`lgan arab alifbosining dastlabki shakli “xatti ma`qaliy” (ma`qaliy xati) bo`lib, tik chiziqlar bilan ifodalangan. Ammo uzoq iste`molda bo`lib, shuhrat qozona olmagan. VII asrdan boshlab uning o`rnini arab yozuvining eng qadimiysi va eng mashhuri hisoblangan “xatti kufiy” (kufiy xati) egallaydi. M. Radjiddinov o`zining “Ajdodlardan qolgan buyuk meros” maqolasida kufiy xatining yuzaga kelish tarixini quyidagicha izohlaydi: “Hazrati Usmon rahnamoligida Qur`oni Karim mukammal yaxlit kitob qilindi va u zotning ko`rsatmasi bilan bu nodir manba – Usmon Mus`hafi olti nusxada yozilib, Shom (Suriya), Kufa, Makka, Misr, Basra, Madina shaharlariga yuborildi. Keyinchalik, Kufa shahriga yuborilgan Qur`ondan Iroq, Xuroson, Markaziy Osiyo xattotlari nusxa ko`chirganlari bois “Kufiy Qur`on” va uning yozuvi “kufiy xati” deb atala boshladi. Shu tariqa, xat olamiga kufiy atamasi kirib keldi⁶⁰”.

Ma`qaliy xati va kufiy xati asosida xat san`ati haqidagi barcha risolalarda xabar qilinishicha, arab yozuvining san`atkorona yaratilgan olti xil asosiy uslubi maydonga kelgan: 1) Suls xati – to`rt bahrasi tekis, iki bahrasi yumaloqdir; 2) Nasx xati – mashhur san`atkor xattot Ibn Muqla ushbu xat ixtirochisi hisoblanadi; 3) Muhaqqaq xati – bir bo`lak qismi tekis bo`lib, qolgan bo`laklari dumaloq shakldadir; 4) Rayhoniyy xati – muhaqqaqdan kelib chiqqan. Muhaqqaq va rayhoniyy xatlarining ixtirochisi Ibn Bavvob bo`lgan; 5) Tavqi xati – yarim tekis, yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan; 6) Riyo xati – ko`pchilik harflari bir-biriga qurama qilib yoziladi. Tavqi va riyo xatining ixtirochisi ma`lum emas. Mazkur xatlarning har biri maxsus o`rinlarda qo`llanib kelingan: muhaqqaq –

⁶⁰ Раджиддинов М. “Аждодлардан қолган буюк мерос”. “Имом ал-Бухорий сабоқлари”, 2006, 4 сон, 283 бет.

qasida va she`rlar yozishda, suls – ilmiy asarlar va xat yo`l-yo`riqlarida, rayhoniya va nasx – qissa va xabarlarda, tavqi – buyruq va farmonlarda, riqo – maktublarda ishlatilgan⁶¹.

Arab xattotlik san`atining asoschilari Ar-Rayhoniya (vafoti 834-yil) va Abu Ali ibn Muqla (886-940) hisoblanadi. Muqla abbosiylar davrida vazir bo`lgan. Xalif ar-Roziy uning qandaydir xatosi uchun o`ng qo`lini kesishni buyuradi. Bir qo`lidan ayrilgan Muqla chap qo`li bilan ajoyib husnixat namunalarini yarata oldi. Abbosiylar xalifaligi poytaxti Bag`dodda minglab kitob do`konlari bor edi. Bu do`konlarda xattotlar ko`plab betakror qo`lyozma va kitoblarni nafis husnixat bilan yozib qoldirdilar⁶².

Yurtimizda ilm-fanning oltin asri hisoblangan IX-XII asrlar oralig`ida Samarqand, Toshkent, Buxoro va Qo`qon xattotlik maktablari juda mashhur bo`lgan. Bu maktablar bir necha asrlar davomida muttasil rivoj topib, mukammallashib borgan. Keyinchalik, ulardan o`zlarining benazir ilmiy salohiyatlari va san`at darajasidagi asarlari bilan tarixda munosib o`rin qoldirgan Domla Bobobek, Said Umar, Mulla Subhonberdi, Mirzo Hoshim Xo`jandiy, Muhammad Ersoriy kabi yetuk xattotlar yetishib chiqqanlar. Ular ham o`z xattotlik maktablarini ochib, mazkur san`atning nafaqat yurtimizda, balki butun islom olamida keng tarqalishiga munosib hissa qo`shganlar⁶³.

Musiqqa san`ati. Islom ushbu san`at turiga qanday qaraydi? Musiqqa ham islomda ta`qiqlangan san`at turiga kiradimi? Islom olimlarining bu boradagi xulosalari qanday? Ushbu savollar yuzasidan tadqiqotchi Nafas Shodmonov “Musiqqa – uyg`onish demak” maqolasida quyidagilarni bayon etadi: “Musiqqa munosabat masalasida musulmonlar orasida ayrim ixtiloflar mavjud. Bu borada islom olimlarining xulosalari taxminan quyidagicha: a) har qanday musiqaning ijrosi va istimosi (tinglanishi) mutlaqan harom hukmida; b) qurollar bilan kuylash va o`ynash (raqsga tushish) harom, qolganlari muboh hukmida; v) mutlaqo

⁶¹ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. -Т.: “Фан” нашриёти, 1971, 23 бет.

⁶² Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство «Учпедгиз», 1962, стр. 155.

⁶³ Раджиддинов М. “Аждодлардан қолган буюқ мерос”. “Имом ал-Бухорий сабоқлари”, 2006, 4 сон, 283 бет.

muboh; g) mubohgina emas, balki, mustahab hukmida. Ushbu nuqtai nazarlar sohiblarining har biri fikrining isbotu dalillarini aytadi va muxoliflarini keltirgan gaplarini rad qiladi. Shuning uchun ham bu masalaga jiddiy yondashish, dalillarni tahlil etishda ularning eng ishonchlilarini asos qilib olish lozim... Musiqaning xarom qilingani to`g`risida Qur`oni Karim yoki hadisda dalil yo`q. Mashhur mazhablarning peshvolari ham bunga qat`iy hukm aytmaganlar. Masruh, Ibrohim, Nax`iy, Solim bin Abdulloh, Hasan Basriy, Umar bin Shu`ayb, Abdulloh bin Umar, Sa`d bin Abu Vaqqos, Abdulloh bin Mas`ud kabi olimlar she`r va musiqani makruh deb atagan bo`lsalar, Imom Buxoriy, At-Termiziy va Abu Muslimning sahih hadislarida, Omir bin Sa`d, Abu Hanifa, Molik, Shofi`iy, Ahmad, Sa`iyd bin al-Musiyb, Abu Yusuf, Abu Ubayd, Rizouddin bin Faxriddin kabi bir talay allomalar asarlarida musiqa sasini tinglash bezararligi aytilgan⁶⁴”.

Imom Buxoriyning “Al-jome` as-sahih” asarida Muhammad (s.a.v.) to`y va iyd (bayram)larda musiqani man etmay, balki uni targ`ib etgani to`g`risida shunday hadis bor: “Hishom ibn Urva rivoyat qiladilar: “Oysha raziyallohu anho bir kelinni bir ansoriy kuyovning huzuriga kuzatib qo`ydilar. Janob Rasululloh: “Ey Oysha, musiqa chalib o`yin-kulgi birlan kuzatib qo`ydingizlarmi? Ansorlar musiqa chalib o`yin-kulgi qilishni xush ko`radilar”, – dedilar⁶⁵”. Ushbu masala yuzasidan shunday xulosaga kelish mumkinki, musiqa gunoh amallar, fahsh ishlarga ibtido, vosita qilinmasa islom dinida taqiqlanmaydi.

Arab musiqa madaniyatining tarixiy ildizlari badaviy qabilalarning madaniy an`analari bilan bog`liq. Islomdan avval arablarda musiqa she`riyatdan ajralmas bir narsa ediki, qabila shoiri o`z she`rlarini qo`shiq shaklida, musiqiy ohanglarda ijro qilgan. Shuning uchun ham arablar qo`shiqchilarni “shoir” deb atashgan.

VII-VIII asrlarda arab musiqasi xalifalik fath etgan mamlakatlar xalqlarining yuksak san`atini ijodiy o`zlashtirish asosida rivojlangan. Soib Xosir (? - 683), Noshit Forsi (8 a), Tuvays (? - 710), Ibn Misjax (? - 715), Ibn Surayj (630-726), Jamila (? - 720) va boshqalar aslida Markaziy Osiyo va eronlik bo`lib,

⁶⁴ Шодмонов Н. “Муסיқа – уйғониш демак”. “Тафаккур” журнали, 1997, 3 сон, 36-39 бетлар.

⁶⁵ Абу Абдуллох Мухаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-Жомеъ ас-сахиҳ. 3 жилд. -Т.: Қомуслар бош тахририяти, 1997, 414 бет.

arab musiqasiga o`z xalqlari musiqa san`ati unsurlarini olib kirishgan. Arablar tomonidan yangi janrlar va cholg`u asboblari ham o`zlashtirildi. Keyinchalik mumtoz namunaga aylanib borgan arab musiqasi qonunlari asta-sekin va bosqichma-bosqich ishlab chiqildi⁶⁶.

IX-XI asrlar arab-musulmon madaniyati, xususan, musiqa yuksak darajaga erishdi. Markaziy Osiyo va Eron xalqlari amaliy musiqani va qadimgi yunon musiqa nazariyasini tanqidiy o`rganish asosida buyuk mutafakkirlar Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Zayla arab tilida musiqa ilmining yuksak namunalarini yaratishgan. Arab musiqa fani va estetikasining ravnaq topishida IX asr o`rtalarida Bag`dodda ta`sis etilgan “Bayt al-hikma” olimlarining tarjimonlik faoliyati ham katta rol o`ynadi⁶⁷.

Amaliy san`at. Arab tarixchilarining bizning davrimizgacha yetib kelgan asarlarida ajoyib to`quvchilik namunalari, gilamlar, metaldan yasalgan san`at buyumlari haqida ma`lumot berganlar. Ming afsuski, VII-X asrlarga oid xalifalik madaniyatini yolg`iz shu manbalar yordamida o`rganish bilan cheklanamiz. Chunki, amaliy san`at buyumlari bizgacha saqlanib qolmagan. Ma`lumki, to`quvchilik san`ati islomgacha bo`lgan davr (johiliya)da ham rivojlangan edi. Bayram kunlari arablar Ka`ba devorlarini bezatish uchun qimmatbaho yopinchiqlar to`qib kelardilar. Bu an`ana vaqt o`tishi bilan rivojlanib bordi va XII asrga kelib Ka`ba ham ichkari, ham tashqaridan behisob yopinchiqlar bilan burkandi. VIII asrlarda Damashq va Xalab (Aleppo) shaharlarida ipak matolar savdosi juda chaqqon edi. Makriziy o`z asarlarida nafis ipak mato haqida so`z yuritadi. Bu matoda qizil qush tasviri tushirilgan bo`lib, uning panjalari va boshi tilla suvi bilan bezatilgan deb tasvirleydi. Osiyo va Afrika madaniyatlarining birlashuvi (kesishuvi) matolarga rasm tushirishda ham o`z aksini topdi. Arablar koptlardan geometrik unsurlarni, naqsh va hayvonlar rasmlarini tushirishni esa sostoniyalardan o`zlashtirdilar. Matolarga rasm solish san`ati fotimiylar davrida va keyingi asrlarda o`z cho`qqisiga erishdi.

⁶⁶ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005, стр. 83.

⁶⁷ ЎЗМЭ 11 том. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005, 414 бет.

Arab-musulmon san`atida dekor, naqsh, turmush jihozlarini bezash mahorati ulkan rol o`ynagan. Arablar tomonidan naqshning geometrik (handasaviy) va nabotot (islamiy) elementlari ajoyib va g`aroyib bir tarzda qo`shilib uyg`unlashib ketishiga asoslangan “arabeska” yaratilgan edi. Mosul va Iroqdan bo`lmish hunarmandlar amaliy mahsulotlari va buyumlari, Suriyaning gazlamalari va emallangan naqshlar bilan sirkorlangan shishalari, Misrda ishlab chiqarilgan toq billuri, fil suyagi va qimmatbaho navdagi daraxtdan yasalgan kandakorlab bezatilgan buyumlari va mahsulotlari Islom olami sarhadlaridan tashqarida ham mashhur bo`lgan⁶⁸.

Sharq gilamlarining jozibasi haqida kim ham eshitmagan deysiz? Gilamlar Sharqning iftixori, uning bebaho boyligidir. Arablar gilamlar tayyorlashni tarixiy ma`lumotlarga ko`ra, XII asrdan bir qancha asrlar muqaddam boshlashgan. Biroq, bizgacha yetib kelgan gilam san`ati namunasi aynan XII asrga taaluqlidir. Metal buyumlar yaratish san`ati bundan bundan ham qadimiy bo`lib, uning rivojiga sosoniylar madaniyati kuchli ta`sir ko`rsatgan. Sankt-Peterburgdagi Ermetaj muzeyida saqlanayotgan qadimiy likopchalardan birida gilam ustida chordona qilib o`tirgan qirol tasvirlangan.

VII-VIII asrlarda idish buyumlar kumushdan tayyorlanardi. Keyinchalik kumush o`rnini bronza egallaydi. Shamdonlar, tamakidonlar, ko`za idishlar haykaltaroshlik unsurlari bilan bronzadan yasaldi. Yana shuningdek, arab hunarmandlarining yog`ochdan yaratgan ijod namunalari ham e`tiborimizni tortmay qolmaydi. Masjidlardagi minglab eshiklar, mehroblar, ustunlar hunarmandlarning yog`ochga o`yib ishlangan nafis naqshlari bilan bezatildi⁶⁹.

Xalifalarning ko`rkam kiyimlarini (liboslarini) yaratgan kashtado`zlar, etikdo`zlar, chevarlarning mehnat namunalari taqsinga sazovordir. Bu yodgorliklar, bu san`at namunalari bugungi kundayam inson ko`zini quvontiradi. Ular nafaqat arablarning, balki dunyo madaniyatining bebaho merosi hisoblanadi.

⁶⁸ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.:Восточный университет, 2005, стр. 84.

⁶⁹ Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство «Учпедгиз», 1962, стр. 156.

1.2 Ummaviylar davrida arab-musulmon madaniyati

Ummaviylar xalifaligi davri adabiyoti. VII asr yarmidagi harbiy yurishlar adabiyotda o`zining keng ifodasini topdi. Shoirlar arab jangchilarining jasurligini olqishlashdi. Arab sarkardalarining donoligi va harbiy iste`dodiga tahsinlar o`qishdi. Islom dushmanlarini ayovsiz qoralashdi va din uchun hayotini qurbon qilgan shahidlarni ko`klarga ko`tarishdi. Ayni paytda adabiyotda xalifalik taxti uchun ummaviylar va ularning raqiblari o`rtasidagi siyosiy kurash ham o`z aksini topdi. She`riyat go`yoki siyosiy kurashning quroliga aylangan edi. Ummaviylarni yoqlab chiqqan shoirlar sulola vakillari tomonidan yuksak taqdirlandi. Bu shoirlar ichida al-Axtal, al-Farazdaq va al-Jarirni alohida ta`kidlab o`tish kerak.

Al-Axtal (640-710) o`z davrining yetakchi shoirlaridan bo`lib Muoviy va Yazid davrida saroy shoiri edi. Xalifa Abd al-Malik uni “ummaviylar shoiri” degan unvon bilan taqdirlagan. Al-Axtal she`riyati ummaviylar sulolasining xalifalik taxtidagi hokimiyatini tasdiqlovchi badiiy qurol edi. Uning she`rlarida ummaviylar qat`iy xarakterli, sahovatpesha, musulmonlar hukmdori bo`lishga loyiq barcha ijobiy fazilatlar sohibi sifatida tasvirlandi. Al-Axtal she`riyatidagi faxr ham siyosiy xarakterga ega. U o`z qabilasining Ummaviylar sulolasiga sodiq ekanligini, xalifalik uchun qilgan xizmatlarni, qabilasidan chiqqan qahramonlar, ulug` insonlarni, bir vaqtlar qabilasi erishgan g`alabalarni faxr bilan kuylaydi. Al-Axtal shuningdek, ziyofatlar she`riyati muallifi hamdir. Arab adabiyoti uni may (sharob)ning betakror kuychisi deb ataydi. Shuningdek, Al-Axtal Iroqda yashaydigan al-Jarir va al-Farazdaq degan shoirlar ustidan kulib hajviy she`rlar bitgan.

Al-Farazdaq (641-732) asosan satirik she`rlar muallifi deb e`tirof etiladi. O`zining uzoq umr yo`li mobaynida u ham Ibn Zubayrning tarafdori, ham ummaviylarni qo`llab-quvvatlovchi shoir sifatida ijod qildi. U asosan, madhiya, riso, faxr, hajv, vashf, g`azal janrlarida qalam tebratdi. Shoir 50 yil mobaynida zamondoshi al-Jarirni o`ziga raqib hisoblab, u bilan siyosiy-she`riy jang qilgan shoirlardandir. Shunday ekan al-Farazdaqning hayoti siyosiy va adabiy kurashda

o`tgan. Shuning uchun uning ijodidagi she`rlari siyosiy va adabiy kurash xarakterga ega. Al-Farazdaq asarlari tarixiy ahamiyatga ega, chunki ular o`sha davr shart-sharoiti, Umaviylar hokimiyati vaqtidagi arablar hayoti va an`analari, shoirning o`zi va muxoliflari hayoti haqida xabar beradi.

Al-Jarir (653-753) ham saroy shoirlaridan biri bo`lib, she`rlarida ummaviylarni Tangri tomonidan tanlab olingan hukmdorlar sifatida ta`riflab, ular sha`niga bag`ishlab asarlar yaratdi. Al-Jarir al-Farazdaqni o`ziga dushman bilib, satirik she`rlarida uni ochiqdan ochiq haqoratlardi. Xalifalarga ikki shoirning qarama qarshiligi huzur baxshlardi, bu esa ular o`rtasidagi kurashni yana avj oldirardi. O`z qabilasiga bo`lgan sadoqat va muhabbat, uning dushmanlariga bo`lgan nafrat shoir she`rlarining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Siyosiy kurashlarga qurol bo`lib xizmat qilgan she`riyatdan tashqari, ummaviylar davrida yana lirik she`riyat ham rivojlandi. Lirik she`riyat muhabbat tarannumi, ruhiy kechinmalar va zavq-u shavqqa juda boy edi. She`riyat islomgacha bo`lgan ba`zi an`analardan yiroqlashdi.

Arablarining o`sha davrdagi betakror lirik shoiri Umar ibn Abu Robia (644-711) edi. Uning she`riyatida asosiy o`rin ayollarga ajratilgan. Shoirlarning asosan xalifalarni ulug`lab she`r yozishiga o`rgangan kishilar uning lirik she`rlar bitishiga hayron bo`lishardi. Shu haqda u: “Men erkaklarni emas, ayollarni madh etaman” degan ekan. O`zining she`rlarida Umar ayollar jozibasini, dong`i chiqqan ayollarning yuksak fazilatlarini va albatta, o`tli muhabbatni tarannum etdi.

Ummaviylar davrida ayniqsa, notiqlik san`ati asarlari juda mashhur bo`lib ketdi. Siyosiy kurashlarning avj olishi notiq'larga bo`lgan talabni yanada oshirdi, ular endi katta shaharlar aholisini o`z nutqlari bilan o`zlariga ergashtira olishlari kerak edi. Ummaviylar davrida Iroq diniy va siyosiy qarama-qarshiliklar markazi bo`lgani uchun notiq'lar ahamiyati ayniqsa bu yerda juda yuqori edi. Notiq'lar o`z nuqtai nazarlarini Qur`on oyatlari bilan mustahkamlaganlar.

Mashhur notiq'lardan biri al-Hajjoj bo`lib, uning nutq va va`zlari qattiq ohangda, hushyorlikka da`vat bilan to`la edi. Ayni paytda uning nutqlari

obrazlilik, mantiqiylik, barqaror yangrash bilan tinglovchi xotirida katta ta'surot qoldirardi. Uning so'zamon nutqidan quyidagi parchani ko'rishimiz mumkin: "Ey, iroqliklar! Darhaqiqat, shayton qoningizda, asab tomirlaringizda makon qurib, miyangizga qadar yetib borgan. Shundan sizlarni ongizga ta'sir qilib, turli qarama-qarshi fikrlarga duchor qilgan".

Ummaviylar davrida kichik hajmdagi nasriy asarlar ham rivoj topdi. Ular uchga bo'linadi: hitobot, tavqiot (xalifa va amrlarning norozilik va avf etish mavzulari talqin qilingan qisqa xulosalar) va rasoil (qisqa, lo'nda nasriy asar; undan hikmatlar, falsafiy fikrlar, tarixiy dalillar, shariat ahkamlari haqidagi mulohazalar joy olgan).

Me'morchilik. Muhammad (s.a.v.) davrida bunyod etilgan Makkadagi birinchi masjid Xalifa Volid I davri (705-715-yillar)da butunlay qayta qurilib, masjid atrofi keng hovlili, peshayvonlar bilan o'raladi. Masjidga tilla, kumush va marmar bilan hashamdor bezaklar beriladi.

Arablarining o'zga yurtlarga bosqinchilik yurishlari boshlangach, o'sha yurtlarning mahalliy ibodatxonalarini yangi binolar qurilgunga qadar vaqtinchalik ibodat uchun foydalanilib turildi. Shu sabab Ummaviylar davriga oid masjidlarning aksariyati xristian cherkovlarini buzish yoki qayta qurish orqali bunyod etilgan. Ularga misol qilib Quddusdagi 686-691-yillarda qurilgan Qubbat as-Sahra masjidini, shuningdek, xalifa Volid I buyrug'i bilan 705-yilda Damashqda qurilgan Ummaviylar masjidini misol qilishimiz mumkin. Quddusdagi masjid milodiy 70-yilda rimliklar tomonidan buzib tashlangan podsho Sulaymon ibodatxonasi o'rniga qurilgan bo'lsa, Damashqdagi masjid Ioann Kristetil cherkovini qayta qurish orqali barpo etilgan⁷⁰.

Damashqdagi Ummaviylar masjidi qurilishiga xalifa Volid I Xalifalikdagi eng mashhur me'morlar, dekoratorlar hamda naqqosh rassomlarni jalb etdi. Masjid devorlari marmar bilan bezatilgan, plitalarga turli naqshlar tushirilgan. Masjidni bezashda 30 ga yaqin ranglardan foydalanilgan, ayniqsa, yashil, ko'k,

⁷⁰ Бартольд В.В. Сочинения VI. Работы по истории ислама и Арабского Халифата. -М.: Издательство «Наука», 1966, стр. 158.

oltin tusli ranglar ko`p ishlatilgan. Masjidning ichki qismi esa qator ustunlar bilan bir necha qismga bo`lingan.

Ushbu davr masjidlari haqida gap ketganda, ilk musulmon me`morchiligining murakkab arxitekturali inshooti bo`lgan Quddusdagi Qubbat as-Sahra (“Qoya gumbazi” yohud “Qoya ostidagi gumbaz”) masjidiga ham alohida to`xtalib o`tish kerak. U xalifa Abdulmalik davrida 686-691-yillarda bunyod etilgan. Uning o`rnida yuqorida ta`kidlab o`tkanimizdek, rimliklar tomonidan vayron qilingan Sulaymon ibodatxonasi joylashgan edi. Qubbat as-Sahra islomning eng muqaddas ziyoratgohlaridan biri bo`lib, o`rta asrlarda muqaddasligi bo`yicha uchinchi (Makka va Madinadagi masjidlardan keyin) bo`lgan. Masjid loyihasi o`zida to`g`ri sakkizburchakli shaklni aks ettiradi. Ikki ayvonli markaziy bino gumbaz bilan qoplangan. Uni to`rt ta yirik ustun ko`tarib turadi. Ustunlar orasida uchadan korinf uslubidagi qadimiy ustunchalar bo`lib, ayvonlarni ham shunday kichik o`lchamdagi to`sinlar ko`tarib turadi. Arablar bu masjidni “Qoya ostidagi gumbaz” deb atashlarining sababi shundaki, masjid markazida yotgan xarsang tosh go`yo Ibrohim o`g`li Ismoilni qurbonlik uchun olib borgan tog`dagi qoyaning bir bo`lagi hisoblandi. Masjid bu go`zal qiyofasini hozirga qadar saqlab qolgan. Geometrik naqshlar ko`rinishidagi juda yorqin, jozibali mozaikalar, rang-barang va tilla suvi yurgizilgan yozuvlar masjid devorlari, arkalar va gumbazni bezab turibdi⁷¹.

Ummaviylar davrida shaharlarda qurilgan saroylar, qasrlarning deyarli barchasi bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Faqatgina hozirgi paytda suvsiz sahroga aylangan joylardagi “sahro qasrlari” so`nggi rim va vizantiya qishloq, qo`rg`onlariga ancha o`xshab ketadi. Ularga misol qilib, 1936-yilda arxeologlar tomonidan ochilgan Qasr al-Xayr al-G`arbi (VIII asr) qasrini ko`rsatishimiz mumkin. Bu “sahro qasrlari” asosan amaldorlarga va katta yer egalari tegishli bo`lib, ular qismangina saqlanib qolgan xolos. Ummaviylar davriga mansub “sahro qasrlari”ni qurishda xalifalikning turli joylaridan keltirilgan mohir ustalar qatnashgan bo`lib, ularning har biri o`z mamlakatining badiiy uslublaridan,

⁷¹ Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство Учпедгиз, 1962, стр. 152.

san`atidan, bezaklaridan unumli foydalanganlar. Ummaviylar davriga mansub barcha san`at turlarida bo`lgani kabi qasrlardagi bezaklarda ham antik davrga va musulmon davriga xos bo`lgan belgilar o`zaro aralashib ketgan. Bu narsa ayniqsa, 1935-1943-yillarda arxeologlar tomonidan ochib o`rganilgan Xirbet al-Mafjar qasrida yaqqol seziladi. Hozirgi Iordaniya hududida joylashgan bu qasr Ummaviylar davridagi boshqa qasrlardan o`z tuzilishi bilan biroz farq qiladi. Unda saroydan tashqari masjid va hovlisida hovuz ham bo`lgan. Qasr pollari rangli plitalar bilan bezatilgan.

Ummaviylar davridagi naqqoshlik va tasviriy san`at haqida hozirgi Iordaniya hududida joylashgan Qusayr Amro va Mshatta qasrlaridagi topilmalar ham katta ma`lumot beradi. Qusayr Amro va Mshatta qasrlari vizantiyalik va suriyalik me`morlar tomonidan antik-vizantiya an`analariga monand ravishda barpo qilingan⁷².

Qusayr Amroning faqatgina bitta zali xarobalari va hammom devori saqlanib qolgan bo`lib, ularga turli xil tasvirlar tushirilgan. Ulkan devoriy rasmlar arablarning kundalik turmush tarzidan lavhalarni o`zida aks ettiradi. Har xil figuralar yordamida g`alaba, tarix, falsafa va she`riyatning ramziy timsollari mohirona ifodalangan. Ular ichida o`smir, o`rta yoshli kishi va qariya rasmi antik davr san`ati ruhida bo`lib, lavhalar inson hayoti bosqichlarini aks ettiradi. Qusayr Amroning markaziy zali devoriga shuningdek, musiqachilar, raqqosalar, cho`milayotgan ayol, turli hayvon va qushlarning yorqin tasviri tushirilgan. Afsuski, bu suratlarni yaratgan iste`dodli musavvirlarning nomi bizga ma`lum emas. Taxminlarga ko`ra, bu asarlar yunonistonlik va suriyalik rassomlar mo`yqalamiga mansubdir⁷³.

Ummaviylar davriga mansub inshootlar ichida Mshatta qasri alohida o`rin tutadi. Qasr VII-VIII asrlarda hozirgi Iordaniya hududida qurilgan. Ammo xalifa Volid I vafotidan so`ng qasr qurilishi chala qolgan. Keyinchalik butunlay vayron bo`lgan. Mshatta 1840-yilda nemis arxeologlari tomonidan ochilgan. Qasrning

⁷² Всемирная история. III том. –М.: Государственное издательство политической литературы, 1957, стр. 124.

⁷³ www.ru.wikipedia.org

tuzilishi islom davrigacha bo`lgan Suriya hukmronligining harbiy inshootlarini eslatadi. Mustahkamlangan to`rt burchakli hovli atrofida xonalar joylashgan. Asosiy kirish joyi to`g`risida joylashgan ayvonli zal rasmiy qabul joyi bo`lgan. Bu qasrni mashhur qilgan narsa asosiy kirish joyining ikki tomonidagi devorning pastki qismida toshga o`yib ishlangan naqshli plita bo`lib, u 5 metr balandlikda, zigzag shaklidir. Zigzaglar ulkan uchburchaklarni tashkil etgan, uchburchaklar ichiga esa, turli lavhalar tushirilgan, ular ichidan sherlar, ho`kizlar, qushlar va boshqa tasvirlarni aytib o`tish mumkin. Bu naqshli plitalarni turk sultoni 1903-yilda Germaniyaga sovg`a qilgan. U Berlindagi musulmon mamlakatlari san`ati muzeyida saqlanmoqda⁷⁴.

Ummaviylar davrida tasviriy san`at. Taqiqlarga qaramasdan Arab xalifaligining I asrida musavvirlar tirik mavjudotlar suratini yaratdilar. Ummaviy xalifalarning saroylari VII-VIII asrlarda hayvonlar va odamlarning haykaltaroshlik asosida yaratilgan tasviriga to`la bo`lgan.

Quddusdagi muhtasham masjidida xalifa Abdulmalik (yohud Abd al-Malik) davri (685-705)da jannat, do`zax va payg`ambarning yirik devoriy surati yaratildi. Arab tarixchisi Makriziy musulmon musavvirlarining tarjimai hollarini yozib qoldirgan. Ammo uning asari bizgacha yetib kelmagan bo`lib, faqatgina keyingi asrlarda uning ijodiga nisbat beriladi. Bular ichida eng qiziq ma`lumot ikki musavvir Kaziriy (Qaziriy) va Ibn Aziziy haqidagi hikoyalardir.

Kunlarning birida ularning ikkisi ham fotimiylardan bo`lgan vazir Vazuriy huzuriga taklif qilinadi. Ibn Aziziyga shunday figura chizish buyuriladiki, go`yo u devordan chiqib kelayotgandek bo`lishi kerak. Qaziriy esa, devorga kirib kelayotgan figurani chizishi kerak edi. Bu topshiriqni musavvirlar a`lo darajada bajarishdi. Saroyda yig`ilganlar qarshisida ikki raqqosaning tasviri paydo bo`ladi. Birinchi raqqosa oq libosda, qora fonda tasvirlandiki, xuddi devor ichiga kirib ketayotgan edi. Ikkinchi raqqosa esa qizilga burkangan va sariq fonda bo`rtib

⁷⁴ <http://www.dic.academic.ru>

chiqqandek mohirona tasvirlangan edi. Vazir bu ajoyib san`at asarlaridan juda hayratga tushadi va musavvirlarni yuksak taqdirlaydi.

Qohira saroylarining birida baland peshayvonga shoirlarning haykallardan iborat portretlari o`rnatilgan edi. Har bir portretning ustiga shoirlar ijodidan eng go`zal she`riy namunalar joylashtirilgan edi. Ming afsuski, Qusayr Amro devoriy suratidan bo`lak boshqa hech bir yirik tasviriy san`at va haykaltaroshlik namunalari bizgacha yetib kelmagan. Ummaviylar davriga mansub qasrlarda saqlanib qolgan haykallar so`nggi antik davr an`analari ruhida ishlangan⁷⁵.

Suriya va Mesopotamiyada VII-VIII asrlarda amaliy san`atning turli sohalari rivojlandi. Ular ichida kulolchilik, to`qimachilik, shisha buyumlar yasash va boshqalarni aytib o`tishimiz mumkin.

Ummaviylar davrida ilm-fan. Sharqshunos olimlar “arab-musulmon madaniyati”ni yoritish ekanlar, shubhasiz Xalifalikda taraqqiy etgan ilm-fan xususida to`xtalmay o`tmaganlar. Biroq ularning deyarli barchasida abbosiylar davrida gullab-yashnagan fan tarmoqlari va ularni taraqqiy etishiga benihoya ulkan hissa qo`shgan allomalarning ilmiy izlanishlari hamda fan sohasidagi yutuqlari yoritilgan. Buning sababini tarixchi olim Bahrom Abduhalimov quyidagicha izohlaydi: “Ummaviylar hukmronligi davrida diniy ilmlar va arab tiliga e`tibor berilgan bo`lsa, Abbosiylar davriga kelib tabiiy fanlarga bo`lgan qiziqish ortdi⁷⁶”. Lekin bu ummaviylar davrida ilmiy izlanishlar umuman bo`lmagan degan xulosaga kelishimizga asos bo`lolmaydi. “Sharq va G`arb” monografiyasi muallifi Fozila Sulaymonova o`zining “Islom va ilm” maqolasida ummaviylar davri ilm-faniga qisqacha to`xtalib, quyidagi ma`lumotlarni taqdim etadi: “Xalifalikda ilmiy izlanishlar erta, Ummaviylar davridayoq boshlandi, ko`plab suryoniy olimlar xalifalar saroyida xizmat qildilar. Bular orasida Sever Sebaxt (VII asr), Jirjis Usquf, Ya`qub Ruhaviy (640-702) va boshqalar bor edi. Ular yunon tilidagi qator asarlarni suryoniy tiliga o`giranlar⁷⁷”.

⁷⁵ Чистякова Т.А. Арабский халифат. -М.: Издательство Учпедгиз, 1962, стр. 154.

⁷⁶ Абдухалимов Б. Байт ал-Хикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010, 103 бет.

⁷⁷ Сулаймонова Ф. “Ислом ва илм”. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1997, 13 июнь.

1.3 Abbosiylar hukmronligi davrida arab-musulmon madaniyati

Abbosiylar davri madaniyati. Abbosiylarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan madaniy hayotda ham bir qancha o'zgarishlar ro'y berdi. Arab-islom madaniyati, ilm-fani rivojining eng yuqori cho'qqisi Abbosiylar davriga to'g'ri keladi. Davlat tuzumi va idorasimi, urf-odatlar va turmush tarzimi, madaniyat yoki me'morchilik bo'ladimi, barcha sohalarida xalifalikning sharqiy viloyatlari, Eron va Movarounnahrda ko'proq ibrat olinganini, bu mintaqalardan chiqqan arboblarga suyanilganini ko'ramiz.

Abbosiylar davridagi madaniyatning ajoyib xususiyati va ahamiyatli tomoni shundaki, fanning va badiiy ijodning hamma sohalarida diniy mafkuraviy cheklanganlikdan yuqori ko'tarilib, dunyoviylik ta'minlangan. U davr olimlari islom aqidalariga mahkam bog'lanib qolmagan, hatto rasmiy islom dogmalariga rioya qilmay, erkin fikrlash darajasiga ko'tarilganlar. Ular inson tabiatning eng oliy mahsuli ekanini tasdiqlaydilar⁷⁸.

U davr olimlari va badiiy ijodkorlari faqat tor bir sohaning mutaxassisi emas, balki ham olim, ham so'z ustasi bo'lganlar va bu holat tabiiy deb hisoblangan. Qadimgi Yunonistondagi kabi ilmiy risolalar she'r bilan ham yozilgan, olimlar she'rlar, shoirlar esa aksincha ilmiy risolalar yozganlar. Ular ilmning bir qancha sohalarida tadqiqot olib borgan qomusiy fozillar bo'lganlar. O'rta asr Sharq olimlarining o'z tadqiqotlarida tabiat va jamiyat hayotining turli tomonlarini qamrab olishi boshqa davr va boshqa mintaqalar tarixida uchramaydi. Sharq olimlari ijodida tabiat har taraflama yaxlit o'rganilgan. Bu davrda ilm va ilm ahliga nisbatan izzat-hurmat, ehtirom shunchalik yuqori darajaga ko'tarilgan ediki, bunday holatni na biror davr, na biror mamlakatda, hatto ko'klarga ko'tarilib maqtalgan Yevropada ham uchratmaymiz⁷⁹.

Abbosiylar davri adabiyoti. Abbosiylar davrida adabiyotning bosh markazi Bag'dod bo'lib, bu davrda she'riyat mavzui va janrlarda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Abbosiylar davri adabiyoti uch davrga bo'linadi:

⁷⁸ Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997, 203 бет.

⁷⁹ Сулаймонова Ф. Ўша асар, 198 бет.

1. Yangilanish davri (VIII asr o`rtalaridan - IX asr boshigacha);
2. Yangilanish davriga qarshi bo`lgan muqobil davr (IX asr boshlaridan-X asr birinchi choragigacha bo`lgan davr).
3. X asrdan - XIII asrgacha bo`lgan davr arab adabiyoti.

Yangilanish davri she`riyati. Ushbu davr arab adabiyotining taraqqiy etishida zabt etilgan xalqlar vakillarining qo`shgan hissasi ham nihoyatda katta bo`ldi. Ana shunday ijodkorlar sirasiga kiruvchi asli fors bo`lgan ajoyib shoirlar Bashshor ibn Burd hamda Abu Nuvas alohida ajralib turadi.

Yangilanish davri vakillaridan biri Bashshor ibn Burd (714-783) Basrada fors qullari oilasida tavallud topdi. U Basra va Bag`dodda yashab, arab va fors tillarida ijod qilgan. Bashshor ibn Burd muhabbat lirikasining ustasi bo`lib, maqtov-madhiya va hajviy mazmundagi she`rlar yaratgan, arab she`riyatidagi an`anaviy qoidalarni buzib, “yangicha uslub”ning asoschisi bo`lgan⁸⁰.

Qur`onda sharob ta`qiqlangan bo`lishiga qaramasdan abbosiylar davrida Bag`dodda ommaviy mayxo`rlik avj oldi. Mayni tarannum etgan rang-barang she`rlar shoirlar ijodida ko`p kuzatilardi. Abbosiylar davrining yirik shoiri Al-Hasan Abu Nuvas (762-815) ham mayni madh etib she`rlar bitdi. U 795-yili Bog`dodga, Xorun ar-Rashid saroyiga kelgan. Abu Nuvas Xorun ar-Rashidni madh etib qasidalar yozdi va uning e`tiborini qozondi, biroq tezda xalifa uni saroydan chetlashtirib, qamashni buyurdi, chunki shoir she`rlarida axloqiy chegaradan chiqib ketgan edi. Qamoqdan chiqqach al-Amin xalifaligi davrida saroy shoiri darajasiga ko`tarildi. Bu gal ham shoir she`rlarida ko`proq may haqida yozadi. Garchi mayparast bo`lsa-da, nihoyatda iste`dodli bo`lgan ushbu shoir hurfikrli lirikaning g`oyatda ajoyib namunalarini yaratgan. Abu Nuvas she`r yozishning o`ta nozik texnikasi bilan ham, shuningdek, hukrfikrlik bilan ham dong taratgan edi. U she`rlarni shunday yorqin tasvirlar bilan ifodaladiki, unda voqealarning real kartinasi mukammal aks etadi⁸¹.

⁸⁰ ЎзМЭ 11 том. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005, 416 бет.

⁸¹ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005, стр. 70.

Abbosiyalar davri adabiyotining yana bir e`tiborli jihati mayxo`rlik she`riyati bilan bir qatorda bosh yo`nalish ham yuzaga keldi. Bu yo`nalishning vakillari nafsni tiyish, dunyoviy ho`y-havaslardan nafratlanish, tarki dunyolikni bosh mavzu qilib ijod qilishdi. Bu yo`nalishning yorqin vakili Abu al-Ataxiya (748-825) hisoblanadi. Shoir Xalifa Mahdi zamonida Bag`dodga kelib, xalifaga atab qasidalar yozadi. Saroy shoiri sifatida Xalifa al-Mahdiydan keyingi xalifalar - Xorun ar-Rashid, al-Amin, al-Mamunlar davrida ham ijod qilib madhiyalar, falsafiy, pand-nasihatlil she`rlar yozadi. Dastlab shoir o`z ijodini muhabbat lirikasi bilan boshlagan bo`lsa-da, keyingi ijodida ko`proq o`ziga xos bo`lgan - zuhdiyot (o`z nafsini tiyish, tarki dunyo qilish) janrida asarlar yaratib, unga asos soldi. Abu al-Ataxiyani arab she`riyatidagi falsafiy tarkidunyochilik asoschisi deb hisoblaydilar. U ko`proq she`riy yangilanish tarafdorlaridan bo`lgan⁸².

Yangilanish davri nasri. Proza abbosiyalar davrida eng yuksak cho`qqisiga chiqdi. Ko`plab yangi nasriy asarlar janrlari paydo bo`ldi va eski shakldagi nasriy ijod namunalari o`z ahamiyatini yo`qotib bordi. Notiqlik san`ati asta-sekin quyi pog`onaga tushdi. Uning o`rniga esa hikoyalar, romanlar kabi adabiy asarlar keng tarqaldi. Fors, yunon va boshqa tillardan arab tiliga ko`plab tarjimalar qilindi.

Arab adabiyotining buyuk namoyondasi Abdulloh ibn al-Muqaffa (724-759) umri davomida fors adabiyoti va fors davlati tarixiga oid asarlarni arab tiliga tarjima qilib, ularni targ`ibot qilgan. U fors davlati tarixiga oid "Xudoynoma" asarini yozdi. Bu asar fors-eron shohlari tarixiga oid bo`lib, Firdavsiy o`zining "Shohnoma" asarini yozishda manba sifatida foydalangan. Ibn al-Muqaffa "Rislatu-s-Saxoba" asarini Xalifa al-Mansurga atab yozgan. "Rasoilu-l-Xotibin" ("Notiqlar risolasi"), "al-Adab al-Kabir" ("Katta odobnoma") va "al-adab as-Sag`ir" ("Kichik odobnoma") asarlarida muallif kishi avvalo, o`z ruhiyatini tetiklashtirishi, o`z tafakkurini oydinlashtirishi kerak, deb yozadi. Ibn al-Muqaffaning yana bir xizmati shundaki, u "Kalila va Dimna" asarini qadimiy fors tilidan arab tiliga tarjima qildi. Taxminan VI asrlarda Hindistonda yaratilgan

⁸² Чистякова Т.А. Арабский халифат. –М.: Издательство Учпедгиз. 1962, 141 бет.

hayvonlar misolida turli insonlar xarakterlarini ifodalovchi “Kalila va Dimna” eposining agar arabcha tahriri bo`limganda bizgacha yetib kelishi dargumon edi.

Qadimiyatga qaytish-muqobil davri adabiyoti. IX asr adabiyot, ijtimoiy hayot, fanda qadimiy an`analarga qaytish davri sifatida tarixda iz qoldirdi. Adabiyotda qadimiy an`analarga muhabbat paydo bo`ldi hamda johiliya davri shoirlari merosini o`rganishga kirishildi.

Bu davr vakillaridan biri Habib Abu Tammam (796-843) vasf janrini mustaqil janr darajasiga ko`tardi. U saroy shoiri sifatida al-Mu`tasimni maqtab, uning janglardagi jasoratini ko`klarga ko`tarib asarlar bitadi. Uning shogirdi Al-Buxturiy (821-897) ham shu davrda ijod qilgan yetuk shoirlardan hisoblanadi. Birinchi marta al-Buxturiy Xoms shahrida shoirlar mushoirasida Abu Tammam ko`rigidan o`tadi va uning nazariga tushadi. Ular ustoz va shogird bo`lib qoladilar. Al-Buxturiy xalifa davrida saroy shoiri bo`lib xizmat qildi⁸³.

Taraqqiyot va tanazzul davri adabiyoti. Bu davr adabiyotining yorqin namoyondasi Abu Usmon Amr ibn Baxr al-Johiz (775-868) bo`lib, uning 170 ga yaqin asari ensiklopedik xarakterga ega. U falsafa, siyosat, iqtisod, axloq, odob, tarix, jug`rofiya, tabiiy, aniq fanlarga doir, etnografiya, adabiyotshunoslik, she`riyat, tilshunoslik, lug`atshunoslikka oid asarlar yaratdi. Uning “Kitob al-bayan vat-tabyin”, “Kitab al-maxosin, val-adad, val-ajoyib, val-g`aroyib”, “Kitab fi tabaqat al-mug`annina”, “Kitab al-anosir al – adab”, “Kitab al-ixvan” asarlari mashhur.

Ibn al-Mu`tazz (863-908)dan katta she`riy devon qolgan. Asarlari ichida eng muhimi bu “Kitab al-badi`” (“Yangilik haqidagi kitob”)dir. Ibn al-Mu`tazz asosan vasf janrida ijod qilgan. U qasidalarida ko`proq mayni, ovni hamda tabiat manzaralarini, o`simlik va hayvonot dunyosini vasf etgan. O`zining “Kitab al-badi`” asarida Ibn Mu`tazz birinchi bo`lib nasr va nazmda ishlatiladigan badiiy tasvir vositalariga nom berib, ularni sharq badiiyati istilohi darajasiga ko`tardi.

⁸³ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005, стр. 141.

Badiiy nasr. Bu davr badiiy nasri badiiy tasvir vositalariga boy, ko`proq qofiyali nasr yoki saj san`atida yozilgan asarni tashkil etdi. Shu davr mashhur yozuvchilaridan Ibn al-Amid va al-Qadi al-Fodilni ko`rsatish mumkin. Ibn al-Amid nomi ibn bilan mashhur bo`lgan Abu-l-Fazl Muhammad ibn al-Xusaynni “Ikkinchi Johiz” deb ta`riflashar edi. U asosan qofiyali nasrda ijod qilgan. Al-Qadi al-Fodil (1134-1199)ning bir she`riy devoni va risolalari to`plami bor. Bu davrda nasriy janrlaridan - qissa, xabar, hikoya, rivoyat, latifa va maqomalar rivoj topdi.

Arablar jahon adabiyotiga katta hissa qo`shdilar. Aynan ularning hissasi bilan ko`plab qadimiy yodgorliklar avlodlar osha yetib keldi. Ana shunday durdonalardan “Ming bir kecha”ni alohida e`tirof etishimiz mumkin. “Ming bir kecha”da 264 ta hikoya bor. U forscha “Xazor afsona” asosida yaratilgan degan fikr bor. Chunki u eski paxlaviy tilidan arabchaga tarjima qilingan. Keyinchalik unga Bag`dod va Misr hayotini aks ettiruvchi qator arabiy rivoyatlar qo`shilgan. “Ming bir kecha” Sharq va G`arb yozuvchilari ijodiga barakali ta`sir ko`rsatdi va u dunyoning ko`p tillariga tarjima qilingan⁸⁴.

“Bayt al-hikma”ning tashkil topishi va uning vazifalari. O`rta asr Sharq xalqlari fani va madaniyati tarixida Bag`dodda bunyod etilgan “Bayt al-hikma” so`zsiz, yirik ilmiy voqea sanaladi. “Bayt al-hikma” o`zbek tilida “Hikmatlar uyi” degan mazmunni anglatadi. Bu iboradagi “hikmatlar” ortida o`sha davrdagi qator fanlar, jumladan, falsafa, tabobat, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, diniy ilmlar tushuniladi. Binobarin, “Bayt al-hikma” birinchi navbatda, ushbu sanab o`tilgan fanlar qolaversa, boshqa fan yo`nalishlarida ham ish olib borilgan ilm va tarjimalar dargohi bo`lgan.

Mohiyatan avvaliga kutubxona sifatida bunyod bo`lgan “Bayt al-hikma” ko`p vaqt o`tmay, u yerda jamlangan kitoblarni arab tiliga tarjima qilish markaziga aylandi. Keyinchalik esa, bu markaz tevaragida o`z davrining eng yirik olim va tarjimonlari to`planib, ijod qildilar. Ta`kidlash joizki, ularning

⁸⁴ ЎзМЭ 5 том. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003, 670 бет.

o`zagini Movarounnahr va Xuroson olimlari tashkil etdi. Ayni paytda bu maskanda bir tomondan, yunon, hind va fors tillaridagi ko`plab nodir asarlarning jamlangani, ikkinchi tomondan, jamlangan kitoblarning eng noyoblari tanlab olinib, arab tiliga o`girilgani hamda muomalaga kiritilishi, uchinchi tarafdan esa, muhim asarlarni yaratgan taniqli olimlarning “Bayt al-hikma”da to`plangani, uni o`rta asrlarning eng mashhur ilmiy dargohiga aylanishi va ilmiy adabiyotlarda “Bag`dod ilmiy maktabi” va “Bag`dod akademiyasi” degan nomlar bilan tanilishiga asos bo`ldi⁸⁵.

“Bayt al-hikma” ta`sis etilgan yil haqidagi ma`lumotlar hozirga qadar ma`lum emas. U Bag`dodning qaysi nuqtasida joylashgani borasida ham aniq bir xulosaga kelish qiyin. Ammo u xalifa saroyining biror-bir qismida joylashgan bo`lishi kerak, deb taxmin qilish mumkin. Bundan tashqari, “Bayt al-hikma”ning tashkil topishi ba`zan faqat xalifa al-Ma`mun ismi bilan ham bog`lab ko`rsatiladiki, bu haqiqatdan ancha yiroqdir.

Al-Mansur, Horun ar-Rashid, al-Ma`mun kabi Abbosiy xalifalar qadimiy qo`lyozma asarlar va yirik olimlarni o`z saroylariga jalb etishga alohida e`tibor qaratish bilan bir qatorda, bu borada mislsiz jonbozlik ham ko`rsatdilar. Natijada Bag`dod tez orada butun xalifalikda ilmiy faoliyat yuritish uchun katta imkoniyatlarga ega bo`lgan qulay shaharga aylandi. Bu esa o`z navbatida, olimlarning o`sha yerda ijod qilish ishtiyoqini oshirib yubordi.

Saroyda qo`lyozma asarlarni saqlash abbosiy xalifalardan al-Mansur davrida doimiy jarayonga aylandi, sifat va miqdor jihati ham tubdan o`zgardi. Al-Mansur nodir qo`lyozma asarlarni to`plashdan tashqari, o`zga yurtlardagi olimlarni ham o`z saroyiga jalb eta boshladi. Uning saroyida Erondagi Gundishopur maktabidan* taklif etilgan turli diniy e`tiqodda bo`lgan ko`pgina olimlar, tabiblar, kimyogarlar, geograflar va muhandislar xizmat qilgan. Xalifa al-Mansur davrida astronomiya, matematika, falsafa, tabobat, tarix, adabiyotga oid bir qancha

⁸⁵ Абдуҳалимов Б. Байт ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010, 35 бет.

* Gundishopur ilmiy maktabi Eronda Sosoniylar sulolasiga mansub hukmdorlar tomonidan tashkil etilgan bo`lib, V asrda Vizantiyadan qochgan nasroniylar boshpana topgan. U yerda falsafadan tashqari tabobatdan ham ta`lim berilgan, darslar suryoniy tilida olib borilgan.

kitoblar tarjima qilingan va mazkur noyob qo`lyozma asarlarni saqlash uchun o`z saroyidan maxsus joy ajratgan. Shu tariqa “Bayt al-hikma”ning yaratilishiga asos bo`lgan saroy kutubxonasi paydo bo`ldi.

Ammo bu kutubxonaning vazifasi kitobxonlarni zaruriy adabiyotlar bilan ta`minlash emas, balki to`plangan nodir qo`lyozma asarlar, turli mamlakatlardan keltirilib, arab tiliga o`girilgan kitoblarni saqlashdan iborat bo`lgan. Al-Mansur davrida bu maskan hali “Bayt al-hikma” deb nomlanmagan edi. Abbosiy xalifalar ichida eng dong taratgan Horun ar-Rashid (786-809) taxtga o`tirganidan so`ng, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Bu, albata, “Bayt al-hikma”ga o`z ta`sirini o`tkazmay qolmadi. Horun ar-Rashid davrida “Bayt al-hikma” turli adabiyotlar saqlanadigan maskandan tarjima va tadqiqotlar olib boriladigan markazga aylandi. U yerga kelgan taniqli ulamolar, tadqiqotchilar nafaqat turli mavzulardagi kitoblar bilan tanishish, balki ularni mutolaa qilish imkoniyatiga ham ega edilar. Bu davrda tarjima ishlariga bo`lgan ahamiyat bag`oyat ortib, “Bayt al-hikma”dagi asarlar soni yanada ko`paydi.

Ibn al-Qiftiyning bu markaz haqidagi fikrlari ham nihoyatda diqqatga sazovor. U shunday deb yozadi: “Haqiqatan, “Bayt al-hikma” turli ilmiy yo`nalishlar markazi bo`lib, Horun ar-Rashid bu institut haqidagi fikrning ibtidosi edi. Uning o`g`li xalifa al-Ma`mun bu ishni amalga oshirdi. “Hikmat” so`zi musulmon olimlarining fikriga ko`ra ilohiy ilmlar, hisob, tabobat va falakiyotni qamrab olgan⁸⁶”.

Horun ar-Rashidning kichik o`g`li al-Amin (809-813) davrida “Bayt al-hikma”ning faoliyati birmuncha susaygan bo`lsa, uning katta o`g`li al-Ma`mun davrida o`z taraqqiyotining eng yuqori cho`qqisiga ko`tarildi. Al-Ma`mun “Bayt al-hikma”ga alohida e`tibor bilan qaradi. Natijada uning davrida (813-833) “Bayt al-hikma”dagi ilmiy muhit misli ko`rilmagan darajada rivojlanib, u yerda yunon, fors va hind tillaridagi muhim kitoblarni arab tiliga o`girish, sharhlash bilan bir qatorda, mustaqil ilmiy faoliyat ham olib borilib, yangi asarlar yozildi. Al-

⁸⁶ Абдуҳалимов Б. Байт ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010, 39 бет.

Ma`mun diniy ilmlar, falsafa, aniq fanlar bilan qiziqqan va o`zi ham ular bilan muntazam shug`ullangan. Shuningdek, u tarjimonlar va olimlarga har bir yozgan yohud tarjima qilgan kitoblari uchun katta mukofotlar tayinlagan. Uning bevosita homiyligi ostida Yunoniston, Hindiston, Rum, Eron va Marvdan “Bayt al-hikma”ga katta miqdorda turli mavzudagi kitoblar kelib tushgan. Ularning ba`zilari esa, harbiy yurishlardagi o`lja sifatida Bag`dodga olib kelingan.

Al-Ma`munning qo`llab-quvvatlashi bilan eng sara asarlar tanlab olinib, arab tiliga o`girildi. Umuman, bu davrda tarjimonlik ishlari to`g`ri yo`lga qo`yilib, u yaxshi tashkil etilgan doimiy faoliyatga aylandi. Tarjimonlar alohida-alohida guruhlariga bo`linib ishlaganlar; har bir guruhni albatta malakali, mohir tarjimon boshqargan va so`nggi tahrir uchun ushbu shaxs mas`ul bo`lgan. Tarjimalar, odatda, yunon tilidan suryoniy tiliga, so`ngra arab tiliga, ba`zan esa yunon tilidan to`g`ridan-to`g`ri arab tiliga o`girilgan. Aksar hollarda, tarjimalar kitob matnlarining asli bilan taqqoslab amalga oshirilgan. Har bir tarjimonlar guruhi tarkibida matn ko`chiruvchi va kitoblarni muqovalovchi mutaxassislar bo`lgan. Binobarin, al-Ma`mun davriga kelib, “Bayt al-hikma” tarkibida yirik kutubxona, tarjima va asarlar yozish, ko`chiruvchilar hamda muqovalash uchun ajratilgan maxsus xonalar mavjud edi. Shuningdek, al-Ma`mun davrida osmon jismlarini kuzatish uchun ikkita rasadxona ham bunyod etilgan⁸⁷.

Yuqorida bayon etilgan ma`lumotlar asosida “Bayt al-hikma”ning ta`sis etilishi hamda uning vazifalari haqida quyidagicha xulosaga kelish mumkin: Bag`dod xalifalari saroyining ma`lum qismini egallagan “Bayt al-hikma”ning asosi – xalifa al-Mansur davrida yaratildi, Horun ar-Rashidning homiyligi ostida, u ancha kengaytirildi, rivojlantirildi, o`zining tarixiy “Bayt al-hikma” nomi bilan yuritila boshladi. Al-Ma`mun esa, u yerda mashhur allomalarni to`plab, ularga har taraflama ko`mak berdi, uning eng yuqori taraqqiyot darajasiga ko`tarilishini va o`sha davr uchun o`ziga xos ilmiy maktabga aylanishini ta`minladi.

⁸⁷ Абдуҳалимов Б. Байт ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010, 40-41 бетлар.

Abbosiylar davrida ilm-fan rivoji. Abbosiylar davrida ilmu fan eng yuqori cho`qqiga ko`tarildi. Buning qator sabablari bo`lib, ular sirasiga tarjima sohasidan tashqari, kishilarning yagona davlat va e`tiqod, ya`ni islom dini ostida birlashuvi, iqtisoddagi ko`tarilish, arab tilining rasmiy tilga aylanishi, ilmiy faoliyat va olimlar qadrlanadigan umumiy muhitning paydo bo`lishini kiritish mumkin. Bu davrda Bag`dod shahri ilm-fan markaziga aylandi va bu yerda tashkil etilgan “Bayt al-hikma” o`z davrining mashhur olimlarini jamlagan ilmiy markaz maqomini oldi. Bu ilmiy markazga yig`ilgan arab, fors, turk, yunon, musulmon, nasroniy, yahudiy, shuningdek, boshqa millat va e`tiqodga mansub olimlar hamkorlikda o`sha davr ilmlarining deyarli barchasi bilan shug`ullanib, qator sohalarda yirik kashfiyotlar yaratdilar, yangi asarlar yozdilar hamda o`z ijodlari bilan Sharq xalqlari fani va madaniyati tarixida o`chmas iz qoldirdilar. Quyida Abbosiylar davrida rivojlangan ba`zi tabiiy va ijtimoiy fanlar haqida mulohazalar yuritamiz.

Astronomiya. Abbosiylar davrida tez taraqqiy topgan fanlar qatorida astronomiya (falakiyot)ni kiritish maqsadga muvofiq. Xalifa al-Ma`mun davrida “Bayt al-hikma” qoshida osmon jismlarini kuzatish uchun ikkita rasadxona ham bunyod etilgan. Birinchisi 828-yilda Bag`dodning ash-Shammosiya mintaqasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Qasiyun tog`ida 831-yilda qad ko`targan. Ikkala rasadxonaning ham faoliyatini al-Ma`mun o`z saroyiga to`plagan Movarounnahr va Xurosondan kelgan astronomlar, jumladan, Muhammad (Muso) al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg`oniy, Yahyo ibn Abu Mansur, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Ahmad al-Marvaziy, al-Abbos al-Javhariy va boshqalar olib borganlar. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag`dodning ash-Shammosiya mintaqasidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo`lgan. Rasadxona faoliyati haqida u “Bayt al-hikma”ning mudiri Muhammad al-Xorazmiy (783-850)ga hisobot berib turgan. Yahyo 831-yilda vafot etganidan so`ng al-Xorazmiy bu rasadxonani ham boshqaradi va u yerdagi kuzatishlarda faol qatnashadi. Xurosonlik olim Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy esa Damashq yaqinidagi

Qasiyun tog`idagi rasadxonaning tashkilotchisi, rahbari va u yerda olib borilgan tajribalarning qatnashchisi bo`lgan⁸⁸.

Abbosiylar davriga kelib, musulmon astronomiyasining keyingi rivojini ikki muhim kitob belgilab berdi, deyish mumkin. Ulardan birinchisi Batlimus (Ptolemey) qalamiga mansub bo`lgan “Al-Majustiy” bo`lsa, ikkinchisi hind tilidan arab tiliga tarjima qilingan “Sindhind” edi. Har ikki asar ham uzoq yillar davomida musulmon mamlakatlarida osmon sirlarini o`rganishda asosiy manba bo`lib xizmat qilgan.

VIII asrda arab astronomlaridan ota va o`g`il Fazariylar, Yoqub ibn Tariq eng mashhur olimlar bo`lishgan. Xalifa al-Ma`mun davriga kelib astronomlar soni ko`payib, ularning o`zagini Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan olimlar tashkil etgan. Xususan, ular qatorida Muhammad al-Xorazmiy (783-850) ham bo`lib, garchi u matematik sifatida tanilgan bo`lsa-da, astronomiyaga oid muhim meros qoldirgan. “Zij”, ya`ni falakiyotga oid jadvallari hamda “Usturloblar bilan bajariladigan amallar” kitobi al-Xorazmiyning astronomiyaga bag`ishlab yozgan asarlari orasida eng mashhurlari edi.

Ahmad al-Farg`oniy (taxm. 797-865) ham Bag`dod ilmiy markazidagi allomalarning eng mashhurlaridan biri bo`lgan. Hozirgi kunda al-Farg`oniyning sakkiz asari ma`lum bo`lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador. Uning “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi” XII asrda Yevropada lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Yevropa tillariga ham tarjima qilinganidan so`ng, uning lotinlashtirilgan nomi “Alfraganus” shaklida G`arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi⁸⁹.

Shuningdek, IX-X asrlarda falakakiyotga oid jarayonlarda Raqqo shahrida 40 yildan ziyod ijod qilgan Abu Abdulloh al-Battoniy, ilm-fanning turli tarmoqlariga oid 184 asar meros qoldirgan mashhur eronlik olim Abu Bakr ar-Roziy (865-934), Markaziy Osiyoning Ahmad al-Marvaziy, Yahyo ibn Abu

⁸⁸ Абдуҳалимов Б. Байт ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010, 126 бет.

⁸⁹ Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар)//Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев/-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001, 49 бет.

Mansur, Abbos ibn Said al-Javhariy kabi boshqa mashhur olimlari ham samarali ishtirok etganlar.

Matematika. Arab-musulmon dunyosida matematika taraqqiy topishiga greklar va hindlarning ta`siri bo`lib, hindlardan “nol” qo`llanadigan o`nlik sanoq tizimi o`zlashtirilgan edi. Arab tilida arifmetika to`g`risida yozilgan birinchi asar IX asrda Bag`dodda ishlagan o`rta osiyolik buyuk olim Muhammad al-Xorazmiyning “Kitab al-jabr va-l-muqobala” risolasi bo`ldi. Algebrik harakat (al-jabr) bilan bog`liq bo`lgan amaliyot nomi bilan hozirga qadar matematikaning butun boshli bo`limi “Algebra” deb yuritiladi. “Al-Xorazmiy” nomi ham matematikaga kirdi: uning lotinlashtirilgan shaklidan (al-Xorazmiyning risolasi XII asrda lotin tiliga tarjima qilingan) “algoritm” termini vujudga keltirilgan edi⁹⁰.

Abd al-Hamid ibn Turk al-Xuttaliy Muhammad al-Xorazmiy bilan bir davrda, bir shahar – Bag`dodda yashagan va eng qizig`i bir xil nomdagi “Kitab al-jabr va-l-muqobala” asarini yozgan matematikdir. Uning riyoziyotga oid to`rtta risolasi bo`lganligi bibliografik adabiyotlarda e`tirof etiladi.

Shu o`rinda yana bir muhim bir masala mavjud: sinus, tangens va kotangens kabi tushunchalarni birinchi bo`lib iste`molga kiritgan olim adabiyotlarda har xil ko`rsatiladi. Xususan, mashhur sharqshunos olim R.G.Landa ushbu tushunchalarni al-Battoniy ilk bor qo`llagan⁹¹, - desa, B.Abduhalimov ularni birinchi bor Ahmad al-Marvaziy ilmiy muomalaga kiritgan⁹², - deydi.

Fizika. Arab matematiklarining deyarli barchasi fizika bilan shug`ullangan. Fizika sohasida Ibn al-Haysamning xizmatlari eng salmoqlidir: u o`z zamonasi optikasining nihoyatda to`liq bayonini yaratgan, hozirgi zamondagiga yaqin bo`lgan ko`z tuzilishi haqida ma`lumotlarni qo`lga kiritgan edi. Avval aytib o`tganimizdek, Abu Bakr ar-Roziy ham fizika, xuddi shuningdek, kimyo, astronomiya, tibbiyot bilimdoni va allomasi bo`lib etishgan edi.

⁹⁰ Маънавият юлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар)//Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев/-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001, 38-39 бетлар.

⁹¹ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.:Восточный университет, 2005, стр. 73.

⁹² Абдухалимов Б. Байт ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010, 139 бет.

Tibbiyot. Sharq xalqlari tarixida tabobat doimo alohida e`tibor bilan tadqiq etilgan ilmlar jumlasiga kirgan. Abu Bakr ar-Roziyning tibbiyotga oid asarlari lotin tiliga tarjima qilingan, asrlar davomida, shu jumladan, g`arbda ham shifokorlar tomonidan o`ziga xos darslik va ensiklopediya sifatida foydalanilgan edi. Ar-Roziyning “Katta to`plam” asariga tabobatning qator mavzulariga ba`gishlangan muhim yangiliklar kiritilgan. Ar-Roziy birinchi bo`lib ko`plab kasalliklar mufassal tavsifnomasini berdi, har bir bemor uchun kasallik tarixini tuzishni joriy etgan, sepkilni emlashni qo`llagan edi. U birinchilardan bo`lib jarohatlarni bog`lashda yumshoq paxtani, ayrim tibbiyot asbob-uskunalarini qo`llashni boshlagan edi. Shifokorlarning ixtisoslashuvi haqidagi, tibbiy yordam to`g`risidagi va qashshoqlarning o`z-o`ziga yordami xususidagi asarlar ham buyuk Abu Bakr ar-Roziy qalamiga mansubdir⁹³.

Turli-tuman hukmdorlar dargohida tabib va vazir bo`lgan Abu Ali ibn Sino buyuklikda Abu Bakr ar-Roziydan, ustun bo`lsa ustunki, aslo qolishmaydi. Uning asosiy asari “al-Qonun fi-tib” (Tibbiyot asoslari) keyinchalik Yevropa tillariga bir necha marotaba tarjima qilingan edi (birgina lotin tilida 30 martadan ko`proq nashr etilgan). Ana shu 5 qismdan iborat bo`lgan o`ziga xos tibbiyot ensiklopediyasi Sharq va G`arb shifokorlari uchun asrlar davomida majburiy tusdagi bir dasturilamal bo`lib keldi. Unda kasallik va salomatlik sabablari ko`rib chiqilgan, turli xil kasalliklar, jumladan, o`sha kezlarda juda kam narsalar ma`lum bo`lgan yuqumli kasalliklar haqida to`lik klinik kartinalar tasvirlab berilgan.

Geografiya. Istilolar va fathlar davrida arablar uchun geografiya ulkan amaliy ahamiyat kasb etgan edi. Aynan shuning uchun ham ular geografiyaga oid asarlar bo`yicha ham, ularning janrlari rang-barangligi va ma`lumotlar seroblighi borasida o`rta asrlarning qolgan barcha geograflaridan o`zib ketgan edilar. Arab geograflari va sayohatchilari islomning barcha mamlakatlari, shuningdek, Evropa, Ekvatorial Afrika va Koreyaga qadar Osiyoning juda ko`plab qismlari mufassal tasvir va tavsifnomasini meros qoldirdilar. Ana shu materiallar ko`p

⁹³ Ullmann M. Medizin in Islam. Handbuch der Orientalistik. Leiden. Brill. 1970, page 89.

hollarda o`rta asrlarda yashagan, ayniqsa, Osiyo va Afrikaning bir qator xalqlari haqidagi ma`lumotlarning birdan-bir manbai bo`lib qolmoqda. Geografiya bo`yicha ilk asar – “Kitab al-Mamolik va al-Masolik” (“Mamlakatlar va yo`llar haqidagi kitob”) IX asrda qo`lyozma holida ko`chirilgan edi. Uning muallifi kelib chiqishi fors bo`lmish Ibn Xurdodbeh (826-885) musulmon mamlakatlari va ularning qo`shnilari to`g`risida ma`lumotlar berib o`tgan edi. Geograflar va sayohatchilar tomonidan to`plangan ma`lumotlarning ulkan zaxirasi arab olimlarining keyingi avlodlariga (al-Bakriy, al-Qazviniy, ad-Damashqiy va boshqalar) geografik lug`atlar tuzishga imkon berdi⁹⁴.

Tarix. Arablarning tarix fani geografiya bilan chambarchas bog`langan edi. Tarixiy xarakterdagi ilk qaydnomalar VII asr oxiriga mansubdir. Ularda odatda arab qabilalarining geneologik rivoyatlari, Yamandagi islomdan avvalgi davlat to`g`risidagi ma`lumotlar (odatda chala afsonaviy), G`assoniylar va Lahmiylar amirliklari haqida, islom vujudga kelishi va tarqalishi xususidagi ma`lumotlar joy olgan edi. Muhammad al-Kalbiy (763-yilda vafot etgan) va uning o`g`li Hishom (819-yilda vafot etgan) arab qabilalari shajaralari va og`zaki rivoyatlarini to`pladilar va yozib oldilar, ana shularning asosida keyinchalik IX-XIV asrlarda barcha arablarning 10 dan ortiq shajaralari tuzilgan edi. Shajaralar va qabilaviy afsonalarga qiziqishni siyosiy voqealarni (shu jumladan, Muhammad payg`ambarning harbiy yurishlari) qayd etib borish bilan uyg`unlashtirib qo`shib olib borgan ilk tarixchi esa, Muhammad az-Zuhriy (742-yilda vafot etgan) bo`ldi. Ibn Is`hoq (704-767) tomonidan yozilgan qadimgi payg`ambarlar tarixi va Muhammad hayotnomasi dastlabki ahamiyatli tarixiy asarga aylandi. Ana shu asar xuddi shu mavzuga bag`ishlangan keyingi barcha asarlar uchun bir namuna bo`lib xizmat qilgan edi⁹⁵.

VIII-IX asrlarda ayrim istilolar va Xalifalik hayotidagi voqealar tavsif va tavsiri qog`ozga tushirildi. IX-XI asrlarda arab tarixnavisligi ravnaq davrini boshdan kechirdi: butun tarixiy jarayonni, shu jumladan, islom olami sarhadidan

⁹⁴ Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005, стр. 76.

⁹⁵ Ланда Р.Г. Ўша асар, стр. 78.

tashqaridagi voqealar silsilasini yoritib berishga da`vogarlik qiluvchi jahon umumiy tarixiga oid umumlashtiruvchi asarlar paydo bo`ldi. IX asrda al-Balazuriy va ad-Dinovariy, at-Tabariyning “Payg`ambar va podshohlar tarixi” asari (ana shu janrdagi eng yirik asar), Abul Hasan al-Mas`udiy (947 yilda vafot etgan)ning “Oltin konlari va qimmatli quyma ma`danlar shodalari” ana shunday asarlar sirasidandir. Abu Ali ibn Miskavayhning XI asr boshlarida yozilgan, jahon umumiy tarixi bo`yicha arab o`rta asrlar tarixnavisligida eng ahamiyatli asar bo`lmish “Xalqlar tajribalari haqida kitob” asari ham muhimlikda al-Mas`udiy asaridan qolishmaydi. Muqaddam to`plangan bilimlar zaxiralari va ularni bayon qilish usullaridan foydalangan forslar, shuningdek, qolgan boshqa turli-tuman arab bo`lmaganlarning ishtirok etishi Xalifalik tarixnavislikning shakllanishini jadallashtirdi⁹⁶.

X asr o`rtalaridan boshlab dunyo yaratilishidan boshlanuvchi umumiy asarlar bilan bir qatorda sulolalar solnomasi, alohida hukmdorlar, ularning vazirlari va kotiblari biografiyasi, alohida mamlakatlar va shaharlar tarixiga oid asarlar vujudga keldi. Yaman (al-Hamdoniy), Misr (Ibn Abu al-Hakim), Bag`dod (al-Hoshib al-Bag`dodiy), Damashq (Ibn Asokir), Halab tarixi (Ibn al-Adim) va boshqalar ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Shuning barobarida umumiy tarixni yozish ham davom etaverdi: Mosuldan bo`lmish Izziddin ibn al-Asir (1160-1234) “Mukammal tarix”ni yozishda at-Tabariy asarlariga tayangan edi.

Falsafa. Arab-musulmon madaniyati taraqqiyotiga falsafiy va ijtimoiy tafakkur nihoyatda ulkan ta`sir ko`rsatdi. Bag`dodda Xalifa farzandlari muallifi va murabbiysi bo`lib ishlagan arab falsafasi asoschisi al-Kindiy (800-870)dan boshlab barcha arab mutafakkirlari antik zamon falsafasini sharhlash bilan shug`ullanganlar. Arab faylasuflari falsafani “fanlar fani” deb hisoblashgan. Shuning uchun ham bir vaqtning o`zida barcha fanlar bilan shug`ullanib kelgan al-Kindiy platon va aristotel ta`limotlarini yagona tizimga birlashtirishga intilgan.

⁹⁶ Ирмияева Т.Ю. История мусульманского мира от халифата до блистательной порты. -М.: Издательство «Урал-книга». 2000, электронная версия: стр. 58.

“Sharq Arastusi”, “Ikkinchi muallim” nomlari bilan ulugʻlangan Abu Nasr Forobiy (873-950) qadimgi yunon fani va madaniyatining insoniyat sivilizatsiyasida tutgan oʻrnini yuksak baholab, butun ilmiy faoliyati davomida nafaqat unga suyandi, kishilik tarixida oʻchmas iz qoldirgan yunon olimlarining, koʻproq Arastuning asarlarini targʻib qildi, ularning koʻplarini arab tiliga tarjima qildi, sharhlar yozdi. Antik dunyo olimlarining qoldirgan meroslarini toʻla oʻzlashtirmasdan turib, fan va madaniyatni rivojlantirish mumkin emasligini yaxshi tushungan Abu Nasr Forobiy yunon mutafakkirlarining taʼsiriga tushib qolmadi, balki oʻz davri sharoitida mustaqil fikr yurituvchi alloma sifatida oʻzini namoyon qildi.

Abbosiyalar davrida meʼmorchilik. Qohiraning qadimiy masjidlaridan biri Ibn Tuluna (885-yil) masjidining loyihasi ham Amra masjidi loyihasiga oʻxshash boʻlsa-da, undan bezaklari va naqshinkorligi bilan ajralib turardi. Masjidning derazalari naqshli panjaralar bilan toʻsilgan edi. Hovli oʻrtasidagi hovuz yopiq gumbaz bilan berkitilgan edi.

Abbosiyalar davrida shaharsozlik shu qadar taraqqiy etdiki, natijada Xalifalik hududida yangi va koʻrkam shaharlar birin-ketin qad rostladi. Dastlab, xalifa al-Mansur Tigr daryosining oʻng sohilida “Madina al-Mudoshara” (“Doira shahar”) deb nomlanuvchi shahar qurilishi uchun buyruq bergan. Chunki, butun shahar doira shaklidagi devor bilan oʻralishi kerak edi. Shahar 762-yilda qurildi va u “Madinat as-Salom” nomi bilan ataldi. Ushbu nom hujjatlarda, zarb qilingan tangalarda uchraydi. Lekin bu shahar tarixga Bogʻdod nomi bilan kirdi. Shahar rejaga muvofiq, aylana shaklida bunyod etildi, uning diametri 2,5 km ni tashkil etgan. Shaharni pishiq gʻishtlardan qurilgan mudofaa devori oʻrab turgan. Shahar markazida xalifaning saroyi – “Koʻk gumbaz” boʻlgan, uning yonidan katta masjid va boshqa binolar qurilgan.

IX-X asrlarda shahar Osiyoda, qolaversa butun dunyodagi eng yirik madaniy-siyosiy markazga aylandi. VIII-XIII asrlar davomida Bagʻdod Abbosiylar poytaxti boʻlib turdi. Xalifalik qulaganidan soʻng, uning poytaxt maqomi yoʻqolgan boʻlsa-da, madaniy markaz sifatidagi ahamiyatini yoʻqotmadi.

Afsonaviy xalifa Horun ar-Rashidning nevaralaridan biri al-Mutasim 836-yilda xalifalik poytaxtini qayta qurilgan shahar Samarraga ko`chirdi. Bag`doddan 138 km uzoqlikda Tigrning o`ng sohilida qad ko`targan ushbu shahar “xuddi sahrodagi sarobday juda maftunkor” deb ta`riflanardi. Al-Mutasim bu harakati bilan o`z hokimiyatini mustahkamlashga intilardi, chunki ayni paytda Bag`dod aholisi uning haddan tashqari shafqatsiz boshqaruvidan norozi bo`lib, katta isyon boshlanish xavfi mavjud edi. Sakkiz xalifa Samarra farovonligi yo`lida katta ishlarni amalga oshirdilar, Samarra gullab-yashnagan davrda uning aholisi 200 mingga yaqin edi. Binolarning hashamati va haybati shahar hududining kengligi hayratlanarli darajada edi. Shahar bosh ko`chasining kengligi 100 metr bo`lib, ko`chaning ikki tomonida anhor qazilib, ko`cha atrofi va anhor sohillari daraxtlar bilan obodonlashtirilgan edi⁹⁷.

Nemis arxeologlari Samara xarobalaridan masjidlar, saroylar, uylar, yog`och va toshga o`yilgan naqshlarni, devordagi tasvirlarni topdilar. Bu shaharda 847-yilda xalifa al-Mutavakil davrida qurilishi boshlangan masjid musulmon olamida eng yirik masjid hisoblanadi. U 38000 kv.m joyni egallagan bo`lib, katta hovli, namoz o`qishga mo`ljallangan katta zal va minoraga ega bo`lgan. Bu masjid Damashqda Ummaviylar davrida qurilgan masjidtdan ham kattadir. Uning yonida tepaga qarab spiral shaklida ingichkalashib borgan minora qurilgan bo`lib, u al-Malviya nomi bilan mashhurdir. Minoraning me`morlari qadimgi vavilon zikkuratlari ta`sirda o`tmish bilan o`ziga xos aloqa o`rnatganlar. Minoraning balandligi 50 m.ga. yaqin. Iroqdagi masjid va minoralar ham pishiq g`ishtdan qurilgan.

Samaradagi Jausak va Balkuvar saroylari ham o`z hajmi va tuzilishi bilan kishida katta taassurot qoldiradi. Jausak devoridagi ovchilar, o`ynayotgan ayollar, chavondoqlar, hayvonlar va boshqa turli tasvirlar bu davr tasviriy san`ati haqida katta ma`lumot beradi. Balkuvar saroyi Mshatta qasriga o`xshash, lekin undan 15 marta kattadir. Bu saroy devorlari ham turli tasvirlar bilan bezatilgan. Ular ichida odamlar va hayvonlar rasmi, geometrik va o`simliklarning naqshlari katta o`rin

⁹⁷ Соколова М.В. Мировая культура и искусство. –М.: Издательский центр “Академия”, 2007, стр. 176.

tutadi. Samara shahrining gullab yashnash davri uzoqqa bormadi, 892-yilda xalifalikning poytaxti yana Bog`dodga ko`chirildi. Natijada Samara shahri yillar o`tishi bilan e`tibor susayganligi tufayli, xarobaga aylandi⁹⁸.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hech qachon hech qaysi xalq, elat boshqa xalqlardan uzilib qolgan, o`z holicha yashagan emas, aks holda hech qanday taraqqiyot bo`lmagan bo`lar edi. Arab xalifaligida VII asrda vujudga kelgan arab-musulmon madaniyati ham ana shunday taraqqiyot yo`lidan bordi. Arab-musulmon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi bir qancha omillar sabab bo`lgan:

Birinchidan, Xalifalik xalqlarining yagona Islom diniga e`tiqod qilganligi. Islom dini yangi madaniyatning mafkuraviy asosini belgilab berdi va Xalifalikning barcha xalqlarini uni yaratishga jalb etdi. Bunda musulmonlarning muqaddas kitobi “Qur`oni Karim” va undan keyingi o`rinda turuvchi hadislar hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Ikkinchidan, istilolar natijasida xalifalikka birlashtirilgan turli mamlakat xalqlarining ilg`or madaniyati imkon qadar bir-birini boyitdi. Bu o`rinda yagona davlat tili – arab tilining faqat Xalifalikni tashkil etgan xalqlar o`rtasida aloqa tiligina bo`lib qolmay, adabiyot va ilm-fan tiliga ham aylanganligi katta rol o`ynagan. Buyuk allomalar qaysi xalq vakillari bo`lmasin, arab tilida ijod qilganlar. Bu omil xalifalik tarkibidagi turli xalqlarga bir-birining madaniyati yutuqlaridan foydalanishga imkon yaratgan. Xalifalik madaniyatini faqat arablar emas, xalifalik tarkibiga kirgan barcha xalqlar yaratganligi ushbu omilda to`la-to`kis o`z tasdig`ini topadi.

Uchinchidan, Xalifalikda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti turli darajada bo`lgan mamlakatlar va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o`rtasida yaqin aloqalarning o`rnatilishi, iqtisodiy hayotning ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalari rivojiga turtki bergan. Bu omil o`z navbatida o`zaro madaniyat almashinuviga ham shart-sharoit yaratgan. Savdo va hunarmandchilik,

⁹⁸ Воронина В.Л. Средневековый город арабских стран.-М.: Издательство ВНИИТАГ, 1991, электронная версия стр. 7.

jamiyat hayotidagi o`zgarishlar turli muammolarni keltirib chiqardi. Ularning yechimini topish ilm-fanning rivojiga ehtiyoj tug`dirdi.

To`rtinchidan, Islom din sifatida shakllangan davrda arablar yarim badaviy elatlardan iborat bo`lgan xalq edi. Tabiiyki, arablar ham o`zlari zabt etgan mamlakat xalqlarining ilg`or madaniyatini zudlikda o`zlashtirdilar. Ushbu madaniyat xalifalikni tashkil etgan xalqlar madaniyati asosida islomga moslashtirib mujassamlashtirilgan madaniyat edi.

Beshinchidan, Arab xalifalari olimlar, shoirlar, san`at vakillarini o`z homiyliklariga olganlar. Xalifalarning bu xatti-harakatini homiylik deb emas, balki butun jamiyat bilan birgalikda haq yo`ldan borish deb ham tushunish mumkin. Xalifalarning ilm-fan, madaniyat rivojiga homiylik qilishi shubhasiz, arab-musulmon madaniyatining yuksak darajada taraqqiy etishini ta`minlagan.

Shuningdek, ushbu bobda arab-musulmon madaniyatining tarkibiy qismlarini sanab o`tgan holda ularga ham batafsil to`xtalib o`tdik. Xususan, me`morchilik sohasida yangi me`moriy inshootlar – masjid, madrasa, maqbara va minoralarning bunyod etilishi hamda ularning o`ziga xosliklari, tasviriy san`at va musiqa san`atiga islomning munosabati, miniatyura, xattotlik, kitobat san`atining arab-musulmon madaniyatida tutgan o`rni hamda Xalifalikda amaliy san`at sohasining rivoji kabi masalalar baholi qudrat atroflicha yoritildi.

Bundan tashqari, ushbu bobda arab-musulmon madaniyatining ummaviylar va abbosiylar davridagi umumiy holati alohida-alohida tarzda tadqiq etildi. Bu davrlardagi madaniy o`shishga xulosa qilib aytganda, Ummaviylar hukmronligi davrida diniy ilmlar va arab tiliga e`tibor berilgan bo`lsa, Abbosiylar davriga kelib tabiiy fanlarga bo`lgan qiziqish ortdi. Abbosiy xalifalarning bevosita homiyligi ostida ilm-fan misli ko`rilmagan darajada rivojlandi, madaniyatning turli sohalari taraqqiy etdi. Bag`dodda tashkil etilgan “Bayt al-hikma” o`z davrining yetuk olimlarini jamlagan ilmiy markazga aylandi.

II BOB. AL-ANDALUSIYA (MUSULMON ISPANIYASI) MADANIYATI

2.1 Ispaniyada arab-musulmon madaniyatining

shakllanishi va rivojlanishi

711-yilda Shimoliy Afrika arablari Gibraltardan o'tib, Ispaniyaga bostirib kirdilar va uch yil davomida janubiy va markaziy viloyatlarni egalladilar, bu hududlarni Al-Andalusiya deb atadilar. "Andalusiya" janubiy mintaqaga degan ma'noni anglatadi va u yerda hozirga qadar arablar ta'siri sezilib turadi⁹⁹. Andalusiya janubi-g'arbda Atlantika okeani, janubi-sharqda O'rtayer dengizi bilan o'ralgan, janubda Gibraltar bo'g'ozini Afrika qit'asidan ajratib turadi. Tarixchi olimlar bu hududni Al-Andalusiya nomidan tashqari "Musulmon Ispaniyasi" yoki "Arab Ispaniyasi" deb ham atashadi. Tadqiqotimizda biz ham ana shu uch nomni navbati bilan qo'lladik.

Ispaniyaning arablar tomonidan zabt etilishi ispan arabi Ahmad ibn Muhammad ar-Roziy (vafoti 955-yil) tomonidan yozib qoldirilgan. Arablar tomonidan Iberiya (Pireney) yarimorolining bosib olinishi insoniyat tarixining yangi sahifasini ochadi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Aleksandr Makedonskiy orzu qilgan Sharq va G'arb sintezining yangi davri boshlanadi.

Ispaniya arab mamlakatlari orasida tabiiy jihatdan, ayniqsa, Marokashga yaqin. O'rtadagi o'xshashlik tufayli har ikkala mamlakat bir-birining davomidek tuyuladi. Ispaniyani dastavval bosib olganlar ham marokashliklar bo'lib, keyinchalik mavritaniyaliklar va boshqa arab mamlakatlari vakillari ham Iberiya yarimoroliga ko'chadilar. Yerli xalqning ham ma'lum qismi zo'ravonliksiz, ikkinchi darajadagi fuqaro bo'lmaslik uchun islomni qabul qiladi va oz vaqt ichida arablar bilan birlashib ketadi. X asrga kelib Ispaniya (arablar "Al-Andalus" deb atagan janubiy va markaziy qismi) aholisini asosan musulmonlar tashkil etgan.

Arab Ispaniyasi xalifalikdan uzoqda joylashgan bo'lib, ko'p masalalarda mustaqil siyosat olib borgan. Xalifalik markazida hokimiyatga Abbosiylar

⁹⁹ Лалагуна Х., Испания: История страны. –М.: Издательство Мидгард, 2009, ст. 329.

kelgach, Ummaviylardan bo`lgan Abdurahmon I ad-Doxil (xalifa Xishomning nabirasi) 755-yilda g`arbda Ummaviylar hukmronligini tiklaydi. Davlat poytaxti Qurdoba (Kordova)da joylashdi. 929-yilga kelib Abdurahmon III an-Nosir o`zini mustaqil xalifa deb e`lon qiladi. Ispaniyada Ummaviylar hukmronlik qilgan davr, mamlakatning iqtisodiy-madaniy jihatdan gullagan davri bo`lgan.

Arablar Ispaniyani bosib olib hukmronlik qilar ekan, uzoq vaqtlar o`zlarining hayot tarzlari, madaniyatlarini davom ettirdilar. Markaziy xalifalik esa, Pireney (Iberiya) yarimorolini uzoq o`lka deb hisoblab, uning siyosiy va iqtisodiy hayotiga aralashmadi. VIII-IX asrlar yerli va kelgindi xalqlar madaniyati, urf-odatlarining bir-birini boyitish davri bo`ldi. Xalifalikda Abbosiylar hukmronligi o`rnatilgach, Damashq va umuman Suriyadan ko`plab madaniyat arboblari va Ummaviylarga sodiq bo`lganlar Al-Andalusga ko`chadilar. Natijada Pireney yarimorolida siyosiy tizim bilan bir qatorda madaniyat va adabiyotda Damashq xalifaligiga xos xususiyatlar keng tarqaladi. Ammo ular Abbosiylar va Bag`dod hayotidagi o`zgarishlarga ham befarq qaramaydilar.

Arablar istilosidan keyin Ispaniyaning iqtisodiyotidagi o`zgarishlar ijtimoiy hayot hamda madaniyatga ham katta ta`sir ko`rsatdi. Jamiyatning madaniy hayotiga islom xristianlik dinidan farqli o`laroq, ancha ijobiy ta`sir etdi. Madaniy, ilmiy aloqalar kengaydi. Madaniyat jihatidan yuqori bo`lgan sharqiy mintaqa fanining yutuqlari xalifalikning boshqa viloyatlariga ham o`z ta`sirini o`tkazish imkoni tug`ildi.

Al-Andalus madaniyati, Sharqdagi arab-musulmon madaniyati kabi bir necha xalqlar madaniyatlarining, masalan, arab, barbar, fors, hind, Markaziy Osiyo, Vizantiya va mahalliy madaniyatlarning o`zaro ta`siri va o`zlashtirilishi natijasida vujudga keldi. VIII asr boshida Ispaniyani bosib olgan arab va barbarlarning madaniy saviyasi mahalliy ispan-rim aholisidikidan yuqori emas edi. Ammo IX-X asrlarda ular shunday muvaffaqiyatlarga erishdilarki, ular tasarrufidagi joylar faqat musulmon Sharqidagina emas, balki butun xristian Yevropasidagi madaniyat o`chog`iga aylandi.

Al-Andalus madaniyatining tez orada bu qadar yuksak parvoz qilishi siri barcha etnik guruhlar - arablar, barbarlar, yahudiylar, muvalladlar va mosarablar (iberlar va gotlar avlodlari), slavyanlar va boshqa millat vakillarining say-harakatini birlashtirish tadbirida yashiringan edi. Ularning barchasi Yaqin Sharqda XI asrda boshlangan madaniy tanazzul boshlangandan keyin ham gullab-yashnab ravnaq topaverishda davom etgan arab-musulmon madaniyati mahalliy varianti shakllanishiga o`zlarining betakror hissalarini qo`shdilar.

Ispaniyaning bosib olingan viloyatlarida arablar Markaziy Osiyo, Eron va Iroqdan ko`ra tubdan farq qiluvchi siyosat olib bordilar. Agar yuqorida zikr qilingan joylarda arablar aslzoda mulkdor tabaqalarning shakllanishiga asos solgan bo`lsalar, Ispaniyada mavjud feodal munosabatlar va quldorlikning qoldiqlarini tugatishga yordam berdilar. Ularning bu ishi turli millat vakillarining bir-biri bilan yaqinlashishiga olib keldi. Ispaniyaning o`rta asrlardagi mashhur yozuvchisi Blasko Ibanes bu haqda shunday yozadi: “Uyg`onish Ispaniyaga shimoliy varvarlar bilan birgalikda shimoldan emas, balki arab istilochilari bilan birgalikda janubdan kirib keldi. Bu yurish bosqinchilikdan ko`ra, madaniylashtirish yurishi edi... U bizga Vizantiya ilmlari, fors va Hindistonning buyuk an`analarining eng yaxshisini o`zida mujassamlashtirgan madaniyatni olib keldi...”¹⁰⁰.

Arab Ispaniyasida din, e`tiqod masalasi hal qiluvchi rol o`ynamagan. Hamma shahar, tuman va qishloqlarda masjid va cherkovlar bimalol yonma-yon ish olib borganlar. Islomni qabul qilgan ispanlarni “muvallad” yoki “morisk” deb ataganlar, ular soliqlardan ozod qilinganlar. Asrlar o`tishi bilan Ispaniya aholisi hoh xristian, hoh musulmon bo`lsin, islom tufayli Yevropada shakllangan madaniyat tashuvchisi bo`lganlar.

VIII asrning ikkinchi yarmidanoq arab va ispan xalqlari o`rtasida do`stona munosabatlar o`rnatildi. Har ikkala millat va din vakillari orasida oila qurishlar, ispanlar tomonidan islom dinini qabul qilishlar odat tusiga kirdi. Ispanlar ham arab harbiy kuchlari qatorida xizmat qildilar, davlat idorasida ishtirok etdilar,

¹⁰⁰ Григорян С.Н.Средневековая философия народов Ближнего и Среднего Востока. –М., 1966. ст 251.

arab liboslari kiydilar, arablarning urf-odati, hayot tarzini o`zlashtirdilar. Hatto tasbeh o`girishni ham qabul qildilar. Bu odat keyinchalik xristian diniga ham o`tdi. Ispanlar sekin-asta milliy xususiyatlarini yo`qotdilar, natijada yerli xalq bilan istilochilar orasida faqat e`tiqodda farq qoladi, xolos. Bunday ispanlarni “mosarab”, ya`ni “arablarga o`xshaganlar” deb ataydilar. Mosarablar hamma vaqt mamlakat aholisining kamida 20 %ini tashkil etib kelgan. Ular bilan birgalikda umrguzaronlik qilish al-Andalus musulmonlariga (arablar, barbarlar, muvalladlarga) ham, arab tilida so`zlashgan va yozgan yahudiylarga ham, faqatgina roman tilini biluvchi xristianlarga ham ta`sir o`tkazgan edi (roman tili xatto Kordovadagi xalifalar saroyida qabul qilingan edi).

Ispan xristian qirollari arab-musulmon madaniyati ta`siriga qarshilik ko`rsatish o`rniga o`zlari ham bu ta`sirdan chetda qolmaganlar. Tarixchi Ibn Xayyanning yozishicha, Kastiliya hokimi Sancho chodiriga kirgan musulmon shunday holatni ko`radi: “Uni so`ri ustida ko`rpachalar, yostiqlarga suyangan holda, musulmonlarga o`xshab kiyingan holatda ko`rdik, faqat boshi ochiq edi, xolos”. Hatto ispan xalqining milliy qahramoni istilochilarga qarshi kurashib qolmay, arablar tomonidan turib adolatsiz ispan qirollariga ham qarshi jang qilgan. Keksayib jangdan chetlangan davrda esa sharqona hayot kechirgan.

Al-Andalus madaniyatining ajoyib va betakror ravnaqi turli davrlarda kuzatiladi. Ulardan birinchisi Qurdoba amirligi yuksalishi (756-929-yillar) bilan bog`liq bo`lib, keyin esa Qurdoba xalifaligi (929-1031-yillar) ravnaqiga tayangan.

Abdurahmon II al-Mutavassit hukmronlik qilgan yillar (822-852) arab Ispaniyasining ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham madaniy jihatdan qudrati oshgan davr edi. Bu davrda arab Ispaniyasi yaxlit bir davlat bo`lib, ispan Ummaviylari davlat tuzumi, obodonchilik va shaharlar qurish, urf-odat, madaniyatda avvalgi poytaxt Damashq hayotidan ibrat oladilar va o`zlarini Ummaviylar sulolasi va an`analarining davomchisi deb biladilar.

Abdurahmon II adabiyot, san`at, astronomiya va umuman ilm-fanning muxlisi bo`lib, Al-Andalusda madaniyatning ravnaq topishiga katta hissa

qo`shgan. Islom dunyosining turli mamlakatlari – Movarounnahr, Eronga vakillar yuborib, noyob qo`lyozmalarni oldirtiradi, imkoni bo`lmagan chog`da ulardan ko`chirmalar buyurtiradi, yunoncha asarlarni arab tiliga o`girishni uyushtiradi. O`z saroyiga ko`zga ko`ringan olim, shoirlarni jalb etadi. Amir Abdurahmon II saroyida o`nlab xattotlarni to`plab, ularga kitoblar ko`chirishni topshiradi. Natijada Ispaniyada arab tilida yaratilgan asarlardan tashqari, yunon tilidan tarjima qilingan Gippokrat, Aristotel, Platon, Yevklid, Galen, Ptolemey kabi olimlarning asarlari ham to`planadi. Movarounnahrda yaratilgan yoki tarjima qilingan ilmiy, badiiy asarlar ham tez fursatda Al-Andalusga borib yetgan.

IX asrda yashagan qo`shiqchi va bastakor Ziryab mashhur xalifa Horun ar-Rashid saroyida xizmat qilgan. Asl ismi Abul Hasan Ali ibn Nafi bo`lgan san`atkor 822-yilda Abdurahmon II ning taklifi bilan Qurdobaga kelgan (u bu yerda vafotiga qadar ya`ni 857-yilgacha yashagan). Ziryab o`zi bilan Al-Andalus madaniy hayotiga katta o`zgarishlar olib keldi va Yevropa xalqlarining arab-musulmon madaniyatiga bo`lgan qiziqishini yanada kuchaytirdi. Bu yerda u bir qancha sharqona yangiliklarni – hayot tarzi, rasm-rusum, taomlar, kiyinish, bazm, urf-odat, san`atda Sharq mamlakatlariga xos modani targ`ib etdi. Jumladan, mavsumga moslab kiyinishni, bazm dasturxonlarida nozik va nafis shisha idishlar, oltin yoki kumush idishlarga nisbatan chiroyli turishini, dasturxonga taomlarning ketma-ket qo`yilish tartibini Ziryab joriy qilgan. U. Mongomeri Uottning “Islomning o`rta asr yevropasiga ta`siri” asarining muharriri falsafa tarixining mutaxassisi, professor A.V. Sagadeyev shunday deb yozadi: “Ziryab avval suyuq taomlar, keyin go`shtlik ovqatlar, keyin qushning ziralangan go`shti va nihoyat, ziyofat shirinliklar, pishiriqlar bilan tugaydi deb o`rgatgan”¹⁰¹. Haqiqatan, Ziryab kiritgan qoida hozir ham ko`pchilik xalqlar tomonidan qo`llanib kelinmoqda. Umuman, yevropaliklarning o`sha davrdagi taomida haqiqatan turli xillik bo`lmagan, ayniqsa, qishda tuzlangan go`sht va tuzlab quritilgan baliqdan boshqa taom bo`lmagan.

¹⁰¹ Монгомери У.У. Влияние ислама на средневековую Европу. –М.: «Наука», 1976, ст 45.

Shuningdek, Ziryab Kordovada go`zallik korxonasi ham ochdi. Ziryab amalga oshirgan ishlarning yana biri Kordovada musiqa, qo`shiq va raqs maktabining ochilishi edi. San`atkorning bu faoliyati faqat arablar Ispaniyasi uchungina emas, balki unga chegaradosh boshqa mamlakatlar adabiyoti va umuman madaniy hayoti uchun katta ahamiyatga ega edi¹⁰².

Ta`kidlash kerakki, shundan so`ng arab-musulmon madaniyati va urf-odatiga bo`lgan qiziqish Ispaniyada anchayin kuchayadi. Ispan qirollari saroylarida ayniqsa, xonimlar sharqona hayotga juda havasmand bo`lishgan. Biror odam arablar tomonidan kelganini bilib qolsalar, Sharq xonimlarining kiyim-kechaklari, bezaklari, modalar haqida surishtirganlar.

Abdurahmon II davrida islom yurtlari va qo`shni xristian mamlakatlari bilan iqtisodiy, madaniy aloqalarni yo`lga qo`yilgan. Ayniqsa, dengiz savdo yo`llari keng rivoj topgan, O`rtayer dengizidagi kemalarning ko`pchilik qismi ispan arablari qo`lida bo`lgan. Ispaniyada tayyorlangan zebu-ziynat buyumlari, gilam, mo`yna, charm, qog`oz, oltin, kumush idishlar dengiz savdogarlari orqali jahonga tarqalgan.

Ilmiy adabiyotlarni qidirib topish maqsadida, Holid Hakam II al-Mustansir (961-976) buyrug`iga muvofiq, Qurdobadan Markaziy Osiyo, Eron va Iroqning qadimgi markazlariga safarlar uyushtirildi. Qurdobaga dunyoning barcha o`lkalaridan kitob boyliklari to`plana boshladi. Holid Hakam II ning mashhur kutubxonasi xazinasida* 400 ming jilddan ziyod qo`lyozma asar saqlanardi. Solishtirish uchun qayd etish lozimki, bundan 400 yil keyin Fransiya qiroli Dono Karl o`z kutubxonasida zo`rg`a 900 jildlik kitob to`plagan edi, xolos. Kitoblar ishqivozi bo`lish musulmon Ispaniyasida haqiqiy havasga aylangan edi. X asr oxirida Ispaniyada yashagan xristian mualliflaridan biri yozgan edi: “Xristian yoshlaridan eng ko`zga ko`ringanlari arab tili va adabiyotidan boshqa narsani bilmaydilar; ular berilib arab kitoblarini o`qiydilar va o`rganadilar; ular katta

¹⁰² Сулаймонова Ф. Шарк ва Ғарб. -Т.: “Ўзбекистон”. 1997, 263 бет.

* Qurdobadagi Holid Hakam II kutubxonasining bir qismi muvaqqat hukmdor An-Mansur ibn Abu Amir tomonidan X asr oxirida islom xurofoti doiralariidan cho`chigani uchun ataylab yo`q qilingan bo`lsa, asosiy qismi XVI asrda dindorlarning va qirollarning arabcha kitoblarni yo`qotish haqidagi buyrug`iga binoan kuydirilgan.

pullar evaziga butun boshli kutubxonalar tashkil etib, hamma joyda arab ilmlarini ko`klarga ko`tarib maqtaydilar. Ikkinchi tomondan, agar xristian kitoblari eslatilsa, ular mensimaslik bilan, go`yo bunday asarlar e`tibor berishga arzimasligini aytadilar”.

Al-Andalusiyaning poytaxti Qurdoba (Kordova) o`sha vaqtdagi zamondoshlar tomonidan “dunyo durdonasi” va “fanlar maskani” deb ataldi va X asrdayoq Yevropa shaharlari ichida eng boylaridan biri edi. Qurdoba shahri ilm-fan va madaniyat sohasida shunchalik ilgari ketdiki, o`rta asr Yevropa shaharlari u yoqda tursin, hatto xalifalikdagi boshqa shaharlarni ham unga tenglashtirib bo`lmasdi. O`rta asrlarda Qurdoba Yevropa qit`asining eng ilg`or shahri, tom ma`nodagi poytaxti, ilm-fan markazi sanalardi. Saroylar, ibodatxonalar, kasalxonalar, kutubxonalar, maktab va universitetlar, shahar ko`chalarining Yevropada birinchi bor yorug`lik bilan ta`minlanganligi uni boshqa shaharlardan butkul ajratib turardi. O`sha kezlarda Kordovada 70 ta kutubxona mavjud bo`lib, bu ma`rifat dargohlarida har yili 18 ming kitob ko`chirilardi, odatda bitta kitob bir necha asarlarni o`z ichiga olardi. IX-X asrlarda Qurdoba shahri Yevropadagi eng chiroyli, eng katta shahar hisoblanardi. Shahar toza ichimlik suvi bilan ta`minlangan. Shahar aholisi esa, keng uylarda istiqomat qilishgan. Kordova savdo-sotiq, ishlab chiqarish, qurilish, siyosiy va ma`naviy hayotda peshqadamlik qilgan eng ajoyib shahar maqomiga ko`tarilgan edi.

Arab tilining keng yoyilishi. Ispanlarning arablashuvi shu darajaga borib yetadiki, hatto xristianlarning muqaddas kitobi Yevangeliyani Sevilyaning yepiskopi Ioann arab tiliga tarjima qiladi, chunki ispanlarning asosiy qismi boshqa tilni tushunmaganlar, xristianlik duolarini arab tilida o`qiganlar. Bu voqea qachon yuz bergani hali fanda aniqlanmadi, taxminlarga ko`ra, X asrdan kech bo`lmas kerak. Cherkov hujjatlari, tug`ilgan-vafot etganlar ro`yxati ham arab tilida olib borilgan.

Arabcha so`zlar, arab tili elementlarini hozirgi zamon ispan tilida, ayniqsa, toponimikasida ko`plab topish mumkin: Gvadalkvivir – al-Vadi-l-kabir,

Gvadalaviar – al-Vadi-l-abyyad, Almodovar – al-Mudavvar, Isnaxar – Xisn al-xajar, Medinaseli – Madinat Salim, Kalatayyud – Qal`at Ayyub, Albasete – al-Vosit kabi joylar, daryolar nomlarini ko`plab uchratish mumkin. Hatto biror tumanning hokimi nomini haligacha “alkald”, ya`ni “al-qodi” (qozi), “uy” so`zini arabcha “albanil” deb ataydilar.

Ispaniyada arab tili faqat islom tili bo`lib qolmay, ilm-fan, she`riyat tili ham bo`ldi. Bu til millionlarning jonli tili, xalifalikni tashkil etgan o`nlab xalqlar bir-biri bilan aloqa vositasiga aylangan til edi. To`g`ri, xristian dunyosining ham lotin tili birlashtirgan, ammo lotin tili o`rta asrlarda o`lik til holida edi. Til mushtarakligi jarayonida xalqlarning iqtisodiy-madaniy aloqalarini osonlashtirish, taraqqiyotni tezlashtirishga olib keldi. Yevropa xalqlari orasida, xususan, ispanlarda maqol, matallar, ayniqsa ko`p. Masalan, 1549-yili yozilgan asarlarda 4300 ta maqol va matallar borligi qayd qilingan. Ispan tilida maqol-matallarning ko`pligini olimlar arab tilining ta`siri deb biladilar.

Al-Andalus adabiyoti. Ispaniyadagi arab tilidagi she`riyatda arab yarimorolida qadim davlatlarda shakllangan badaviy she`riyati an`anasi davom ettirilib, shoirlar umrida ko`rmagan cho`l-u biyobon, qum barxanlari, tuya obrazini she`rlariga kiritadilar. Keyinchalik, X-XI asrlarda bu qadimiy an`anaviy timsollar juda kamayadi, endi ko`proq go`zallik, hayotni kuylash, homiylik qiluvchi hokimni madh etish, ko`pincha uni mahbuba sifatida nazarda tutib, unga o`z sadoqatini izhor qilish kabi Sharq she`riyatiga xos xususiyatlar qo`llanadi.

Arab Ispaniyasida klassik arab she`riyatiga tafsirlar yozish holatini ham ko`ramiz (XI asrda Kordovada al-Ifliliy ismli o`qituvchi Mutanabbiy she`riga yozgan tafsiri bunga yaqqol misol). Ispaniyadagi arab shoirlari ajoyib poetik asarlar ham yaratganlar. U she`rlar mazmun boyligi, turliligi bilan xarakterlanadi: tabiat go`zalligi, muhabbat, mahbubaning go`zalligi, do`stlik, madhiya, satira, hayotdan zavqlanish yoki uning alamlaridan zorlanish va hokazo.

Ispaniyada Qur`on, Muhammad al-Buxoriyning hadislar to`plami kabi diniy asarlar qayta-qayta ko`chirilib, Qur`onga tafsirlar yoziladi, arab tili grammatikasi (Ibn Malik, “Alfiya”), lug`atlar tuziladi (Ibn Sidaning 17 jildlik “al-Muxassas”

lug`ati), adabdan ham qator asarlar yaratiladi (bular orasida eng ahamiyatlisi Ibn Abu ar-Rabbihiyning “Al-Iqd” risolasi). Abu Bakr at-Turtushiyning mashhur “Siroj al-muluk” risolasi, Haririyning “Maqomlar”i ham shu davrda Ispaniyada yaratilgan edi. Umuman arab adabiyoti, falsafasi, fanining taraqqiyotida arab Ispaniyasi ijodkorlarining hissasi katta bo`lgan.

Ispaniya adabiyotida nasihatomuz (didaktik) xarakterdagi hikoyalar to`plamlari ham ko`plab yaratilgan. Bunga sabab ushbu mamlakat xalqlarining ijtimoiy va madaniy taraqqiyot darajasida shu janrga ehtiyoj bo`lganidan. Ko`p asrlar davomida turli Sharq xalqlari bilan yonma-yon yashagan ispan xalqi psixologiyasi, madaniy taraqqiyot darajasi, ma`naviy talabi jihatidan Sharq xalqlariga yaqin edi. Yevropalik olimlarning bunday ruhiy yaqinlikni tan olmasliklariga qaramay, Sharq adabiyoti an`anasi boshqa Yevropa mamlakatlariga qaraganda Al-Andalusda keng ildiz otdi. Ispan hikoyasiga xos bo`lgan nasihatgo`ylik xarakteri keyinchalik Yevropa mamlakatlarida yaratilgan hamma nasriy asarlarda ham o`z aksini topdi.

Musulmon Ispaniyasida yaratilgan odob-ahloq haqidagi asarlar orasida eng mashhuri Abu Bakr at-Turtushining (1069-1130) “Siroj al-muluk” hikoyatlar to`plamidir. Tazkiralar orasida Abul Valid al-Himyariyning (1026-1084) bahor va gullarga bag`ishlangan tazkirasi ispan-arab adabiyoti tarixida alohida o`rin egallaydi.

Ispan arab adabiyotida eng past tabaqadan chiqqan ayyor, aqlli, tadbirkor shum bola sarguzashtlari tasvirlanadigan, saj usulida yoziladigan hikoyachilik, qissachilik ham shakllanadi. Bu turdagi dastlabki asarlarning muallifi Badi al-Zamon al-Hamadoni (969-1008) edi. Keyinchalik bu janr keng tarqaladi. Bular orasida eng xarakterlisi al-Haririyning (1054-1122) “Maqomat” to`plami deyish mumkin.

Ispaniyada rivojlangan nasriy adabiyot vakillarining eng buyugi qurdobalik Abu Muhammad Ali ibn Ahmad ibn Hazm (994-1064; olim Yevropada Abenhazam nomi ostida tanilgan) bo`lib, uning birinchi asari “Toukal-hammana” (“Kabutarlarning zebigardoni”) barchani hayratga soladi. Chunki asar ishq

masalasiga bag`ishlangan bo`lib, asosiy qism ishqiy mazmundagi g`azallar, hikoyatlar, saroylar va haramlar hayotidan olingan epizodlar bilan boyitilgan edi. Asarni o`qir ekanmiz, o`zimizni xuddi Al-Andalusda bo`lgandek his etamiz. Risolada adib o`z diqqatini asar mazmunidan ko`ra ko`proq, uslubi va tiliga qaratgan. Asarning yagona qo`lyozmasi Leyden kutubxonasida saqlanadi.

Al-Andalusda maorif. Arablarda maorif ishlari ham ancha yuqori saviyada edi. 794-yiliyoq arablar ispanlar uchun ko`plab arab maktablari ochdilar. Ispaniyaning eng qoloq viloyatlarida ispan va arab bolalari uchun o`nlab maktablar faoliyat yuritgan. Xususan, Al- Hakam II al-Mustansir (961-976-yillar) Qurdobada kambag`allarning bolalari uchun davlat hisobidan 27 ta maktab tashkil qilgan.

Ta`kidlash joizki, Ispan Ummaviylari progressiv siyosat olib borib, turli e`tiqoddagi fuqarolarning hayot darajasini oshirish, madaniyatini ko`tarish, aholini yoppasiga savodli qilish borasida anchagina ishlar qilganlar. Arablarning Ispaniyada arab va ispan tilida ta`lim beruvchi yuzlab maktablardan tashqari oliy o`quv yurtlarini ham ochganliklari fikrimiz isbotidir. Ularning dastlabkisi IX asrda Kordovada tashkil etildi. IX-XIII asrlarda ilmga chanqoq yevropalik yoshlar Ispaniyaga kelib avval til, madaniyatning umumiy elementlarini o`zlashtirib so`ngra madrasalarda ta`lim oladilar. Ispaniyadagi arab universitetlarini tamomlab vatanlariga qaytganlarni “mag”, ya`ni hamma bilimlardan xabardor deb ataganlar. U davrdagi madrasalar bizning tushunchamizdagi oliy diniy o`quv yurti bo`lmay, haqiqiy universitetga yaqin turgan. Ta`lim maskanlarida ilm-fanning turli sohalariga doir eng so`nggi yutuqlardan bilim berilgan. Kordova universitetlaridan keyin birin-ketin Sevilya, Salamanka, Toledo, Valensiya va Granada universitetlari ochilgan. Ma`lumot o`rnida aytish kerakki, G`arbiy Yevropada dastlabki universitetlar XII–XIII asrlarda Italiya (Neapol, Bolonya), Fransiya (Parij, Tuluza) va Angliyada (Oksford, Kembridj) tashkil etiladi.

Arablarning aholini yoppasiga savodli qilishga urinishi, buning uchun maktab va oliy o`quv yurtlarini tashkil qilinishi Al-Andalusiyada ilm-fan taraqqiyotiga zamin hozirladi.

Al-Andalusda ilm-fan rivoji. IX-XI asrlarga kelib Ispaniyada ham Eron, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, adabiyotiga qiziqish jarayoni boshlanadi. Movarounnahrda chiqqan olim, faylasuflar asarlarini axtarib topish, ularni o`rganish, sharhlar yozish keng ko`lamda olib boriladi. Bu borada, ayniqsa, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino asarlariga qiziqish katta bo`lgan. Adabiyotda ham fors tilidagi adabiyot, ayniqsa, odob mavzuidagi kitoblar va she`riyat an`analarini, forsha iboralarni ispan-arab she`riyatiga olib kirish hollarini uchratamiz (Ibn Abu ar-Rabbihiy – “al-Iqd al-Farid”) 262b.

XI asrdan boshlab Qurdoba, Malaga, Grenada, Toledo va boshqa shaharlarda Qadimgi Yunoniston, Markaziy Osiyo, Fors, Suriya va arab mutafakkirlarining asarlarini arab tilidan lotin tiliga tarjima qila boshladilar. Bu ish yevropaliklar uchun birinchi marta Yunoniston, Markaziy Osiyo, Eron va Hindistonning boy aqliy madaniyati to`g`risida to`la tasavvurga ega bo`lishga imkon yaratdi. Arablar Kordovada birinchi bo`lib katta rasadxona qurdilar, meridian gradusini o`lchadilar, ekliptika og`ishini, quyosh va yulduzlar yili o`rtasidagi farqni aniq hisobladilar. Arab jug`rofiydonlari va astronomlari xristian cherkovi ilohiyotchilari tomonidan rad etilgan Yerning doiraviyligi nazariyasini qo`llab-quvvatladilar.

Al-Andalus madaniyati Sharq bilan aloqalardan ham, mahalliy an`analardan ham va Yevropa ta`siridan ham oziqlangan edi. Xuddi Mashriq zamindagi kabi Al-Andalusiyaning deyarli barcha olimlari va madaniyat arboblari nihoyatda rang-barang sohalardagi bilimlar va mashg`ulotlarni qo`shib, uyg`unlashtirib olib borgan holda ensiklopedik bilimga ega bo`lgan ziyolilar sanalishardi.

Al-Andalus geograflari butun dunyoga tanilgan: al-Bakriy (1094-yilda vafot etgan), al-Idrisiy (1100-1165), al-G`arnotiy (1080-1170). Geograf, adib va sayohatchi Ibn Jubayr (1145-1217)ning buyuk xizmatlari bor. Ko`plab geograflar “tarix kishilari” (“ahl at-tarix”) tabaqasiga ham kirgan bo`lib, ular orasida Ibn

Habib, Ibn Alqama, yevropaliklarga “Mavr Razis” tarzida ma`lum bo`lgan Ahmad ar-Roziy (888-955) eng ko`zga ko`ringanlari edi. Ibn Hayyan (987-1076), Ibn Bassam (1087-1147), Ibn Bashkual (1101-1182) eng yirik tarixchilardan bo`lishgan¹⁰³.

Al-Andalusiyada ayniqsa, kimyo, fizika va matematikaga doir bilimlar yuqori darajada rivojlangan edi. Savdo-sotiq va hisob-kitob ehtiyojlari Yevropada arab raqamlaridan foydalana boshlanishiga olib keldi (keyingi Arab-musulmon madaniyatining Yevropaga ta`siri mavzuimizda bu haqda batafsil to`xtalib o`tamiz). Matematik va kimyogar shuningdek, astronomiya va geometriya to`g`risidagi asarlar muallifi Asboh ibn Muhammad (1035-yilda vafot etgan), Amr ibn Kirmoniy (1066 yilda vafot etgan), “misqol” (vaqtni o`lchash uchun mo`ljallangan asbob) ixtirochisi Abbos ibn Firnas nomlari XI asrdayoq Yevropada mashhur edi.

XI asrda Al-Andalusiyada yashagan Ibn al-Xaysam (Yevropada Alxazen deyishgan) optika* muammolarini ishlab chiqdi. Ko`zning tuzilishini ta`riflash unga mansubdir. Kimyo sohasida musulmonlar G`arbga tozalash usuli (distillyatsiya), qattiq jismni bevosita bug`ga va aksincha bug`ni bevosita qattiq jismga aylantirish, tashqi ko`rinishi to`g`ri ko`p qirrali shakldagi qattiq jismlarni qotishtirish, koagulyatsiya jarayonlarini berdilar va quyidagi yangi mahsulotlar olish yo`lini ko`rsatdilar: kaliy, ammiak, azot kislotasi, tilla suvi ya`ni oltinni eritadigan suyuqlik (azot va tuz kislotasi aralashmasi), texnika va tabobatda ishlatiladigan achchiq xrom simobi. Ular Yevropa taomiliga magnit ninasi, multiqdori (porox), suv va mexanik soatlar, paxta va zig`irpoyadan yasaladigan qog`ozni kiritdilar. Uzoq vaqt davomida Ispaniyada arab tabiblari shak-shubhasiz katta obro`ga ega bo`ldilar, keyinchalik esa ularning asarlari Yevropada eng kerakli kitoblar hisoblanadi.

Musulmon olimlarining aqliy va tanqidiy ruhi va nafaqat ilmiy tabiatshunoslik fanlarida, balki falsafiy muammolar sohasida ham o`zini

¹⁰³ Ланда Р.Г. История арабских стран. Восточный университет. М.: 2005, стр. 88.

* Fizikaning yorug`lik hodisalari va uning qonunlarini tekshiradigan bo`limi.

namoyon etdi. “Yangi harakatda eng koʻzga koʻringan oʻrin faylasuflarga taalluqli ediki, - deb yozadi ingliz arabshunosi X.Gibb, - ularning taʼsiri Ispaniya hududlaridan uzoqlarga yoyilib, ehtimolki, Yevropa tafakkuriga xiyla chuqurroq iz qoldirdi”. Ispaniyada ijtimoiy fanlar orasida, ayniqsa, falsafa rivojlangan. Al-Andalusda faoliyat yuritgan Ibn Bajja, Ibn Tufayl hamda Ibn Rushdning barakali ijodi natijasida falsafa fani ham taraqqiy etdi.

XI asr oxirida Saragosa shahrida dunyoga kelgan Abu Bakr ibn Yahyo ibn as-Sayva ibn Bajja (vafoti 1138; oʻrta asr Yevropa manbalarida Avampache) falsafa bilan bir qatorda tabobat, geometriya va astronomiyaga oid risolalar yozib qoldirdi. Uning falsafaga oid “Xilvatga chekinganning hayot tarzi”, “Insonning faol aql bilan qoʻshilishi haqida”, “Xayrlashuv maktabi”, “Uzlatdagi hayot tarzi haqida”, “Jon haqida” kabi risolalari mashhurdir. Ibn Bajja insonlar yashaydigan jahonnigina yagona haqiqiy olam, deb bildi va undagi ijtimoiy tuzumni aql asosida boshqarishga chaqirdi. Uning fikricha, insonning oʻz tavbatida uning axloqiy hatti-xarakati yotadi. Aql vositasida boshqariladigan jamiyat, erkin faoliyat boʻlib, aqlga muvofiq keladigan maqsadni vujudga keltiradi. Ibn Bajjaning musiqa sohasidagi risolalari Gʻarbda yuksak baholangan. Uning musiqiy qarashlari ham oʻziga xos edi. Ibn Bajja fikricha, kuylar oʻz kelib chiqishlariga koʻra, inson nutqining ohang boyliklari hamda kishilarning hamma narsada uygʻunlik va yoqimlilikka intilish oqibatidir.

Shuningdek, 1110-yilda Grenadada tavallud topgan Abu Bakr Ibn Tufayl (Yevropada Abubaser deyishgan) hamda 1126-yili Qurdoba (Kordova) tugʻilgan Abul Valid Muhammad binni Ahmad ibn Rushd (Yevropada Averroyes nomi bilan mashhur) falsafa, tabobat, riyoziyot, astronomiya kabi fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qoʻshishdi. Biroq, tadqiqotimiz ushbu allomalar yashab ijod qilgan davr (XII asr)ni oʻz ichiga olmagan uchun ularning faoliyatiga batafsil toʻxtalmaslikni lozim topdik.

Ispan arablari xalifalikning turli viloyatlarida yaratilgan fan yutuqlarini imkon boricha oʻzlashtiribgina qolmay, keyingi asrlar (XII-XIII)da uni

boyitishga ham o`z hissalarini qo`shganlar (Ibn Rushd, Ibn Tufayl, Ibn Xazm, al-Arabiy va boshqalar).

Ispaniya yahudiylari (Avisebron, Galevi, Maymonid, Ibn Zakvel va boshqalar) ham arab-musulmon madaniyati va ilm-fanini takomillashtirishga o`z hissalarini qo`shganlar (257-b). Shu o`rinda arab-musulmon madaniyati, fanining Yevropada tarqalishiga ham Yevropa, ham Sharq mamlakatlarida istiqomat qiluvchi yahudiylarning ulkan hissasini alohida ta`kidlash joiz. Al-Andalusiya xalifalari va amirlari yahudiy millati vakillariga mamlakat darvozasini keng ochib berdilar. Ular bu davlatda boshqa xalqlar bilan teng huquqli bo`lib yashadilar. Bu holat ularning savdo-sotiqdan tashqari, ilm-fan, ijodiyot bilan shug`ullanishlariga imkoniyat tug`dirdi.

Ispan yahudiylari ona tilidan tashqari arab, lotin va ispan tillarini ham yaxshigina bilganlar. Ular tarjimonlik faoliyati bilan mashg`ul bo`lishgan. Tarjimonlarning mashaqqatli mehnati natijasida fan sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan musulmon olimlarining ko`plab ilmiy asarlari hamda arab adabiyotining betakror namunalari arab tilidan lotin yoki ispan tillariga o`girilgan. Shuningdek, yahudiylarning o`zlari ham ilmiy, falsafiy, badiiy asarlar yaratar ekanlar, Sharq fani, falsafasi va badiiy asarlari ular uchun namuna bo`lib xizmat qildi. Musulmon olimlari, adiblar ularga ustozlik vazifasini o`tdilar. Yahudiylarning buyuk olimi Moshe ibn Maymonid o`zini buyuk musulmon olimlarining shogirdi hisoblagan va asarlarini arab tilida yozgan.

Me`morchilik. Kordova shahrining faxri sanalmish Katta masjid (Ummaviylar masjidi deb ham yuritiladi) Al-Andalus me`morchiligining bebaho namunasi hisoblanadi. Ushbu me`moriy yodgorlik islom olamidagi eng katta ibodatxona bo`lib (180x130 metr), bugun ham o`z go`zalligi bilan kishilarni lol qoldiradi. Uning qurilishi Abdurahmon I ad-Doxil davri (756-788-yillar)da boshlangan edi. Abdurahmon II al-Mutavassit davri (822-852-yillar)da qurilish miqyosi yanada kengaytirildi. Abdurahmon III an-Nosir davri (912-961-yillar)da esa masjid minorasi bunyod etildi va nihoyat Al-Hakam II al-Mustansir (961-976-yillar) davrida ham masjidga katta qurilishlar amalga oshirildi. Masjid

binosining markaziy qismi kafedral sobor uchun joy ochish maqsadida olib tashlandi, lekin X asr oxirida ham uning asosiy qismi o`zgarishsiz qoldi¹⁰⁴.

Masjid shahar markazida bunyod etilgan bo`lib, uning eng qadimiy qismi o`zida yangi me`morchilik an`anasini mujassam etadi. Arxitekturasi juda mukammal ishlangan va hozirga qadar uning hech qanday o`xshashi topilmadi, faqatgina ummaviylar va suriyaliklar qurilishiga xos ba`zi bir elementlarni uchratish mumkin. Masjidning 4 ming marmar ustun (kolonna)laridan ko`pchiligi (1 mingdan ziyodi) Vizantiya, Fransiya va Tunisdan keltirilgan edi¹⁰⁵. Masjidda keng ko`lamda foydalanilgan arka vestgot arkasidan o`zlashtirilgan bo`lsa, qo`shaloq arka balandlik imkoniyatini yanada oshirib o`zida mutlaqo yangi me`morchilik namunasini namoyon etadi. Musavvirlikning eng yuksak namunalari Al-Hakam II davriga tegishli deb tan olinadi. Ayniqsa go`zal arkalar va mehrob atrofida bezatilgan naqshlar tahsinga loyiqdir. Arkalar go`zal bezaklar bilan yasatilgan, mehrobgga ishlangan naqshlar esa Makkaga yo`nalish ko`rsatib turardi.

Yana bir ajoyib san`at namunasi shahar-qal`a bo`lgan Madinat az-Zahra hisoblanadi. Bu go`zal obida vayron bo`lib, 1013-yildan uning aholisi qal`ani tark etib ketgan bo`lsa-da, shahar xarobalari topilib, qaytadan ma`lum qismi restavratsiya qilindi. Shu bois biz hozir shahar-qal`a qanday ko`rinishga ega bo`lganini yaqqol tasavvur qilishimiz mumkin.

Shahar aholi yashashi uchungina bo`lib qolmay, tez orada birinchi xalifaning o`zini namoyon qilish vositasiga aylandi. Uni betakror go`zal shaharga aylantirish uchun barcha say-harakat amalga oshirildi. Shaharning loyihasi va bezaklari Rim va Vizatiya an`analarini o`zida saqlab qolgan. Balki buning uchun Kordovadan vizantiyalik haykaltaroshlar olib kelingandir. Al-Hakam II vizantiyalik mozaika ustalarini olib keltirgan degan ma`lumotlar ham bor¹⁰⁶.

Mahalliy hukmdor Abu Ja`far al-Muqtadir (1049-1081-yillar) tomonidan barpo etilgan Saragosadagi Alxoferia saroyini X asr yodgorliklari bilan qiyoslar

¹⁰⁴ Уотт У.М., Какиа П. Мусульманская Испания -М.: Издательство «Наука». 1976, 79 бет.

¹⁰⁵ Ланда Р.Г. История арабских стран. М.: Восточный университет. 2005, ст. 90.

¹⁰⁶ Уотт У.М., Какиа П. Мусульманская Испания -М.: Издательство «Наука». 1976, 80 бет.

ekanmiz, bezaklarga qizg`ish tus berish ortib borganini guvohi bo`lamiz. Saroyning arklari dandanalar (kunguralar) bilan alohida-alohida ajratilgan, ularga tushirilgan geometrik naqshlar nihoyatda murakkab va ayni paytda betakror hamdir. Naqshlar shunday ishlanganki, bir-biridan yaqqol farq qilib turadi. Shuning uchun naqshning ba`zi elementlari sathdan bo`rtib ishlangan, jim-jimador, bezaklar esa bir-birini takrorlamaydi. Bularning hammasi ummaviylar davri san`atining Al-Andalusda nihoyatda taraqqiy etganligidan darak beradi¹⁰⁷.

Al-Andalus arxitekturasi ta`sirida dunyoga kelgan “ispaniya-mavritaniya” me`morchilik uslubi butun O`rtayer dengizi havzasiga va Lotin Amerikasiga keng tarqaldi.

Al-Andalusda san`at. Odatda san`atni o`rganish tarixchi faoliyatining chegaralaridan tashqarida bo`lsa ham, Musulmon Ispaniyasiga nisbatan san`atshunos-mutaxassislar chiqargan xulosalarni e`tiborga olish lozim, chunki musulmon (mavritan) san`atining taraqqiy etishi al-Andalusning adabiy tarixini to`ldirib turadi. 976-yilgacha bo`lgan davr mavritan san`ati shakllanish vaqti (davri) bo`ldi. Bu paytda uning alohida hususiyatlari vujudga keldi, unga tegishli bo`lgan ruh paydo bo`ldi.

Bebaho me`moriy obidalar va mustahkam qal`alar majmuidan tashqari shuningdek, ko`plab mayda buyumlar ham saqlanib qolgan. Jumladan, fil suyagi va marmardan yasalgan anjom. Bu buyum oltin va xrustal bilan yasatilgan edi (bu turdagi bezak Kordovada taxminan 850-yilda kashf qilingan).

Metallarni qayta ishlashning go`zal an`anasi vestgotlardan meros qolgan bo`lsa-da, boshqa hunarmandchilik an`analari musulmon dunyosida rivoj topdi, ular sharq texnologiyalari asosida shakllandi. Mavritan san`ati Sharq va G`arb san`atining mujassamlashuvi bo`lib namoyon bo`ladi, garchi unda alohida xususiyatlarni ajratib ko`rsatish mushkul bo`lsa ham. Tabiiyki, foydalanilgan materiallar va uslublar vestgot davriniki bilan bir xil edi, dekaratsiya elementlari ellin madaniyati ta`sirini eslatib turadi.

¹⁰⁷ Ўша асар, 140 бет.

Aftidan, Musulmon Ispaniyasi san`ati ummaviylar davri Suriya san`atining ko`pgina xususiyatlarini saqlab qolgan ko`rinadi. Hatto Abdurahmon III davrida bunyod etilgan Kordovadagi Katta masjid minorasi xuddi Suriyadagi masjidlardagidek kvadrat shaklda edi.

Faqatgina Abdurahmon III ning vorisi Al-Hakam II ning davriga kelibgina Bag`dod madaniyatining ta`siri seziladi. Bu davrni arab-musulmon madaniyatining o`ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishga urinishlar davri deb atasak bo`ladi.

Ummaviylar Ispaniyada o`rnatgan qudratli davlat uzoq davom etmadi. XI asr boshlarida feodal tuzumiga xos bo`lgan ziddiyatlar, harbiy feodallarning markaziy davlatga qarshi kurashi natijasida Ummaviylar davlati parchalanib, muluk at-tavoiflar vujudga keladi. Biroq, ummaviylarning Ispaniyaga kelishi beiz ketmadi. Hatto, 1492-yili arablarning Ispaniyadagi oxirigi makoni Granada xristianlar tomonidan ishg`ol etilgandan keyin ham arab-musulmon madaniyati, urf-odati, tilidan foydalanish udumi uzoq vaqtgacha saqlanib qoldi.

Darhaqiqat, Al-Andalusiyada arab-musulmon madaniyatining taraqqiyoti san`at va madaniyatning barcha jabhalarini qamrab oldi. Bu haqda uch jildlik "Ispan adabiyoti tarixi"ning muallifi Tiknor "Kordova hayotining eng ajoyib davri 750-yil shaharni arablar bosib olganidan to 1236-yil ispanlar qo`liga o`tkuncha bo`lgan davrda tafakkur, ilm-fan, adabiyot, san`at va umuman madaniyat rivojining shunchalik oliy cho`qqisiga ko`tarilgan ediki, bunday holatni Yevropaning boshqa mintaqasida axtarish umuman be`manilik edi", - deya ta`kidlaydi. Tabiiyki, mintaqa yutuqlaridan chegaradosh Provans (janubiy Fransiya) va shimoliy Italiya ham bahramand bo`ldilar, savdo-sotiq, ta`lim-tarbiya, ilm-fan, adabiyot, me`morchilik va san`at yutuqlari qo`shni chegaradosh mamlakatlarga ham o`tdi va ularni asrlar mobaynida davom etgan O`rta asr uyqusidan uyg`otdi.

Bundan tashqari arablar Ispaniyada sun`iy sug`orish asosiga qurilgan qishloq xo`jaligi va dehqonchilikni yanada takomillashtirdilar. O`sha davrning suv inshootlaridan Ispaniyada haligacha foydalanadilar. Ispan tilidagi sug`orishga

oid leksika arab tilidan olingan. Arablar charxpalak usulini ham olib kelganlar. Ispanlarga arablar orqali shakarpoza, guruch, apelsin, limon, baqlajon, paxta o`stirish, dorivor o`simliklar o`tadi. Arablar Ispaniyaga ipak qurtini ham olib keladilar. Oila, uy, hovli-joy, turli oziq-ovqat mahsulotlari, maishiy hayot, sayohat, hunarmandchilikka oid atamalarni ham ispanlar arablardan olganlar va bu so`zlar ispan tilida haligacha faol muomalada bo`lib kelmoqda.

Arablar dengiz va okeanlarda suzish ishida ham ilg`or edilar. Dengiz xaritalari dastavval arablar tomonidan tuzilgan bo`lib, keyinchalik yevropaliklar ispanlardan olganlar. Kemachilikka oid ko`plab so`zlar xalqaro atamalarga aylangan va haligacha iste`mol etilmoqda (admiral, barqa, barkas va b.). Umuman yevropa ahli yer kurrasining tuzilishi haqidagi ma`lumotlarni Sharq olimlaridan o`zlashtirganlar. XII asrgacha yevropaliklar o`z qit`alaridan boshqa joylarning hammasi musulmonlarga qaraydi, deb hisoblashgan. Faqat Sitsiliya qiroli Vilgelm davri (1154-1166)da Hindiston, Xitoy va Afrika haqidagi ma`lumotlarni saroy olimi arab Idrisiy asaridan biladilar.

Arab Ispaniyasi musulmon dunyosida keng rivoj topgan savdo aloqalarida ham ishtirok etadi. Sharq mamlakatlarining o`zaro savdosi, Sharq mamlakatlari bilan Yevropa mamlakatlari, islom dunyosi bilan Hindiston, Xitoy o`rtasidagi savdo aloqalarida ham ispan arablari va yahudiylari ishtirok etadilar. Savdo, iqtisod, bojxonaga oid so`zlar arablardan o`tgan va haligacha ishlatilib kelinmoqda. Agar Yevropadan Sharqqa xom ashyo, qurollar borsa, Sharqdan Yevropaga hashamatli, shukuhli hayot buyumlari, madaniyat mahsullari, qimmatbaho matolar, attorlik mollari yetkazib berilgan¹⁰⁸.

Xalqlarning bir-biri bilan yaqindan aloqada bo`lishining samarasi qanchalik buyuk ekanini Ispaniya misolida ko`rdik. Arablarning mintaqaga kelishi jahonning yarmini tashkil qilgan xalifalikning bir qismi bo`lishiga olib keldi. Bu jarayon xalifalikni tashkil etgan o`nlab xalqlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va

¹⁰⁸ Сулаймонова Ф. Шарк ва Фарб. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997, 268 бет.

madaniy yutuqlaridan bahramand bo`lishga, natijada Ispaniyaning boshqa Yevropa mamlakatlari orasida keskin rivojlanishiga sabab bo`ldi.

Hozirgi kunda Al-Andalusiya ma`naviy boyligining anchagina qismi Marokash, Tunis, Fes kabi shaharlar kutubxonalari va shaxsiy kutubxonalarda saqlanmoqda. Al-Andalusiyaning ma`naviy boyligi endilikda umuman islom Sharqi xalqlarining bebaho merosiga aylangan.

2.2 Arab-musulmon madaniyatining Yevropaga ta`siri

VII-XI asrlar orasida Ispaniyadan tortib to Xitoy chegaralarigacha bo`lgan xalifalik hududlarida arab tilida yaratilgan ilmiy-falsafiy yutuqlar, texnik va tabiiy fanlar rivoji samarasini o`zlashtirib, hayotga tatbiq etish uchun G`arbiy Yevropa xalqlariga kamida besh yuz yil zarur bo`ldi. Yevropa madaniyati, ilm-fani, falsafasi va adabiyoti rivojini to`g`ri anglab yetish uchun arab-musulmon madaniyatining Yevropaga ta`sirini aniqlamoq lozim.

Irlandiyalik arabshunos olim M. Uott “Islomning O`rta asr Yevropasiga ta`siri” asarida boshqa yevropalik olimlardan farqli o`laroq, quyidagi haqiqatni tan olgan edi: “yevropaliklar musulmon madaniyatidan, ... ayniqsa, falsafa va tibbiyot sohasida, o`zlarining qanchalik qarzdor ekanliklarini his qilganlaricha yo`q. Ko`pincha musulmonlar madaniyatining ijobiy ta`siri va ko`lamini pasaytirish, hatto tamoman esga olmaslikka urinamiz. Bizning musulmonlar bilan yaxshi munosabatimiz ularning oldida qanchalik qarzdor ekanligimizni tan olishga majbur qiladi. Buni yashirish yoki tan olmaslik soxta g`ururdan boshqa hech narsa emas”¹⁰⁹. Yevropaliklar sharq xalqlarini qanchalik mensimay, o`zlarini baland olmasinlar, ularga madaniyat, san`at, adabiyot, yashash tarzi, kiyinish va hokazolar arab-musulmon madaniyati ta`siridan o`tganligi ayni haqiqat.

Professor M.M.Baxtin “So`z estetikasi” asarida xalqlarning madaniy aloqalari haqida quyidagilarni yozgan: “Madaniyat sohasining chegarasi bo`lgan, ichki maydonga ega yaxlit bir joy deb tushunib bo`lmaydi. Madaniyat sohasida chegaralangan ichki joy bo`lgan emas va yo`q ham. Uning, madaniyatning hammasi chegaralarda joylashgan, chegaralar hamma jabhada har bir daqiqada o`tadi, madaniyatning muntazam birligi madaniy hayot atomlariga borib taqaladi, uning har bir tomchisida quyoshdek ifodalanadi. Har bir madaniy hodisa chegaralarda yashaydi; uning jiddiyligi va muhimligi ana shunda, madaniyat

¹⁰⁹ Монгомери У.У. Влияние ислама на средневековую Европу. –М.: «Наука». 1976, ст. 24.

chegaradan chetda bo`lsa u tayanchini yo`qotadi, balandparvoz, puch, quruqlashadi, ayniydi va nihoyat o`ladi¹¹⁰”.

Darhaqiqat, hech qachon, hech bir xalq boshqalardan uzilib qolgan holatda taraqqiy etishi, o`zining maxsus madaniyatini yaratishi mumkin emas. Antik davrdagi Sharq va G`arb madaniy aloqalari, ayniqsa, o`rta asrlardagi jarayon yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi.

Yevropa qit`asining bir qismi bo`lmish Al-Andalusiyadagi yuksak madaniyat, ilm-fan, dunyoviy adabiyot, san`at ta`sirini hech qanday yo`l bilan to`sib qo`yish mumkin emasdi. Shuning uchun arab-musulmon madaniyatining Yevropa madaniyatiga ta`sirini rad etuvchi yoki kamsituvchilarning fikrlariga mutlaqo qo`shilib bo`lmaydi.

Arablar faqatgina Yunoniston, Markaziy Osiyo, Eron, Misr, Bobil va Hindistonning qadimgi madaniyatini qabul qilib, o`zlashtiribgina qolmay, uni yanada rivojlantirib, musulmon Ispaniyasi orqali bu boy madaniyatni Yevropa xalqlariga yetkazib berdilar. Bu haqiqatni qayd etgan Gegel shunday yozadi: “Arablar va ularning diniy mutaassibliigi sharqiy va g`arbiy dunyo bo`ylab qanchalik tezlikda tarqalgan bo`lsa, ular ma`rifat zinapoyalaridan ham shunchalik tez ko`tarildilarki, tez orada g`arbiy dunyoga nisbatan aqliy madaniyatda juda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar”.

Agar arab-musulmon madaniyatidan Yevropa ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy taraqqiyotida nimalarni olgani ro`yxatini tuzsak, uzundan-uzoq bo`lar edi. Masalan, davlat tuzumi, qonunchilik, ilm-fan, falsafiy konsepsiyalar, texnika, adabiyotda badiiy shakl va mazmun, me`morchilik, tasviriy san`atdan tortib to kundalik hayotda lozim mayda-chuyda buyumgacha musulmon xalqlari madaniyatining ta`siri yaqqol sezilib turadi.

O`rtayer dengizi havzasiga tutash Yevropa VII asrdan boshlab, ya`ni Vizantiya imperiyasiga tegishli Kipr orolida 648-yilda arablar paydo bo`lishidan e`tiboran arab-musulmon olami bilan doimiy aloqada bo`lib kelmoqda.

¹¹⁰ Бахтин М.М. Эстетика слова. Контекст. М., 1974, ст. 266.

Bir-biri bilan o`zaro hamkorlik va bir-biriga o`zaro ta`sir ko`plab yo`nalishlar bo`yicha, muloqot va muomalaning ko`plab yo`llari orqali amalga oshirilgan edi. Xususan, harbiy harakatlar jarayonida, keyinchalik vataniga qaytarish sharti bilan asirga va garovga olishlar chog`ida, elchiliklar va missiyalar ayirboshlashda, razvedka maqsadidagi operatsiyalarda, birgalikda yoki yaqin qo`shnichilikda o`zaro bir-biriga taqlid qilish va o`zaro bir-biridan o`rganish vositasida.

Yevropaliklar arablar bilan VIII-IX asrlarda arablar Yevropa janubiga bostirib kirganda va Yevropaning ko`plab hududlarida yetarlicha uzoq vaqt yashab turganlarida ular bilan muloqotda bo`lgan edi, chunonchi: Pireney (Iberiya) yarimorolida - 780 yil, Sitsiliya oroli va Italiya janubida – taxminan 440 yil, Malta orolida - 359 yil, Sardiniya orolida - 201 yil, Kipr orolida qariyb 300 yil (tanaffuslar bilan), Korsika orolida - 204 yil, Krit orolida - 136 yil, Fransiya janubida - 122 yil (hammasi bo`lib va turli davrlarda). Bunga shuningdek 192 yil davom etgan (1099-1291-yillar) salib yurishlari davrida yevropaliklarning arablar bilan ancha keyin ro`y bergan muloqotini ham yig`indi tariqasida qo`shib qo`yish mumkin¹¹¹.

Italyanlar musulmonlarning madaniy yutuqlari bilan Yevropani tanishtirib borishda ko`zga ko`rinarli rol o`ynadilar. Bunda, eng avvalo, dastlabki namunalari IX asrdayoq dunyoga kelgan arab tilidan lotin tiliga tarjimalar xususida so`z yuritmoq kerak. Arablar qo`lida asirlikda bo`lgan va o`z asarlariga arab tilida yozilgan asarlardan parchalar kiritgan Donkoloning qadimgi yahudiy tilida tuzilgan risolalari keyingi asrlarda mashhur bo`ldi. Donkoloning risolalari xuddi X asrda Iroqda yashagan tabib Xoliy Abbosning asari tarjimasini singari Salernodagi tibbiyot bilim yurti uchun mo`ljallangan edi. XII asrda Toledoda Segoviya Domingo Gonsales, xristianlikni qabul qilgan Ibn Dovud va butun boshli tarjimonlar maktabini yaratgan Kremonlik Jerardo ham arab tilidan tarjimalari bilan dong taratgan edi. Barselonada o`sha kezlarda yahudiy Abraham bar Hiyya va italyan Tivolilik Platon ham geometriya va astronomiga oid

¹¹¹ Ланда Р.Г. История арабских стран. Москва: Восточный университет, 2005. ст. 94.

asarlarni tarjima qilgandi. XIII asrda esa Angliya, Italiya va Ispaniyada Maykl Skottning arab tilidan tarjimalari (ayniqsa falsafa va tibbiyotga oid) keng tanildi. Aynan shu kezlarda Kastiliya qiroli Donishmand Alfonso X homiyligida arab tilidan lotin va kastiliya tillariga ilmiy, falsafiy va amaliy xarakterdagi ko`pdan-ko`p asarlar tarjima qilingan edi.

Shunday bo`lsa-da, Yevropaning arablar bilan tanishi tarjimalardan emas, balki, dengizchilik va kemasozlik texnikasidan boshlangan edi. Arablar Yevropaliklarga uchburchak yelkan (keyinchalik nohaqlarcha “lotin yelkani” deb atalgan) tanishtirdilar va ularni shamolga qarshi suzishga qodir bo`lgan “lotin” karavellasidan foydalanishga o`rgatdilar. Garchand hali-hanuzgacha bahs-munozaralar davom etayotgan bo`lsa-da, arablar xitoyliklardan olgan kompas ham arablardan o`zlashtirib olingan deb hisoblanadi, ammo, ayni mahalda kompas dengizchilik ishidagi bilimlarni ayirboshlagan arablar va Amalfi dengizchilarining birgalikdagi ijodi va ixtirosi bo`lishi ham istisno etilmaydi. Yevropaliklar uchun dengiz xaritalari ilk marotaba genuyaliklar tomonidan musulmon dengizchilari va ayniqsa, Muhammad al-Idrisiyning mashhur asariga ilova etilgan 70 xarita asosida tuzib chiqilgan edi. Dengizchilikning tegishli terminologiyasi, binobarin, “admiral” (arabcha “amir al-umaro”, ya`ni “amirlarning amiri” - bosh qo`mondon) so`zining ham kelib chiqishi asli arabcha bo`lishi mantiqan to`g`ridir.

Xo`jalik yuritish faoliyatida arablar o`z sug`orish va irrigatsiya inshootlari texnikasi, shakarqamish, guruch, artishok, limon, baqlajon, paxta singari yangi, ilgari ma`lum bo`lmagan ekinlarni yetishtirish bilan Yevropada qattiq taassurot uyg`otgandi. Ko`pchilik Yevropa tillarida mavjud bo`lgan ana shu ekinlarning nomlari, suv charxpalaklari va sug`orishning boshqa har xil texnikalarning nomlari asli arabcha ekanligi tasodifiy hol emas.

Arab shaharlari Yevropaliklarni turmush sifatining yuksakligi, uning farovonligi, boy-badavlatligi hamda nafisligi bilan hayratga solgan edi. Hunarmandlarning salmoqli qismi movut, ipak, baxmaldan, shuningdek, oltin,

kumush, billur, perlamutr va fil suyagidan qimmatbaho buyumlari ishlab chiqarar edi.

Kitoblar va musiqa ham hashamatli hayot va turmushning bir bo`lagi bo`lgan. VIII asrda arablar qog`oz ishlab chiqarish sirini asir olingan xitoyliklardan bilib oldilar va 800-yilda Bag`dod shahrida ilk marotaba qog`oz fabrikasi ochdilar, bu yerdan esa qog`oz ishlab chiqarish Suriya va al-Mag`rib orqali X-XI asrlarda Sitsiliya va al-Andalusga qadar yetib keldi. Sitsiliyada 1090-yili Rojer II davlat hujjatlarini qog`ozga yozdiradi. Qog`oz ishlab chiqarish boshqa Yevropa mamlakatlarida esa faqat XIV asrda yo`lga qo`yiladi, xolos. Qog`oz ishlab chiqarish Musulmon Ispaniyasi jamoatchiligining madaniy hayotida katta o`zgarish yasadi – har bir savodli odam uchun o`z kitobiga ega bo`lish imkoni yaratildi. Bu esa ilm-fan, din, badiiy adabiyot asarlarini keng omma o`rtasida tarqatishni osonlashtirdi.

Musiqa mavzusiga to`xtaladigan bo`lsak, unda arablar o`zini ham nazariyotchilar, ham amaliyotchilar tarzida namoyon etgan. Tabiiyki, bir qancha asboblari arablar orqali Ispaniyaga, undan so`ngra boshqa G`arb xalqlariga o`tgan. Ko`plab cholg`u asboblari nomlari asli arabcha ekanligiga e`tiborni qaratishning o`ziyoq kifoya, masalan: lyutnya (“al-ud”dan), gitara (“qitar”dan), rebek (“rabab”dan), litavr (“at-tabla”dan) kelib chiqqan. Musiqa nazariyasi haqida Sharqda yaratilgan risolalarning ba`zilari (Forobiy asarlari) lotin va yahudiy tillariga o`girilgan edi.

Arab-musulmon tabiblari va ularning tibbiyotga oid asarlari Yevropada juda mashhur bo`lgan. Ayniqsa Avitsenna (Abu Ali ibn Sino) nomi hozirda ham hurmat bilan tilga olinadi. Aynan Italiyada, musulmon Sitsiliyasida gullab-yashnab ravnaq topgan yunon-arab tibbiyoti bilan shug`ullana boshlagan Kremonlik Jerardo keyinchalik uni Fransiya va Ispaniyaga tanishtirgan edi. Ayni mahalda Kremonlik Jerardo Salerno tibbiyot maktabi taraqqiy etishiga ko`p jihatdan yordam bergan arab tabiblari, matematik va astronomlarining asarlari tarjimalariga tayangan.

Salerno maktabidan 1137-yildayoq o`sha kezlarda ancha-muncha arablar yashab kelgan Monpelyeda ham xuddi shunday bir maktab mustaqil bo`lib ajralib chiqqan edi. Hatto XIII asrda ham Monpelye maktabi al-Andalus musulmonlari va Ispaniyaning xristianlik qirolliklarida istiqomat qiluvchi arablar bilan aloqalarni saqlab turgan edi. Aynan Monpelyeda tibbiyot maktabi negizida Fransiyadagi birinchi universitet (Parijdagi Sorbonna universitetidan 25 yil oldin) vujudga kelganiga ajablanmasa ham bo`ladi.

XVI asrga qadar Yevropa tibbiyoti arab-musulmon tibbiyotiga taqlid qilib kelgani shu narsada ham namoyon bo`ladiki, bu qit`ada 1650-yilgacha Ibn Sino, Ibn Rushd, ar-Roziy, Hunayn ibn Is`hoq va boshqa tibbiyot bilimdonlarining asarlari bosmadan chiqarilgan, yevropalik mualliflar esa, faqatgina ularni sharhlagan. Masalan, Paviyalik Ferrari da Pradoning ar-Roziy asarlariga sharhlarida Ibn Sinodan 3 mingdan ko`proq, ar-Roziydan 1 mingta, Gippokratdan esa hammasi bo`lib 100 marta iqtibos keltirilgan, xolos.

Yevropaga arablarning madaniy sohadagi ta`sirining muhim bir qismi Eron, Hindiston, Xitoyning madaniy yutuqlarini, binobarin, sintezlashgan va takomillashgan ko`rinishida ular tomonidan yevropaliklarga yetkazib berilishi sanaladi. Pireney tog`laridan to Tibet tog`lariga qadar cho`zilib ketgan arab-musulmon olami Yevropa g`arbi va Osiyo sharqi o`rtasida tabiiy bir vositachi bo`lganday go`yo. Lotin tiliga tarjima qilingan Ali at-Tabariy, Hunayn iyun Is`hoq ar-Roziy va ayniqsa, Abu Rayhon al-Beruniyning asarlari, shuningdek, ko`pgina arab mualliflarining kitoblarida qoida tariqasida Eron, Hindiston va boshqa turli mamlakatlar olimlarining yutuqlari arablarning o`zlari ochgan kashfiyotlar bilan birikib ketgan holda taqdim etilgan edi. Shunday bo`lsa-da, qaysidir hind, eron va boshqa ilmiy asarlar boshida arab tiliga, keyin esa lotin tiliga tarjima qilingan hollar ham kam emasdir.

Yana bir sezilarli va jiddiy hodisa mazmuni shundaki, musulmon olimlari Yevropaga unutilayozgan antik zamon donishmandlarining yozma merosini qaytarib bergan edi. Bu narsa ayniqsa Qadimgi Yunoniston faylasuflari asarlariga taalluqli bo`lib, ular ilk xristian Yevropasi tomonidan rad etilgan va

aynan Arab xalifaligi tashkil topganidan so`ng dastlab suryoniy (oromiy), keyin arab va nihoyat lotin tiliga tarjima qilingan edi. Binobarin, bu narsa Abu Nasr al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Husayn ibn Tufayl va Abu Volid ibn Rushd singari arab-musulmon faylasuflarining antik zamon mutafakkirlari asarlariga yozgan ajoyib sharhlari bilan yevropaliklar tanishib chiqqanidan keyin ro`y bergan edi. Abu Volid ibn Rushd (Averroes) shundan keyin Yevropada shu qadar mashhur va ommabop bo`lib ketdiki, hatto “averroizm” - “hayotdan zavqlanuvchi hurfikrlik” yo`nalishini dunyoga kelishiga sabab bo`lgan holda G`arb falsafasi taraqqiyotiga ta`sir o`tkazgan edi.

Arablarning madaniy merosi Yevropaga al-Andalus orqali yetkazib berilgan, bunga esa, ko`plab omillar maydon hozirlab sharoit yaratib bergan edi: Andalusiyada bir necha madaniyatlar aralashib ketishi va o`zaro bir-biriga singishi, arab tilini nainki musulmonlar va xristian mosarablari, qolaversa yahudiylar va yarim orol shimolidan bo`lmish ko`plab xristianlar ham bilishi, umumiylikiga aholining arab dunyosining boshqa qismlariga qaraganda savodxonligi va ma`lumotining yanada yuksak darajada bo`lishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan edi.

Keyinchalik Rim papasi Silvestr II (999-1003) maqomiga ko`tarilgan fransuz monaxi Oriyaklik Gerbert (ba`zi manbalarda Jerber; 945-1003-yillarda yashagan) Yevropada arab ilm-fani bilan shug`ullangan birinchi olim bo`lgan edi. Oriyaklik Gerbert 967-970-yillarda uch yil davomida Kataloniyada tahsil ko`rgan va shu sababdan arab tilini yaxshi bilgan. Qurdobada xristianlar uchun taqiqlangan kitoblarni “bitta qo`ymay yodlagan”ligi va u yerdan ancha-muncha kitoblarni olib kelganligi ehtimoldan uzoq emas. Bu narsa to`lalligicha aniqlanmagan bo`lsa-da, Gerbert musulmon olimlari asarlari bilan hech bo`lmaganda tarjimalar orqali tanishgan. Bunday xulosaga kelishimizga asosiy sabab, u fizik, ximik, matematik va astronom sifatida o`ziga zamondosh bo`lgan har qanday xristiandan bir qarich baland, ayni mahalda o`ziga zamondosh arab-musulmon olimlari darajasiga esa butunlay javob bergulik iqtidorga ega edi. Oriyaklik Gerbert Magdeburg shahrida Yevropada o`sha kezlarda noma`lum

boʻlgan, ammo bir asrdan koʻproq davrda Sharqda va al-Andalusda mavjud boʻlgan Quyosh soatini yasagan, yulduzlarni kuzatish uchun moʻljallangan ayrim optik asboblarni yaratishda ham ishtirok etgan edi.

Zamonasining oʻqimishli, fanlarning turli sohalaridan yaxshigina xabardor boʻlgan Gerbert ayniqsa, matematika fanining bilimdoni boʻlib, uning buyrugʻiga koʻra arab raqamlari deb ataluvchi raqamlar (1, 2, 3 va h.k.) Yevropa mamlakatlarida joriy etilgan. Aslida bu raqamlarni Muhammad Muso al-Xorazmiy hind raqamlari asosida ishlab chiqqan edi. Silvestr II buyrugʻigacha Yevropa mamlakatlarida oʻta noqulay rim raqamlaridan (XXXXIV va hokazo) foydalanganlar. Biroq, Silvestr buyrugʻi bilan qabul qilingan arab raqamlarining afzalligini yevropaliklar XIII asrdagina anglab yetganlar va hayotga tatbiq etganlar. Bir mahallar Bijayya (Jazoir)da Piza savdo koloniyasiga rahbarlik qilgan rohib pizalik Leonardo Fibonachchi arablardan oʻnlik raqamlarni oʻrganib, uning afzalliklari haqida 1202-yilda risola yozadi. Shu tariqa Leonardoning kitobchasi tufayli yevropaliklar arab raqamlarining afzalligini anglaganlar. Bu narsa Yevropada matematika va astronomiya taraqqiy etishiga taʼsir oʻtkazdi. Raqamlar bilan birga Yevropaga yangi soʻzlar ham kirib keladi – fransuzcha chiffre, nemischa ziffer, inglizcha cipher, ruscha sifra soʻzlari arabcha “sifr” – “boʻshliq” degan soʻzdan olingan¹¹².

Ana shundan keyin arab-musulmon ilm-fani va madaniyati bilan Yevropa oʻrtasida kimlar aniq vositachilik qilganliklarini aniqlash ancha mushkul, chunki bu vositachilik, ayniqsa, siyosiy va madaniy jihatdan azal-azaldan bogʻlanib kelgan Iberiya yarimoroli va Fransiya janubida ommaviy xarakterga ega boʻlgandi. Al-Andalusiya sarhadidan tez-tez tashqariga chiqib turgan darbadar shoir (huqalar) va qoʻshiqchilar, savdogar va dengizchilar, musulmon boʻlmagan jamoatlarning vakillari (yahudiylar, mosarablar), qochoq qullar va harbiy asirlar, al-Mansur (yevropachasi “Almanzor”) hukmronligi davridan boshlab Andalusiya armiyasida xizmat qilgan xristian yollanma askarlari (ayniqsa kataloniyaliklar) -

¹¹² Сулаймонова Ф. Шарк ва Ғарб. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997, 262 бет.

bularning hamma-hammasi X-XV asrlarda Kataloniya, Navarra, Aragon bilan bog`langan Sevilya va Granadadan tortib to Langedok va Provansga qadar bir joydan ikkinchi joyga erkin harakatlanar, u yoki bu darajada al-Andalusning ajoyib madaniyati tashuvchisi bo`lgani holda kataloniyaliklar, kastiliyaliklar, navvaraliklar, aragonliklar, langedoklar, provansliklarni ana shu madaniyat yutuqlari bilan tanishtirgan edi.

XI-XII asrlardagi Rekonkista muvaffaqiyatlaridan keyin aynan shu narsa muzahhirlarga (arabcha “muzajjan”dan – “qo`lga o`rgatilgan”), ya`ni xristianlar tomonidan bosib egallab olingan hududlarda qolgan o`z jamoatlari (al-hamimlar) bilan birga o`z urf-odatlariga rioya qilgan va o`z dini va madaniyatini saqlab qolgan holda yashashni davom ettirgan (XV-XVI asrlar chegarasiga qadar) ham taalluqlidir. Muhazzirlar bilan birgalikda umrguzaronlik qilish ayniqsa Aragon va Kastiliyada ispanlar turmushi, urf-odatlari, madaniyati va san`atida teran iz qoldirdi. Buyuk Britaniyalik olimlar U.Montgomeri va P.Kakia ta`kidlaganidek, Ispaniya butun aholisining madaniyati o`sha kezlarda yagona madaniyat, “qanchalik musulmoncha bo`lsa, shunchalik xristiancha ham edi”. Ana shu olimlar “Ispaniya bugungi rassomlari va hunarmandlari hozirga qadar musulmon manbalardan ilhom olmoqdalar” deya ishora qiladilar. Portugaliya, kamroq darajada esa Janubiy Italiya va O`rtayer dengizi oroli madaniyat ustalari xususida ham shu ta`kidlovlarni aytib o`tish mumkin. Bunga qo`shimcha tariqasida XVI asrga qadar al-Mag`rib, al-Andalus, Ispaniya, Portugaliya, Fransiya va Italiya janubi moddiy madaniyati, me`morchiligi, xo`jalik va harbiy texnikasi, ayrim axloqiy qarashlar va urf-odatlar, adabiy an`analari salmoqli darajada o`xshashligi haqida eslatib o`tish lozim. Fransiya janubida bir necha asrlar hukmronlik qilgan provansal (oksitani) tilida arab tilidan o`zlashtirilgan so`zlar va iboralar anchagina, Provans folklori, raqslari, afsonalari, idish-tovoqlar naqshlarida an`naviy bayram liboslari, tantanali yurishlar, qo`g`irchoq tomoshalari, xalq rivoyatlari syujetlarida kabi arablar ta`siri osongina ko`zga tashlanadi.

Sitsiliyada arab-musulmon madaniyati. Arab-musulmon madaniy merosining Yevropaga yetkazib berilishida IX-XI asrlarda al-Andalus bilan

aloqalari nihoyatda mustahkam boʻlgan Sitsiliya arablari va musulmonlari alohida rol oʻynagan edi. Sitsiliya oroli va Al-Andalusiya mamlakati aholisining kundalik turmushi hamda yuksak didlari xususida soʻz ochmaganda ham, hayot tarzi, xoʻjalik yurituv shakllari, arxitektura va sanʼatining ajoyibligi bilan alohida ajralib turar edi. Arab-musulmon madaniyati Sitsiliya orolida musulmonlar hukmronlik qilgan davrda ham (859-1086-yillar), ularning oʻrnini egallab olgan normanlar hukmronligi zamonida ham (1086-1194-yillar) va Gogenshtaufenlar sulolasidan boʻlmish qirollar hukmronligi davrida ham gullab-yashnagan edi.

1091-yili Rojer boshliq normannlar butun Sitsiliyani bosib oladi. Rojer orolni idora etar ekan, uni na islom dini, na madaniyati taʼsiri qiziqitirmadi. Rojer, Rojer II (1130-1154) va uning nabirasi Fridrix II lar Sitsiliyada musulmonlar tomonidan oʻrnatilgan tartibni oʻzgartirishni xayollariga ham keltirishmadi. Ular aksincha arab-musulmon madaniyati taʼsiri ostida boʻldilar. Shuning uchun zamondoshlari ularni “Sitsiliya orolining choʻqintirilgan sultonlari” deb ataganlar.

Roger II va Fridrix II lar Sitsiliyada Sharqona hayot tarzini oʻrnatadilar. Ispaniya xalifalarining Kordovadagi hayoti ularga namuna boʻladi, arab tilida soʻzlashadilar, sharqona liboslar kiyadilar. Ular saroyida qoʻshiqchi va raqqosa kanizaklar ham boʻlgan. Saroyda gʻazalxonliklar, qasidalar oʻqish odat tusiga kirgan. Qirollarning maslahatchi va amaldorlari ham musulmonlardan boʻlganlar.

Sharqdan kelgan olimlar orasida Abu Abdulloh Muhammad ibn Muhammad ibn Idris alohida oʻrin egallaydi. U arab tilida ijod etgan olimlar orasida eng isteʼdodligi boʻlmasa-da, Rojer II ning topshirigʻiga binoan yozgan asari “Nuzxat al-mushtaq fi-tifoq alofoq” bilan jugʻrofiya fanining rivojiga hissa qoʻshgan edi. Idrisiy Fargʻoniyga suyangan holda yer kurrasini shar holda tasvirlaydi, yetti iqlimga yetti xarita beradi. Idrisiy Rojer II ning oʻgʻli Vilgelm I uchun ham jugʻrofiy asari “Raud al-uns va nuzxat an-nafs” asarini yozadi, lekin bu kitob saqlanib qolmagan.

Sitsiliya poytaxti Palermo va ayniqsa, qirol saroyi oʻsha davr Gʻarb va Sharq elementlarini oʻzida mujassamlashtirgan va Yevropaning eng yirik maʼrifat

markazlarining biriga aylangan edi. Qirol saroyi o`zining zeb-ziynati va uslubi jihatidan Sharqdagi arab xalifalarining saroylarini eslatar edi. Unda har xil bayramlar va musiqali tantanalar o`tkazilardi. Ispaniyadagi arab madaniyati bilan bir qatorda Palermo ta`siri deyarli Italiyaning hamma mintaqasiga o`tgan. Sitsiliya qiroli Rojer II shoir, arab madaniyatining muxlisi bo`lib, sharqlik muhandislarni chaqirib saroylar qurdiradi, atrofiga arab tilida ijod etuvchi shoirlar, olimlarni jalb etadi, yunon va arab olimlari asarlarini arab tilidan lotin tiliga o`girtiradi. Shotlandiyalik Mixail Skott Fridrix II uchun Aristotel, Ibn Sino va Ibn Rushd asarlarini lotin tiliga tarjima qiladi. Arab shoirlari ma`rifatparvar qirolga madhiyalar yozadilar.

Roger II ning siyosatini Fridrix II Gogenshtaufen (1194-1250-yillar) davom ettirib, arab-musulmon madaniyatining mamlakatda keng tarqalishiga homiylik qiladi. Hur fikrlovchi Fridrix II Muqaddas Rim imperiyasining hukmdori emas, balki Sharq mamlakatlari sultonlarining biriga o`xshar edi. U Sharq musiqasi, raqslari, sharq adabiyoti va she`riyati, Sharq me`morchiligining shaydosi bo`lgan. Imperator Fridrix II o`z davrining eng o`qimishli hukmdorlaridan biri bo`lib, beshta – arab, yunon, lotin, italyan va nemis tillarini yaxshi o`zlashtirgan edi¹¹³.

U yaxshigina shoir ham bo`lgan, italyan tilining bir lahjasi bo`lmish sitsiliya tilida ijod etgan, lotin tilida esa ko`plab asarlar yozgan. Shuningdek, u tibbiyot va zoologiya fanlariga ham juda qiziqqan. Fridrix II ning bizgacha saqlanib qolgan “De arte venandi cum avibus” ya`ni “Qushlar bilan ov qilish san`ati” haqidagi asari uning bu sohadan ham yaxshi xabardorligidan dalolat beradi¹¹⁴.

Uning saroyida cherkov ta`qibi ostida bo`lgan bid`at ta`limotlari tarafdorlari, turli millat vakillari bo`lgan olimlar, yunon, arab tili tarjimonlari, shoirlar to`plangan edilar. Palermo saroyida turli ilmiy-falsafiy masalalar, moddiy dunyoning abadiyligi, inson ruhining boqiy va foniyligi, falsafa va din muammolari haqida bahslar bo`lib turardi. Islom olami olimlari bilan doimiy

¹¹³ Нефедов С.А. История Средних веков. –М.: «Издательство «Владос», 1996, ст 49.

¹¹⁴ Ёдгоров Ш. “Шарқ маданиятининг ихлосманди”. Т.: “Камолот сари” иктидорли ёшлар тўплами, 2010, 98 бет.

yozishmalar olib borgan Fridrix II “arab” matematiklari, astronomlari va tabiblarining ko`plari unga bag`ishlangan asarlarini to`plagan edi. Uning farmoyishi bilan Abu Volid ibn Rushd va Abu Ali ibn Sinoning asarlari lotin tiliga tarjima qilindi. Uning hukmronligi davrida Salerno tabiblari Sitsiyaliya va al-Mag`rib shifokorlaridan ta`lim olishni davom ettirdilar. Fridrix optika, zoollogiya, mexanika, kosmografiya, fizika va logikaga oid qimmatbaho arab qo`lyozmalari kutubxonasini to`plagandi. Ana shu qo`lyozmalardan bir qismini u Bolonya unversitetiga, boshqa bir qismini esa o`zi 1224-yilda asos solgan Neapol unversitetiga tuhfa qildi. Shu o`rinda Fridrix II homiyligida tashkil etilgan Neapol unversiteti haqida ham to`xtaladigan bo`lsak, bu cherkov, yoki shahar kengashi emas, balki hukmdor tomonidan tashkil etilgan birinchi unversitet hisoblanadi. Unda barcha sohalar bo`yicha mutaxassislar tayyorlangan. Oliyohda xristianlar bilan bir qatorda musulmon (arablar) va yahudiylar ham dars berishgan. Shuningdek, Fridrix bir qator maktablar ham ochganki, bu qirollik aholisining savodxonlik darajasini ancha ko`targan¹¹⁵.

Suriyalik xristian Antokiyalik Teodor 1236-yildan boshlab Fridrix II saroyida xizmat qilishga kirishib, o`zi muqaddam tahsil ko`rgan Bag`dod va Mosuldagi ilm-fan yutuqlari bilan qirol fuqarolarini tanishtirdi. Fridrixdan keyin ana shu an`analar uning o`g`li Manfred davrida ham davom ettirildi. Xususan, sitsiliyalik musulmon Faraj ibn Salim tomonidan Abu Bakr ar-Roziyning ensiklopedik asari lotin tiliga tarjima qilingan.

Buyuk italyan shoiri Dante Aligyeri saroydagi shoirlar va ularning homiysi Fridrix II va uning o`g`li shahzoda Manfred haqida quyidagi so`zlarni yozgan: “Qalbi olijanob va shoirlik mahoratiga ega bo`lganlar bu buyuk hokimlarga yaqinlashuvga intiladilar va o`sha davrda Italiyada yashagan hamma tafakkur egalari qanday ishlarni amalga oshirgan bo`lsalar, ular xuddi ana shu buyuk hukmdorlar saroyida vujudga keldi: qirol poytaxti Sitsiliyada bo`lgani uchun, tabiiyki, bizning ilkdoshlarimiz xalq tilida nimaiki yozgan bo`lsalar, Sitsiliya tili,

¹¹⁵ ЎзМЭ 6 том. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003, 296 бет.

deb atala boshlandi”. Darhaqiqat, Fridrix saroyida ijod qilgan shoir Genuya, Toskano, janubiy italiyalik bo`lsalar-da, an`anaga ko`ra Sitsiliya lahjasida ijod etganlar. Bular Jakomo de Lentini (XIII asrning birinchi yarmi), Odo delle Kolonne (1210-1280), Pyero Della Vinya (vafoti 1249), Jakomino da apuliy, Rinaldo akvino, Entso (1242-1272), Stetran Protonotariy va boshqalar. Sitsiliyada adabiy jarayon, asosan XIII asrning birinchi yarmida, Fridrix II va Manfred davrida ayniqsa, rivojlandi.

Ispaniyadan keyin Sitsiliya arab-musulmon madaniyati, ilm-fani, falsafasini G`arb madaniyati bilan uyg`unlashtiruvchi ma`rifat makoni hisoblanardi. U Sharqning G`arbgga ta`sir etish tarmoqlarining biri bo`lgan. Arab-musulmon madaniyatining obro`-e`tibori o`sha zamonlar uchun obyektiv bir hodisa bo`lgan. Bu madaniyatning endi-endi qad rostlab kelayotgan Yevropa madaniyati ustidan ustunligi va hukmronligi shu qadar salmoqli bo`lganki, arablar xristian qirollar hukmronligi davrida ham muhim lavozimlarni egallab turishgan, davlat devoni va qo`shinlarda xizmat qilishni davom ettirishgan, ibodat maskanlari bo`lmish masjidleri va o`z mahallalariga ega bo`lishgan, hukmdorlar saroyiga esa arab muallimlari va shoirlarini, arab liboslarini, ayrim udumlar va arabcha yozuv tushirilgan tangalar qabul qilingan va joriy etilgan edi. Shu taxlit, Sitsiliya oroli o`sha kezlarda al-Mag`rib va al-Andalus mamlakatlari bilan birgalikda Yevropaga ochilgan “Musulmon Sharqi darvozasi” bo`lgan edi.

Arab-musulmon madaniyatining ta`siri salib yurishlaridan so`ng. Salib yurishlarining Yevropa mamlakatlari madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayoti uchun mohiyati nihoyatda katta ekanligini ilk bor buyuk fransuz faylasufi va adibi Volter (1194-1178) ta`kidlagan edi. Uning fikricha, salib yurishlari insoniyat tarixida xunlar, gotlar, burgundlar, vandallar, keyinchalik arablar va turklar istilolalari bilan bir qatorda turadi. Ikkinchi tomondan, salib yurishlari boshlanishi sabablarini juda to`g`ri talqin qiladi: “Bu muhojirotni din, ochko`zlik, harislik, betoqatlik keltirib chiqardi”. Volterning ta`biriga ko`ra, “besaranjom, janjal va urushlarni yoqtiruvchi, jinoyatlarga ko`milib ketgan ritsarlarning asosiy maqsadi boy sharq xalqlarini talash edi”.

XVIII-XIX asrlarda salib yurishlari tarixini yozgan olimlarning hammasi bu diniy urushlar keltirgan behisob falokatlar bilan bir qatorda, Yevropa xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun foydasi benihoyat katta ekanini ham ko`rsatganlar.

Salib yurishlaridan so`ng krepostnoy tuzumi o`z-o`zidan barbod bo`ldi. Bu jarayon ancha-muncha ijobiy holatlarni keltirib chiqardi. Feodal zodagonlarning o`zboshimcha hokimiyati susaygani, markazlashgan mustabid qirol tuzumi mustahkamlangani, oddiy mehnatkash bir oz erkinlikka, shaharlar o`zini o`zi idora etishga erishgani, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo aloqalarining kengayishi kabi xususiyatlarni ko`rsatadilar. Fransuz faylasufi Volter (1194-1178) ning fikricha, uning natijasida savdo, hunarmandchilik rivojlandi. Shotland tarixchisi V. Robertson (1721-1793) esa, “XI asrgacha G`arbdagi feodal jamiyati chuqur zulmat, avomlikda yashagan, salib yurishlaridan boshlab, ular tufayli tubdan o`zgarish ro`y beradi... Bu Yevropani uzoq vaqtli uyqudan uyg`otgan, idora etish va ahloqda mutloq o`zgarishga olib kelgan voqeadir”, deydi. Madaniyatning dastlabki nurlari salib yurishlari ishtirokchilari bilan keldi. Fransuz tarixchisi B.J. Mayi (1724-1794) esa, salib yurishlari natijasida Sharq va G`arb o`rtasida savdo yo`llari o`rnatilishi, xo`jalik hayotiga sharqning ijobiy ta`siri, umuman jamiyat hayotidagi ajoyib o`zgarishlar haqida yozadi.

Haqiqatan, Sharq mamlakatlaridagi markazlashgan davlat tuzumi, iqtisodiy taraqqiyot, yo`lga qo`yilgan qishloq xo`jaligi, rivojlangan hunarmandchilik, o`zaro va xalqaro savdo aloqalarining keng rivoji, yuksak madaniyatning turli sohalarda namoyon bo`lishi, ajoyib me`morchilik, san`at, adabiyot, ilm-fan, texnika, yuksak ahloq, odob, nozik did, nazokatli hayot tarzi – hammasi salib tashuvchilarni hayratga soladi. Yurish ishtirokchilari Quddusda Iso payg`ambar hokini topolmadilar, biroq o`zlari uchun ko`p narsalarni bilib qaytdilar.

Salib yurishlari voqealaridan so`ng Sharqqa, arab-musulmon madaniyatiga qiziqish kuchaydi. Yevropa mamlakatlariga yaqin bo`lgan, arab-musulmon madaniyati keng tarqalgan Ispaniya, Italiya va Sitsiliyaga kelib bilim oluvchi, madaniyat o`rganuvchilarining soni yildan yilga orta boshladi. Yevropaning

ilg`or mamlakatlarida arab-musulmon madaniyatini o`zlashtirish salib yurishlari natijasida ancha jonlandi. Ta`sir jamiyat hayotining hamma tomonlarida o`z izini qoldiradi.

Adabiyotga ta`siri. Musulmon Ispaniyasida rivojlangan falsafiy tafakkurning O`rta asrlarda G`arbiy Yevropaga ta`siri kuchli bo`lgani hammaga ma`lum haqiqatdir. Arab Ispaniyasi orqali arab-musulmon madaniyati, xususan, sharq arxitekturasi, san`ati, texnikasi, harb ishi, fanning turli sohalarining G`arbga ta`siri hech kimda shubha tug`dirmaydi. Tabiiyki, hamma sohada bo`lgan ta`sir, albatta, adabiyotda bo`lmasligi mumkin emas edi. Ta`sir adabiyot sohasida ham bo`lgani haqiqat. Xususan, arab adabiyotidagi adab, pand-nasihatga oid nasriy asarlarning O`rta asr Yevropa adabiyotiga ta`siri mutloq e`tirof etilgan (283-bet). She`riyatdagi ta`sirga nisbatan nasriy asarlardagisi shunchalik ochiq-oydinki, buni inkor etishning hech iloji yo`q. Arab adabiyotiga taqlidan yozilgan ilk ispan nasri, ayniqsa, italyan, fransuz va ingliz hikoya janrining shakllanishi va rivojida asosiy omil bo`ldi. Hatto XVI asr va XVII asr boshlarida yaratilgan asarlar (“Gargantuya va Pantagryuel”, “Don Kixot”) ham bu barakali ta`sirdan bahramand bo`ldilar.

Yuqorida ta`kidlab o`tkanimizdek, ham Yevropa, ham Sharq mamlakatlarida istiqomat qiluvchi yahudiylar arab-musulmon madaniyati va fanining Yevropada tarqalishiga ulkan hissa qo`shdilar. Bu albatta, tarjimonlik bilan uzviy bog`liqdir. Gap shundaki, ispan yahudiylari o`z ona tilidan tashqari arab, lotin va ispan tillarini yaxshi bilganlar. Ularning mashaqqatli mehnati natijasida fan sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan musulmon olimlarining ko`plab ilmiy asarlari hamda arab adabiyotining betakror namunalari arab tilidan lotin yoki ispan tillariga o`girilgan. Xususan, XIII asrda “Sinbodnoma”, “Ming bir kecha”dan Hindistonga aloqador hikoyatlar to`plami, Budda hayotiga bog`liq bo`lgan “Varlaam va Iosafat” asarlari, maqomalar to`plamlari lotin va ispan tillariga o`girilgan. Xuddi shu asrda yahudiy Ioann Kapuani “Kalila va Dimna”ni eski ispan tiliga ag`dargan. Bu tarjimalar Yevropa mamlakatlari, ayniqsa, fransuz va italyan adabiyoti uchun izziz o`tib ketmadi. O`rta asrlarda keng tarqalgan

“Rim hikoyalari”, “Novellino”, Jovanni Bokkachchoning “Dekameron”i, Navarra malikasi Margarittaning “Geptameron” hikoyalar to`plami, fransuz fabliolari, ayniqsa, Dante ijodi shular jumlasidandir.

“Ming bir kecha”, “Qur`on”, “Merojonoma” qirol Alfons X ning buyrug`i bilan XIII asrda ispan tiliga o`girilgan. Muhammad payg`ambarning “Meroj”i, turli hikoyatlar va Sharq she`riyati Yevropa xalqlari dunyoviy mazmundagi adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida katta rol o`ynagan.

Me`morchilikka ta`siri. Ispaniya arab-musulmon madaniyati va arablar orqali xalifalikning barcha mintaqalari ilmi, san`ati va arxitektura yutuqlarini boshqa Yevropa mamlakatlariga o`tkazish vositachisi bo`lgan. Ispaniyadagi gullagan, obod arab shaharlari Kordova, Toledo, Sevilya, Volyubilis, Valensiya, Mursiya, Granadaning shuhrati Yevropa mamlakatlariga tarqaladi, qirollar, imperatorlar ularga elchilar, vakillar yuborib, bu shaharlar haqida aniq ma`lumotlar olishga urinadilar (masalan, german imperatori Otton 956-yilda Kordovaga, xalifa Abdurahmon III huzuriga faylasuf Jan de Gorstni yuborgan). XII asr o`rtalarida yashab o`tgan nemis shoirasi Xrozvifa (vafoti 1200-yil) Kordova “yer kurrasining ziynati, muqaddas shahar... u go`zalligi, boy, hashamatli hayoti, donishmandligi bilan nom taratgan...” – deydi.

Ispaniya shaharlari qurilishida ishlatiladigan sharqona uslub sekin-asta boshqa Yevropa shaharlariga ham ko`cha boshlaydi. Jumladan, Kordovadagi Katta masjid ichidagi ajoyib arkalar bir asr o`tgach Yevropadagi ko`plab ibodatxonalarda paydo bo`la boshladi. Angliyadagi Linkoln ibodatxonasi, Fransiyadagi Shartko ibodatxonasining arxitekturasi Kordovadagi Katta masjid bilan bir xil ko`rinishda ishlanganligi tasodif emas albatta. Shuningdek, X asrdan boshlab janubiy Fransiyada barpo etilgan saroy va qasrlar ham bunga yaqqol misol bo`la oladi. Arablarning Iberiya yarimoroli, Italiya va Fransiya janubida va O`rtayer dengizi orollarida arxitektura va shaharsozlikka qo`shgan salmoqli hissalar mahalliy tillar, ayniqsa, ispan va portugal tillari lug`at tarikibida o`z aksini topdi.

Arab-musulmon me'morchiligi izlari Palermodan tortib to Amalfi va Salernogacha, shuningdek, Sina, Florensiya, Piza va Genuyadagi qator binolar fasadlarida biz yashab turgan zamonga qadar saqlanib qolgan. Italiyaning ana shu va boshqa shaharlari hokimliklari vatandoshlari tomonidan Sitsiliya arablarining madaniy merosini o'zlashtirilishini qo'llab-quvvatlagan edi.

II bobga xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Ispaniyada salkam sakkiz asr davom etgan arablar hukmronligi, yarim orolda arab-musulmon madaniyati, ilm-fan, falsafa, badiiy adabiyotning rivojlanishi, xalifalikni tashkil etgan boshqa xalqlar madaniyatining arablar tomonidan o'zlashtirilishi, Ispaniyada esa, yanada takomillashtirilishi Yevropa xalqlari, ayniqsa, Ispaniya bilan chegaradosh mamlakatlar uchun izsiz kechmadi. Aksincha, G'arb mamlakatlari xalqlari madaniyati shakllanishi va rivojiga turtki bo'ldi.

Ispaniyada shakllangan tarjimonlar maktabi nafaqat "yunon-arab fani"gina emas, balki Movarounnahr olimlarining asarlaridan ham G'arbiy Yevropani bahramand qildi. Musulmon olimlari merosini tarjima qilish borasida Yevropa mamlakatlarida mingga yaqin tarjimonlar mehnat qildilar.

Shunday qilib, arab-musulmon madaniyatining ta'siri ko'pgina yo'nalishlarda IX-XIII asrlarda, ayrim joylarda esa, XIV-XV asrlarda bir vaqtning o'zida al-Andalusda, Sitsiliya va Yaqin Sharqda, eng avvalo, O'rtayer dengizi havzasini, keyin esa qolgan Yevropani qamrab olgan holda sodir bo'lgan edi. Arab-musulmon madaniyatining Yevropaga ta'siri asosan uch yoqlama – arab Ispaniyasi, normanlar Sitsiliyasi va bir necha bor takrorlangan salib yurishlari orqali bo'lgan edi. Ana shu ta'sir, tabiiy ravishda, janubda kuchliroq bo'lgan, shimolga qarab asta-sekin zaiflashib borgan edi. Ushbu ta'sir o'zaro madaniy hamkorlik va sivilizatsiyalararo aloqalashuv maydoni, qisqasini aytganda, Yevropa mamlakatlaridagi Uyg'onish davri va uning mafkurasi shakllanishi uchun zamin hozirlagani holda Yevropa tarixida muhim rol o'ynagan jiddiy omilga aylandi.

XULOSA

Inson yaralibdiki, xalqlar hech qachon bir-biridan ajragan, o`z qobig`iga berkingan holda yashagan emaslar. Insoniyat erishgan hayotning turli tomonlaridagi ulkan g`alabalar faqat hamkorlik, boshqa xaqlar yutuqlaridan foydalanish, ilg`orlarga yetib olish va o`zib ketishga intilishning mahsulidir.

G`arbda Ispaniyadan Sharqda to Xitoy chegaralarigacha bo`lgan mintaqani o`z ichiga olgan buyuk davlat, Xalifalik tarkidagi xalqlar madaniyati shunchalik ravnaq topishining boisi, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sabablar bo`lsa, ikkinchi tomondan islom ta`limotining o`zi bo`ldi. Bu ta`limotda din aqidalari va bilim, ilm-fan shunchalik chambarchas bog`langan ediki, bunday holatni hech qachon va hech qaysi diniy ta`limotda uchratmaymiz.

Arab-musulmon madaniyati turli sohalar – me`morchilik, miniatyura, musiqa, xattotlik va kitobat san`ati, amaliy san`at, ilm-fan hamda adabiyotni qamrab oldi. Bu sohalar VII-XI asrlarda misli ko`rilmagan darajada taraqqiy etdi.

Islom insoniyat tarixida eng mustahkam hissa qo`shdi, ilm rivojining o`sha davr uchun oliy bo`lgan cho`qqiga ko`tarilishini ta`minladi. Bu taraqqiyot faqat Sharq xalqlari manfaatlariga xizmat qilmay, umum madaniyat, sivilizatsiya rivojiga xizmat qildi. Arab xalifalari o`z davrining buyuk mutafakkirlarini bir joyga to`plab, ularga homiylik qildilar. Bag`dodda tashkil etilgan “Bayt al-hikma” ana shunday olimlar bir yerga jamlangan ilmiy markaz edi. Ta`kidlash joizki, markaziy osiyolik olimlarning Bag`dodda faoliyat olib borishi, insoniyat fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shdi. Jumladan, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr ar-Roziy, Ahmad al-Farg`oniy kabi olimlarning ismlari butun dunyoda chuqur ehtirom bilan tilga olinadi. Darhaqiqat, Markaziy Osiyo olimlari antik ilmlarning qayta tiklanishida ishtirok etdilar, o`z asarlari bilan qator tabiiy-ilmiy fanlarni bir tizimga solib, fan sifatida shakllantirdilar va ularni yangi fikrlar, g`oyalar bilan boyitdilar. Umuman, bu davr olimlari hech qachon tor ramkadagi millatparast bo`lmaganlar, ular insoniyatga xizmat qilganlar. Haqiqatdan ham amalda shunday bo`ldi. Arab-musulmon olimlari yaratgan ilm-fan Yevropaga o`z

ta`sirini o`tkazdi. Bu ta`limotlar boshqa iqtisodiy, ijtimoiy sharoitda yanada rivoj topdi va umuminsoniy sivilizatsiyaga xizmat qildi.

Arab-musulmon madaniyatining Yevropaga ta`siri bu mamlakatlarning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyoti ana shu ta`sirni qabul qilishni taqozo qildi. Yevropada arab-musulmon madaniyatining ta`siri ilm-fan va san`atdagina emas, balki jamiyat hayotining turli sohalari, kundalik hayotning ikir-chikirlarigacha bo`ldi. Bu haqda professor U.M. Uott shunday deydi: “Musulmon madaniyatining G`arbiy Yevropaga ta`siri, o`ylaganlaridan ancha ortiq bo`ldi. Islom o`zi erishgan moddiy madaniyat, texnikaviy kashfiyotlar ila G`arbiy Yevropa bilan faqatgina sheriklashib Yevropada ilm-fan rivojini rag`batlantiribgina qolmay, Yevropani o`zi haqida yangicha tasavvurga ega qildi”.

Islom dini, Pireney yarimorolidan to G`arbiy Xitoygacha bo`lgan yerlarni o`z ichiga olgan xalifalikning ijobiy munosabati natijasida ilm-fan misli ko`rilmagan darajada taraqqiy etdi. Uning umuminsoniyat tarixi uchun ahamiyati beqiyos va uni hech qanday jarayon bilan tenglashtirib bo`lmaydi. Hozirgi fanlarning poydevori o`sha vaqtlarda yaratilgan, uning amalga oshirilishida ishtirok etganlarning aksariyati Markaziy Osiyolik olimlar bo`lganlar. Diniy e`tiqodi yagona bo`lgan turli millat, xalq vakillarining aql-zakovati, idroki, bilimi, ma`naviy boyliklari bir maqsadga qaratilganligi va islom dinining birlashtiruvchi kuchi tufayli ilm-fan va madaniyat bobida umuminsoniy g`alabaga erishildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008.

2. O`zbek tilidagi adabiyotlar:

1. Абдуҳалимов Б. Байт ал-Ҳикма ва Марказий Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти. -Т.: “Ўзбекистон”, 2010.
2. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ. 3 жилд. -Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1997.
3. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ал-Жомеъ ас-саҳиҳ. 4 жилд. -Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1997.
4. Ислом Энциклопедия. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004.
5. Маънавият юлдузлари. //Тўпловчи ва масъул муҳаррир: М.М.Хайруллаев/.-Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.
6. Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. -Т.: “Фан” нашриёти, 1971.
7. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
8. Уватов У. Муҳаддислар имоми. –Т.: “Маънавият”, 1998.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 том. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.
10. ЎЗМЭ 5 том. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003.
11. ЎЗМЭ 6 том. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003.
12. ЎЗМЭ 11 том. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2005.
13. Ҳожи Исматуллоҳ Абдуллоҳ. Марказий Осиёда Ислом маданияти. -Т.: “Шарқ”, 2005.

3. Rus tilidagi adabiyotlar:

1. Бартольд В.В. Сочинения VI. Работы по истории ислама и Арабского Халифата. -М.: Издательство «Наука», 1966.
2. Бахтин М.М. Эстетика слова. Контекст. М., 1974.
3. Большаков О.Г. Очерки истории арабской культуры (V-XV в.в.). –М.: Издательство «Наука», 1982.
4. Воронина В.Л. Средневековый город арабских стран.-М.: Издательство ВНИИТАГ, 1991.
5. Всемирная история. III том. –М.: Государственное издательство политической литературы, 1957.
6. Григорян С.Н.Средневековая философия народов Ближнего и Среднего Востока. –М., 1966.
7. Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600–1258). -М.: 1988.
8. Ирмияева Т.Ю. История мусульманского мира от халифата до блистательной порты. -М.: Издательство «Урал-книга». 2000.
9. Корсунский А.Р. История Испании IX-XIII веков. –М.: Высшая школа, 1976.
10. Лалагуна Х., Испания: История страны. –М.: Издательство Мидгард, 2009.
11. Ланда Р.Г. История арабских стран. -М.: Восточный университет, 2005.
12. Матвеев К.П. История Ислама. -М.: Издательство «Восток-Запад», 2005.
13. Мец А. Мусульманский Ренессанс. -М.: Издательство «Наука», 1973.
14. Монгомери У.У. Влияние ислама на средневековую Европу. –М.: «Наука», 1976.
15. Нефедов С.А. История Средних веков. –М.: «Издательство «Владос», 1996.
16. Соколова М.В. Мировая культура и искусство. –М.: Издательский центр “Академия”, 2007.

17. Уотт У.М., Какиа П. Мусульманская Испания -М.: Издательство «Наука», 1976.

18. Фильштинский И.М. История арабов и Халифата 750-1517 г.г. -М.: Издательство «Восток-Запад», 2006.

19. Чистякова Т.А. Арабский халифат. –М.: Издательство Учпедгиз. 1962.

4. Chet tilidagi adabiyotlar:

1. Ullmann M. Medizin in Islam. Handbuch der Orientalistik. Leiden. Brill. 1970.

5. Davriy nashrlar:

1. Ёдгоров Ш. “Шарқ маданиятининг ихлосманди”. Т.: “Камолот сари” иктидорли ёшлар тўплами, 2010.

2. Раджиддинов М. “Аждодлардан қолган буюк мерос”. “Имом ал-Бухорий сабоқлари”, 2006, 4 сон.

3. Сулаймонова Ф. “Ислом ва илм”. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. 1997, 13 июнь.

4. Шодмонов Н. “Мусика – уйғониш демак”. “Тафаккур” журнали, 1997, 3 сон.

6. Internet saytlari:

1. <http://www.dic.academic.ru>

2. <http://www.evolutsia.com>

3. <http://www.ziyouz.com>

4. <http://www.xattot.uz>

5. <http://www.wikipedia.org>

6. <http://www.east-west.com>

7. Hujjatli film:

1. Гарднер Р. “Ислом. Иймон салтанати”, хужжатли филм. “Gardner films” маҳсулот.

Ilovalar:

Me`morchilik



Damashq. Ummaviylar masjidi (705-715-yillar).




Qubbat as-Sahro masjidi.


Qusayr Amro (hozirgi Iordaniya hududida).




**Tasviriy san`at (Ummaviylar davriga oid Qusayr Amro qasri devorlariga
ishlangan suratlar)**



Miniatyura



Bayt al-hikma.



Muhammad (s.a.v.)ning tarixiy shaxs sifatida ishlangan miniatyuralari.

Xattotlik san`atidan namunalar



"Suls" xatining
nafisligi....

Bayt al-himada ilm-fan rivoji

